O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIY TA’LIMDA O’QITISH TEXNOLOGIYALARI

# INSTITUSIONAL IQTISODIYOT FANI BO’YICHA TA’LIM TEXNOLOGIYASI

Uslubiy qo’llanma SamDU
O’quv- uslubiy kengashining
2012 yil _____dagi -raqamli
majlisida muhokama qilinib
nashrga tavsiya etilgan

**Samarqand – 2012**

Institusional iqtisodiyot fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi: Uslubiy qo'llanma / "Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyasi" seriyasidan - Samarqand.: SamDU nashri 2012. 149 bet.

Tuzuvchi: dos.Quvondiqov Sh.O.

**Loyiha muharriri**

iqtisod fanlari doktori, dosent B.X.Turayev

**Taqrizchilar:**

iqtisod fanlari nomzodi, professor B.A.Abdukarimov

iqtisod fanlari nomzodi, dosent B.M.Bobokulov

Uslubiy qo'llanmada "Institusional iktisodiyot" fani bo'yicha o'qitishning yangi texnologiyalashtirish qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi keltirilgan.

Ushbu qo'llanma oliy o'quv yurtlari pedagok o'qituvchilari va talabalar uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga o'quv-uslubiy qo'llanmadan "Institusional iktisodiyot" fani bilan qiziquvchi ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

O'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutahassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida"gi № PQ 1533-sonli qarori 2-ilovasi 7-bandida ko'rsatib o'tilgan vazifalar hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 15 oktyabrdagi № 87-01/1-166 modemogrammasida belgilab berilgan o'quv-uslubiy majmualar namunaviy tarkibi va Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti metodikasi asosida ishlab chiqilgan.

**© Samarqand davlat universiteti, 2012**

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **INSTITUSIONAL IQTISODIYoT FANI BO'YIChA TA'LIM TEXNOLOGIYaSINING KONSEPTUAL ASOSLARI** | | |
| 1 | Kirish | 5 |
| 2 | Institusional iqtisodiyot kursining dolzarbligi va o'qitish strukturasi | 7 |
| 3 | Institusional iqtisodiyot kursining asosiy mazmuni | 9-11 |
| 4 | Institusional iqtisodiyot o'quv kursi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari | 12-14 |
| **INSTITUSIONAL IQTISODIYoT FANIDAN MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI** | | |
| **1.** | **Institusional iqtisodiy nazariya va uning hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarida tutgan o'rni** | 16-35 |
| 1.1. | Mavzu bo'yicha ma'ruzani olib borish modeli | |
| 1.2. | Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni olib borish modeli | |
| **2.** | **Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli** | 36-49 |
| 2.1. | Mavzu bo'yicha ma'ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 2.2. | Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi | |
| 2.3. | Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **3.** | **O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorliklarni modellashtirish** | 50-60 |
| 3.1. | Mavzu bo'yicha ma'ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 3.2. | Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi | |
| 3.3. | Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **4.** | **Reja va bozor instituti** | 61-70 |
| 4.1. | Mavzu bo'yicha ma'ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 4.2. | Ma'ruzani olib borish texnologik xaritasi | |
| 4.3. | Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **5.** | **Transaksiya va transaksiya xarajatlari** | 71-82 |
| 5.1 | Ma'ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 5.2 | Mavzu bo'yicha ma'ruzani olib borish texnologik xaritasi | |
| 5.3. | Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **6.** | **Xufyona iqtisodiyot** | 83-95 |
| 6.1. | Ma'ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 6.2. | Mavzu bo'yicha ma'ruzani olib borish texnologik xaritasi | |
| 6.3. | Mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **7.** | **Mulkni muqobil rejimi va tashqi samarasi** | 96-103 |

| | | |
|---|---|---|
| 7.1. | Ma’ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 7.2. | Mavzu bo’yicha ma’ruzani olib borish texnologik xaritasi | |
| 7.3. | Mavzu bo’yicha amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **8.** | **Shartnomalar nazariyasi** | 104-115 |
| 8.1. | Ma’ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 8.2. | Mavzu bo’yicha ma’ruzani olib borish texnologik xaritasi | |
| 8.3. | Mavzu bo’yicha amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **9.** | **Davlat to’g’risida yangi institutsional nazariya** | 116-127 |
| 9.1. | Ma’ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 9.2. | Mavzu bo’yicha ma’ruzani olib borish texnologik xaritasi | |
| 9.3. | Mavzu bo’yicha amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **10.** | **Uy xo’jaligi va uning xillari** | 128-139 |
| 10.1. | Ma’ruzani olib borish texnologiyasi | |
| 11.2. | Mavzu bo’yicha ma’ruzani olib borish texnologik xaritasi | |
| 10.3. | Mavzu bo’yicha amaliy mashg’ulotni olib borish texnologiyasi | |
| **11.** | **Baholash mezonlari jadvali** | 140-151 |
| **12.** | **Barcha mavzularga oid tavsiya etiladigan umumiy adabiyotlar ro’yxati** | 152-155 |

# KIRISH

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lida kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash, fan va ta'lim sohasini tubdan isloh etish jarayoni jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma iqtisodiyot sohasida ta'lim olayotgan talabalarga Institusional iqtisodiyot fanidan bilimlarini shakllantirish bo'yicha asosiy holatlar va ko'rsatmalarni yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim texnologiyalari asosida ushbu sohaga tatbiq etish yo'llari ifoda etilmoqda. Uslubiy qo'llanma orqali ushbu fanning nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ayrim masalalarini: fanning predmetini, asosiy tamoyillarini, institusionalizm nazariyasi, institutlar va ularning subyektlari bilan bog'liq ayrim muammolarni o'rganish nazariya va amaliyotni umumlashtirish, uning natijalarini amaliyotga tatbiq qilish kabi mavzularni qamrab oladi.

Uslubiy qo'llanma - fanning maqsadi, ahamiyati va vazifalari; talabalarning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar; nazariy, amaliy va mustaqil ish mashg'ulotlari hajmi va mazmuni; kurs ishlari mavzusi; metodik tavsiyalar, taqvimiy mavzuiy rejalar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va baholash mezonlarini qamrab olgan.

Uslubiy qo'llanmada fan, texnika, texnologiyaning so'nggi yutuqlari, oliy ta'lim rivojlanishining jahon tendensiyasi hisobga olinib, respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

**INSTITUSIONAL IQTISODIYOT KURSI BO’YICHA TA’LIM TEXNOLOGIYASI**

**INSTITUSIONAL IQTISODIYOT KURSI BO’YICHA TA’LIM TEXNOLOGIYASINING KONSEPTUAL ASOSLARI**

**MA’RUZA**

**SEMINAR**

**AMALIYOT**

**MASHG’ULOTLARIDA O’QITISH TEXNOLOGIYALARI**

**KLASTER TEXNOLOGIYASI**

**KUTISH YO’LDOSHI TEXNOLOGIYASI**

**INSERT TEXNOLOGIYASI**

**BBB TEXNOLOGIYASI**

**BUMERANG TEXNOLOGIYASI**

**ZIGZAG TEXNOLOGIYASI**

**CHARXPALAK USULI**

**BLIS-SO’ROV USULI**

**GURUHLARDA ISHLASH USULI**

**AQLIY XUJUM USULI**

**INSTITUSIONAL IQTISODIYOT**
**FANI BO'YICHA TA'LIM TEXNOLOGIYASINING**
**KONSEPTUAL ASOSLARI**

| 1. | Institusional iqtisodiyot kursining dolzarbligi va o'qitish strukturasi |
|---|---|

## Fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda institusional iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, iqtisodiyot subyektlarning faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga bozor iqtisodiyoti qonunlarini, iqtisodiyot subyektlari, institutlar tizimi, mulk huquqlari, infratuzilmalardagi harakat faoliyatini, ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni, davlat va uy xo'jaligi kabi institutlarni, institusional islohotlarni tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.

## 2. Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar

Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar Davlat ta'lim standartidagi malakaviy tavsifga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, talaba fanni o'zlashtirgandan keyin:

-institutlar tushunchasi, institusionalizm mohiyati va tamoyillari, institutlar va ularning iqtisodiyotdagi funksiyalari, rejali va bozor iqtisodiyot institutlari asosiy qonunlari, transaksiyalar va transaksion xarajatlari ahamiyati, institusional islohotlar maqsadi, vazifalari va huquqiy asoslari, shartnoma (kontrakt) tushunchasi va uning asosiy shartlari, bozor, firma va xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari haqida aniq ***tasavvurga ega bo'lishi lozim;***

-institusional nazariyaning paydo bo'lishi, uning konsepsiyalarini, institutlar tizimi va o'yinlar nazariyasini, mulk huquqlarini tasniflanish belgilarini, xufyona faoliyatning kelib chiqish sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalari, oqibatlarini, institutlar faoliyatining rasmiy va norasmiy qoidalarini, institusional islohotlar bosqichlarini, korporativ tizimlarini va ular guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari, ustunliklarini, xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ***bilishi kerak;***

-iqtisodiyotda joriy etilgan institutlar tizimini, ular faoliyatining rasmiy va norasiy me'yorlarini taqqoslash, transaksiya xarajatlarini klassifikasiyalash va ular ko'rsatkichlarini tahlil qilish, shartnoma (kontrakt) tarkibi va ularning asosiy ko'rsatkichlarni baholash va tashkiliy tuzilmalarni tahlil qilish, davlat va firma faoliyatining rasmiy va norasmiy me'yorlarini shakllantirish bo'yicha ***ko'nikmalarga ega bo'lishi* lozim.**

## 3. Fanning o’quv rejadagi boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Hozirgi kunda institusional iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasining uzviy bir yo’nalishi sifatida dadil maydonga chiqdi. Ushbu nazariya Rossiya, Ukraina, Boltiq bo’yi va boshqa qator o’tish iqtisodiyotiga ega bo’lgan mamlakatlarning iqtisodiyot yo’nalishida kadrlar tayyorlovchi oliy o’quv yurtlarida keng o’qitilmoqda.

“Institusional iqtisodiyot” fani “Iqtisodiy nazariya”, “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”, “Milliy iqtisodiyot”, “Mikroiqtisodiyot”, “Makroiqtisodiyot” fanlari bilan uzviy bog’liq bo’lib, bakalavriat bosiqichida 5- semestrda o’qitiladi.

## 4. Fanning hajmi va mazmuni

### 4.1.Fanning hajmi

| № | Ajratilgan soat<br>Mashg’ulot turi | I-semestr |
|---|---|---|
| 1 | Nazariy (ma’ruzalar) | 28 |
| 2 | Amaliy | 28 |
| 3 | Mustaqil ta’lim | |
| | Jami | 100 |

## 5. Fanning ishlab chiqarishdagi o’rni

Institutlar va ularning iqtisodiyotdagi funksiyalari, rejali va bozor iqtisodiyot institutlari asosiy qonunlari, transaksiyalar va transaksion xarajatlari ahamiyati, institusional islohotlar maqsadi, vazifalari va huquqiy asoslari, shartnoma (kontrakt) tushunchasi va uning asosiy shartlari, bozor, firma, davlat va uy xo’jaliklari institusional iqtisodiyot fanining tarkibi qismlarini tashkil qiladi. Shuning uchun institusional iqtisodiyot fani umumixtisoslik fanlar blokining asosiy fanlaridan biri hisoblanadi.

## 6. Fanni o’qitishdagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari

Talabalarning “Institusional iqtisodiyot” fanini o’zlashtirishlari uchun ilg’or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu jumladan, mazkur fan uchun yaratilgan pedagogik ta’lim texnologiyalari, o’quv-uslubiy majmualarva keys stadilardan foydalanish, shuningdek, ya’ni ta’limning “Insert”, “Blis-so’rov”, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Zig-zag”, “Guruhlar bo’lib ishlash”, kabi o’quv usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

| 2 | **Institusional iqtisodiyot fanining asosiy mazmuni** |
|---|---|

### 1-Mavzu: Institusional iqtisodiyot va uning hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarida tutgan o'rni

Institut tushunchasi. Institutlarning iqtisodiyotni harakatlanib turishidagi roli. Institusionalizm iqtisodiy yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishi. Institusionalizmning asosiy xususiyatlari. Institusionalizm va zamonaviy yangi klassikaga oid iqtisodiy nazariya. Eski va yangi instiusionalizmning asosiy oqimlari. Hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarining asosiy xususiyatlari.

### 2-Mavzu: Me'yor va institutlar

Me'yor tarifi. Me'yor rasional tanlov natijasi sifatida. Kelishuvlar va ularning turlari. Institutlar va ularning iqtisodiyotdagi funksiyalari. Institutlar tizimi. Institutlar va individlar o'zaro xarakatlari.

### 3-Mavzu: O'yinlar nazariyasi va o'zaro xarakatlarni modellashtirish

O'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari. Ustuvor strategiyalar. Neshu, Shtakelbberg va Pareto bo'yicha muvozanat turlari. O'zaro xarakatlar modellari klassifikasiyasi. Takrorlanuvchi o'yinlar va ularning mohiyati, modellari.

### 4-Mavzu: Reja va bozor institutlari

Reja instituti va uning asosiy qonuni (konstitusiyasi). Rejali iqtisodiyot faoliyat ko'rsatishi va uning me'yorlari. Bozor konstitusiyasi. Oddiy va murakkab utilitarizm tushunchalari. Axborotlar assimetriyasi va uni bozor sharoitida namoyon bo'lishi. Sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi ishonch va erkinlik kategoriyalari.

### 5-Mavzu: Transaksiyalar va transaksion xarajatlar

Transaksiyalar tushunchasi va uning ahamiyati. Mulkdorlar o'rtasida mulkchilik huquqini taqsimlanishi. Kouza teoremasi va uning isboti. Transaksion xarajatlar tushunchasi, kelib chiqish shartlari va ahamiyati. Transaksiya xarajatlari turlari va ularni kamaytirish vositalari. Transaksion xarajatlar klassifikasiyasi va ular ko'rsatkichlarini hisoblash yo'llari.

### 6-Mavzu: Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tashqi samaralar va mulkchilikning muqobil shakllari

Tashqi samaralar ta'rifi va uning klassifikasiyasi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tashqi samara konsepsiyasini rivojlantirish. Mulkchilik tushunchasiga berilgan ta'riflarga yondashuvlar tahlili. Mulkchilik shakllarining tasniflanish belgilari. Mulkchilik instituti rivojlanishining Yevropa va Osiyo

mamlakatlarida tarkib topgan yo'llari. Mulkchilik munosabatlarida mulkka egalik qilish rolini o'zgarishi. Mulk shakllarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari.

### 7-Mavzu: Xufyona iqtisodiyot

Xufyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalari. Xufyona iqtisodiyot tarkibi. Xufyona iqtisodiyot ko'lamini baholashga yondashuvlar va ularning ko'rsatkchilari. Xufyona faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar va ularning tulari. Xufyona iqtisodiyot bozori va uning faoliyat yuritishining oqibatlari.

### 8-Mavzu: Institutlarning rivojlanishi

Institutlar faoliyatining rasmiy va norasmiy qoidalari. Favqulotda yuzaga keluvchi qoidalar. Institutlar rivojlanishining evolyusion variantining mohiyati va ahamiyati. Institutlarni import qilish – ular rivojining revolyusion varianti. Institusional rivojlanishning ikki ssenariysi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

### 9-Mavzu: Mamlakatni modernizasiya qilish sharoitida institusional islohotlar

Modernizasiya qilishning bosh maqsadi, vazifalari va huquqiy asoslari. Institusional o'zgarishlar va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish. Islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish.. Qishloq xo'jaligini isloh qilish va yangi agrar munosabatlarni takomillashtirish. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishi.

### 10-Mavzu: Shartnoma (kontrakt) nazariyasi

Shartnoma tushunchasi va uni bozor iqtisodiyotdagi roli. Yollash shartnomasi. Sotish shartnomasi. Shartnomalar tarkibi va ularning asosiy shartlari. «Prinsipial» va «agent» tushunchasi. Shartnoma doirasida «buyurtmachi» va «bajaruvchi» munosabatlari va ular o'rtasidagi chegaralar.

### 11-Mavzu: Bozor va firma institutlari

Bozor va uning o'ziga xos tomonlari. Bozordagi o'zaro almashinuv tiplari. Firma va uning turlari. Firmaning ichki tuzilmasi. «Prinsipial» va «Agent» muammolari. Unitar, xolding, multidivizional va aralash tuzilmalar. Vertikal va gorizontal integrasiya konsepsiyalari. Firmalar faoliyatining ichki va tashqi ishtirokchilari. Zamonaviy firmalar va ularning funksiyalari.

### 12-Mavzu: Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korporativ tuzilmalar va ular rivojlanishi istiqbollari

Zamonaviy korporasiyalar tashkiliy-huquqiy shakllarining o'ziga xos xususiyatlari. Korporasiyalar ustunliklari. Integrasiyalashgan korporativ

tuzilmalar va ularning guruhlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O’zbekistonda shakllangan korporativ tuzilmalar va ularning rivojlanish istiqbollari.

### 13-Mavzu: Tashkiliy tuzilmalar tahlili

Tashkiliy tuzilmalarni tahlil qilishning mohiyati va vazifalari. Firma balansi - uning tuzilmasi haqidagi axborot manbai sifatida. Firma ichidagi kelishmovchiliklar va ularni hal etish yo’llari. Firmaning tashkiliy-huquqiy shakli - uning strategiyasini belgilovchi omil sifatida.

### 14-Mavzu: Davlatning yangi institusional nazariyasi

Davlatning tashkilot sifatida funksiyalari va vazifalari. Davlatning mulk munosabatlaridagi roli, davlat va xususiy mulk chegaralari. Davlatlar tiplari va ular faoliyat yuritishining o’ziga xos jihatlari. Davlat byudjeti tarkibi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va uni baholash ko’rsatkichlari.

### 15-Mavzu: Uy xo’jaliklari va uning turlari

Uy xo’jaligi ta’rifi, uning o’ziga xos xususiyatlari. Uy xo’jaligi turlari va uning oila bilan o’zaro bog’liqligi. Uy xo’jaligi turli shakldagi iqtisodiyot davrlarida faoliyat yuritishi va uning funksiyalari. Dehqon xo’jaliklari - uy xo’jaligining tarkibiy qismi sifatida.

### 16-Mavzu: Rivojlanishning institusional nazariyasi va innovasiya turlari

Rivojlanish nazariyasining neoklassik varianti. Dj.M.Keynsning rivojlanish konsepsiyasi va iqtisodiy dinamikaning neokeynsian nazariyasi. Innovasiyalarni klasslarga ajratish. Innovasiya ishtirokchilarining taqqoslama tahlili. Institusional va tashkiliy innovasiyalar ustunligi.

# 3. INSTITUSIONAL IQTISODIYOT FANI BO'YICHA MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg'or davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollarini belgilovchi hujjat sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib, ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

**Institusional iktisodiyot fanini o'qitishdan maqsad** – Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda institusional iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, iqtisodiyot subyektlarining faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – talabalarga bozor iqtisodiyoti qonunlarini, iqtisodiyot subyektlar institutlar tizimi, mulk huquqlari, infratuzilmalardagi harakat faoliyatini, ularning faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni, davlat va uy xo'jaligi kabi institutlarni, institusional islohotlarni tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratigagina emas, balki tinglovchining istak-hohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim obyektiv borliqdagi voqyea-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar

natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustaqil o'qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo'ladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimediali qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda «Institusional iktisodiyot» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

***Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

***Tizimli yondoshuv.*** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

***Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.*** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

***Dialogik yondoshuv.*** Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

***Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.*** Demokratlilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi subyektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

***Muammoli ta'lim.*** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

***Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash*** – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

Keltirilgan konseptual yo'riqlarga asoslangan holda, Fuqarolik prosessual huquq kursining maqsadi, tuzilmasi, o'quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum sharoit va o'quv rejasida o'rnatilgan vaqt oralig'ida o'qitishni, kommunikasiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

***O'qitishning usullari va texnikasi.*** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullaridan, amaliy ishlash usuli.

***O'qitishni tashkil etish shakllari***: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asolangan frontal, kollektiv va guruh.

***O'qitish vositalari*** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

***Kommunikasiya usullari:*** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

***Teskari aloqa usullari va vositalari***: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

***Boshqarish usullari va vositalari***: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

***Monitoring va baholash***: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida talabalar bilimi test topshiriqlari yordamida yoki yozma nazorat asosida baholanadi.

# INSTITUSIONAL IKTISODIYOT FANIDAN MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

## Institusional iqtisodiyot fanining mantiqiy strukturasi

MAVZU 1. Institusional iqtisodiy nazariya va uning hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarida tutgan o'rni

MAVZU 2. Me'yor va institutlar

MAVZU 3. O'yinlar nazariyasi va o'zaro xarakatlarni modellashtirish

MAVZU 4 Reja va bozor institutlari

MAVZU 5 Transaksiyalar va transaksion xarajatlar

MAVZU 6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tashqi samaralar va mulkchilikning muqobil shakllari

MAVZU 7. Xufyona iqtisodiyot

MAVZU 8. Institutlarning rivojlanishi

MAVZU9 mamlakatniodernizasiyaqilishsharoitida institusional islohotlar

MAVZU 10. Shartnoma (kontrakt) nazariyasi

MAVZU 11. Bozor va firma institutlari

MAVZU 12 Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korporativ tuzilmalar va ular rivojlanishi istiqbollari

MAVZU 13 Tashkiliy tuzilmalar tahlili

MAVZU 14 Davlatning yangi institusional nazariyasi

MAVZU 15 Uy xo'jaliklari va uning turlari

MAVZU 16 Rivojlanishning institusional nazariyasi va innovasiya turlari

# MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 1-мавzu | INSTITUSIONAL IQTISODIY NAZARIYA VA UNING HOZIRGI DAVR IQTISODIY TA'LIMOTLARIDA TUTGAN O'RNI |
|---|---|

### 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| *Mashg'ulot vaqti*-2 soat | **Talabalar soni: 20 – 30 gacha** |
|---|---|
| *Mashg'ulot shakli* | **Kirish-axborotli ma'ruza** |
| ***Ma'ruza rejasi*** | 1. Institut tushunchasi.<br>2. Institusionalizm iqtisodiy yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishi<br>3. Institusionalizmning asosiy xususiyatlari.<br>4. Institusionalizm va zamonaviy yangi klassikaga oid iqtisodiy nazariya<br>5. Eski va yangi instiusionalizmning asosiy oqimlari<br>6. Hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarining asosiy xususiyatlari. |

**Ma'ruzaning maqsadi:** Talabalarga institusional iqtisodiyot fanining mazmuni vazifalari va iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni aniqlanib beriladi. institusional iqtisodiyot fanining obyekti, predmeti va usullari talabalarga yetkaziladi.

| ***Pedagogik vazifalar*:** | ***O'quv faoliyati natijalari:*** |
|---|---|
| • Institusional iqtisodiyot fanining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tumaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish;<br>• Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iqtisodiy fanlarning o'rni va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar berish;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining tarkibiy tuzilishii bilan tanishtirish;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining obyekti va predmeti haqida ma'lumotlar berish;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining usullari haqida ma'lumotlar berish; | • Institusional iqtisodiyot fanining maqsadi va vazifalarini, o'tiladigan mavzularni tuilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlab beradi;<br>• Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iqtisodiy fanlarning o'rni va ahamiyatining mazmun-mohiyatini ochib beradilar;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini yoritib beradilar;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining tarkibiy tuzilishiini aytib beradilar;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining obyekti va predmetini aytib beradilar;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining usullarini sanab o'tadi; |
| **Ta'lim metodlari** | ma'ruza, blis-so'rov, pinbord texnikasi, aqliy xujum |
| **Ta'lim vositalari** | O'UM, ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska |
| **O'qitish shakllari** | Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash. |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og'zaki savollar, blis-so'rov |

**1.2. "Institusional iqtisodiy nazariya va uning hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarida tutgan o'rni"** ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| *Ish bosqichlari va vaqti* | *Faoliyat mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *Ta'lim beruvchi* | *Ta'lim oluvchilar* |
| **Tayyorgarlik bosqichi.** | 1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.<br>2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorash.<br>3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.<br>4. O'quv kursini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish. | |
| **1. Mavzuga kirish** *(15 daqiqa)* | 1.1. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro'yxatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi *(1-ilova).*<br>1.2 Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi *(2-ilova).*<br>1.3. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.<br>1.4. «Aqliy hujum» metodini qo'llab, mavzu bo'yicha tanish tushunchalarni aytishlarini taklif qiladi (3-ilova). Barcha takliflarni doskaga yozib boradi. | Tinglaydilar.<br>Tinglaydilar<br>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. |
| **2-bosqich Asosiy bosqich** (55 daqiqa) | 2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi<br>2.2. Institusional iqtisodiyot fanining maqsadi va vazifalarini sxemalar tarzida tushuntirib beradi *(4-ilova).*<br>2.3. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iqtisodiy fanlarning o'rni va ahamiyatini yoritib beruvchi slaydlar namoyishi orqali ma'lumotlar beradi *(5-ilova).*<br>2.4. Institusional iqtisodiyot fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini slaydlar orqali tushuntirib beradi *(6-ilova).*<br>2.5. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollarni beradi:<br>* Institut so'zining mazmunini yoritib bering?<br>* Iqtisodiyot fanlari tizimiga qanday fanlar kiradi?<br>2.6.Doskada qayd etilgan asosiy tushunchalarga qaytishni taklif qiladi. Talabalar bilan hamkorlikda tushunchalar ro'yxatini aniqlashtiradi, qaytarilganlarini olib tashlaydi, mavzuga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni olib tashlaydi hamda qayd etilmagan zarur tushuncha va atamalarni qo'shadilar (yozadilar). | Tinglaydilar, yozadilar.<br>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.<br>Tinglaydilar, yozadilar. |
| **3. Yakuniy bosqich** | 3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladilar. Faoliyat natijalarini izohlaydi. Mazkur mavzu bo'yicha egallangan bilimlar kelajakda qayerlarda qo'llanilishi mumkinligi haqida ma'lumot beradi. | Tinglaydilar.<br>Vazifani yozib |

| | | |
|---|---|---|
| *(10 daqiqa)* | 3.2.Talabalar faoliyatini va belgilangan o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini baholaydi.<br>3.3.Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) bo'sh sxemalarni to'ldirish; (2) savollarga og'zaki javob topib kelish.(7-ilova | oladilar. |

1-ilova

**Institusional iqtisodiyot fanining mantiqiy strukturasi**

MAVZU 1. Institusional iqtisodiy nazariya va uning hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarida tutgan o'rni

MAVZU 2. Me'yor va institutlar

MAVZU 3. O'yinlar nazariyasi va o'zaro xarakatlarni modellashtirish

MAVZU 4 Reja va bozor institutlari

MAVZU 5 Transaksiyalar va transaksion xarajatlar

MAVZU 6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tashqi samaralar va mulkchilikning muqobil shakllari

MAVZU 7. Xufyona iqtisodiyot

MAVZU 8. Institutlarning rivojlanishi

MAVZU9 mamlakatniodernizasiyaqilishsharoitida institusional islohotlar

MAVZU 10. Shartnoma (kontrakt) nazariyasi

MAVZU 11. Bozor va firma institutlari

MAVZU 12 Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida korporativ tuzilmalar va ular rivojlanishi istiqbollari

MAVZU 13 Tashkiliy tuzilmalar tahlili

MAVZU 14 Davlatning yangi institusional nazariyasi

MAVZU 15 Uy xo'jaliklari va uning turlari

MAVZU 16 Rivojlanishning institusional nazariyasi va innovasiya turlari

2-ilova

**MAVZU BO'YIChA TINGLOVChILARNING O'ZLAShTIRIShLARINI BAHOLASh MEZONLARI**

| Muddati | Nazorat shakli | Talaba ballari |
|---|---|---|
| Ma'ruza mashg'uloti darsida | Ma'ruza mashg'ulotida faol ishtirok etish va guruhda ishlash | 14 ball |
| Amaliy mashg'ulot darsida | Amaliy mashg'ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash | 14 ball |
| Kurs bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishi (masalalar, referat va boshqalar) | Mavzular bo'yicha yozilgan ishga | 20 ball |
| Kurs davomida fanning bo'limlari bo'yicha nazorat ishi va testlar (oraliq nazorat ballari) | Ma'ruza mashg'ulotlaridan olingan bilimlarni mustaxkamlaydi va amaliyotda qo'llash uchun o'zlarini bilimlarini sinab ko'radi | 28 ball |
| Kurs oxirida | Test topshirish yoki og'zaki baholash | 24 ball |
| | Jami: | 100 ball |

86 % - 100% → «A'lo»
71 % - 85% → «Yaxshi»
55 % - 70% → «Qoniqarli»
0% - 54% → «Qoniqarsiz»

**3-Ilova**

***«Aqliy hujum» metodining asosiy qoidalari:***

- Auditoriyada olga surilgan fikr va g'oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- Har bir shaxs tomonidan taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying!
- Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda notiqni bo'lma!
- Maqsad – mazmunli fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish.
- Qanchalik ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi va bebaxo fikr va g'oyaning paydo bo'lish ehtimoli ko'payadi.
- Agar fikrlar qaytarilsa asabiylashmang va hayron bo'lmang.
- Bu muammo faqatgina ma'lum usullar yordamidagina hal bo'lishi mumkin, deb o'ylamang.
- Fikrlar «hujumi» ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat'iyan rioya qilinishi shart.

Berilgan savolga qisqacha (1-2 so'zdan iborat) javob beriladi.

# I. Institusional iqtisodiyot fanining maqsadi va vazifalari

**INSTITUSIONAL IQTISODIYOT FANINING MAQSADI**

1. Фаннинг ўқитишдан мақсад – талабаларга мамлакатда рўй берадиган институтционал ўзгаришлар тўғрисида чуқур билимлар бериш, уларнинг фаолиятини таҳлил қилиш услубларини билишликларини таъминлаш,

2. бозор иқтисодиётига мос институционал ўзгаришларни ҳаётга тадбиқ қилиш кўникмаларини ўргатишдан, муаммоларга ижодий ёндашиш, уларни иқтисодий-ижтимоий самарадорлигини хисобга олган холга оптимал қарорлар қабул қилиш қобилиятини шакллантиришдан иборат.

**5-ilova**

## Iqtisodiy fanlar tizimi



6-ilova

**«Institusional iqtisodiyot»** fanining boshqa fanlar bilan aloqasi



5-ilova

**Mavzuni jonlantirish uchun blis so'rov savollari**

1. Hozirgi iqtisodiy ta'limotlarining yirik yo'nalishlarini ayting.
2. Institusionalizmning boshqa yo'nalishlardan farqini ayting.
3. «Eski» institusionalizm vakillarining qarashlarini sharhlang.
4. Instiusionalizmning asosiy nazariyalariga tarif bering.
5. Mulkiy va shartnomaviy munosabatlarga oid nazariyalarni sharhlang.
6. "Eski" va "yangi" institusional maktablarning prinsipial farqini ayting.

6 - ilova

**1§. Institut tushunchasi.**

to institute (ingl.) – belgilamoq, ta'sis qilmoq ma'nosini bildiradi.

Institut tushunchasi iqtisodchilarga ijtimoiy fanlar tomonidan o'zlashtirilgan bo'lib, qisman sosiologiya faniga ham tegishlidir.

**Institut -** bu ma'lum ehtiyojni qondirish uchun mo'ljallangan xizmatlar va belgili haq-huquqlar yig'indisidir.

Institut tushunchasini shuningdek, siyosiy falsafa va ijtimoiy psixologiya fanlari bilan bog'liq bo'lgan ilmiy ishlarda ham uchratish mumkin. Masalan, institut kategoriyasi Djon Rolzning «Adolat nazariyasi» deb nomlangan ilmiy ishida asosiy kategoriyalardan biri sifatida keltirilgan. Institut deganda men, qoidalarning ommaviy tizimini tushunaman, qaysikim bu tizimlar, tegishli huquqi va majburiyatlari, hokimiyat va daxlsizligi bo'lgan lavozim va amallarni tavsiflaydi. Ushbu qoidalar ayrim harakat shakllarini ruxsat etish tarzida tasniflasa, boshqalarini esa, man qilish tarzida tasniflaydi, hamda shu tarzda zulm o'tkazilganda, kuch ishlatilgan holatlarda ma'lum bir harakatni jazolasa, boshqalarini himoya qiladi. Misol sifatida yoki ijtimoiy amaliyotning yanada umumiy jihatlari sifatida oladigan bo'lsak, bunga o'yinlarni, diniy marosimlarni, sudlarni, parlamentlarni, bozorlar va mulkchilik tizimini kiritishimiz mumkin bo'ladi.Iqtisodiy nazariyada institut tushunchasi ilk bor tahlilda paydo bo'lib, bu tushunchani fanga Torsteyn Vebler kiritdi.

Ijtimoiy-institusional yo’nalishning boshlanishi X1X asrning oxirlariga to’g’ri keladi va XX asr 20-30 yillarida AQSh da keng tarqalgan.

Yo’nalishning nomi lotincha "institut" - so’zidan olingan. Institusionalizm – iqtisodiy nazariyadagi yo’nalishlardan biri. Unga ko’ra iqtisodiy hayot va iqtisodiy kategoriyalar institusional xarakterga ega. Institusionalizmda asosiy e’tibor davlat, xususiy mulk, soliq tizimi, din va monopoliyalarning iqtisodiyotga ta’siriga qaratiladi.

Yo’nalish vakillarining fikricha institutlar jamiyat rivojlanishining xarakatlantiruvchi kuchlari bo’lib xizmat qiladi.

Obyektiv iqtisodiy qonunlar tan olinmaydi. Xususiy mulk, soliq, pul, kredit, foyda va savdo kabi iqtisodiy kategoriyalar jamiyat ruhining paydo bo’lishi shakli hisoblanadi.

Bu yo’nalishdagilar ma’lum guruhlarning odat, an’analari, yurish-turishi, o’ylash usullari, huquqiy-ahloqiy va boshqa ko’rinishlar evolyusiyasini tadqiq qiladilar.

## 3§. Institusionalizmning asosiy xususiyatlari

Institusionalizm yo'nalishining tadqiqot predmeti sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, shu bilan birga noiqtisodiy muammolarni tahlil etish ilgari suriladi. Shu bilan birga, tadqiqot obyektlari, ya'ni institutlar birinchi yoki ikkinchi darajali deb qaralmaydi va bir biriga qarama-qarshi qo'yilmaydi.

Institusionalizmga xos bo'lgan uslubiy xususiyatlar:

1. neoklassikaga xos abstraksiyaning yuqori darajasi va ayniqsa, baho nazariyasining ortodoksal statik xususiyatidan qoniqmaslik;
2. iqtisodiy nazariyani boshqa ijtimoiy fanlar bilan integrasiyaga intilish yoki fanlararo yondashuv ustuvorligiga ishonch;
3. klassik va nooklassik nazariyalarda emperizm (tajribaga suyanish) yetishmasligidan norozilik, chuqur miqdoriy tadqiqotlar o'tkazishga chorlash.

## 4§. Institusionalizm va zamonaviy yangi klassikaga oid iqtisodiy nazariya

Yangicha klassikaga oid nazariyani, zamonaviy iqtisodning amaliyotida bo'layogan hodisalarni anglab olishga harakat qilayotgan iqtisodchilar dalillar bilan isbotlamoqchi bo'lishdi, ammo, ayrim sabablarga ko'ra ushbu keltirilgan dalillar yetarli darajada talabga javob bermadi(60-yillar boshida):

1. Yangicha klassikaga oid nazariya noreal, xayoliy nuqtai nazarga va cheklovlarga asoslanib, bu esa o'z navbatida iqtisodiy amaliyotga xos bo'lmagan modellardan foydalanishga olib keladi. Kouz yangicha klassikaga oid bunday holatni «sinf doskasining iqtisodiyoti» deb atagan.

2. Iqtisodiy fan fenomenlar (ya'ni, his-tuyg'u tajribasi bilan payqaladigan hodisani angaltuvchi tushuncha) doirasini kengaytiradi (masalan, ideologiya, huquq, odob-ahloq me'yorlari, oila kabilarni), qaysikim, ular iqtisodiy fan nuqtai nazaridan muvaffaqiyatli tarzda tahlil qilinadi. Bunday jarayon «iqtisodiy imperializm» degan nom oldi. Ushbu yo'nalishning ilk nomoyondalaridan biri Nobel mukofoti laureati Garri Bekker hisoblanadi. Ammo, insonlarning harakatini o'rganuvchi umumiy fanni yaratishga bo'lgan talab haqida avvalroq Lyudvig fon Mizes yozgan bo'lib, u bu holat uchun «prakseologiya» degan atamani taklif qilib kiritigan.

3. Yangicha klassika doirasida iqtisoddagi dinamik o'zgarishlarni batafsil tarzda tushuntirib beradigan nazariya deyarli mavjud emas, vaholanki, XX asrning tarixiy hodisalari bo'lib o'tayotgan muhim vaziyatda ularni o'rganishga talab ancha yuqori darajaga ko'tarilgan edi. (Umuman oladigan bo'lsak, XX asrning 80 yillariga qadar iqtisodiy nazariya doirasida bunday muammo faqatgina Marksning siyosiy iqtisodi doirasida chegaralangan holatda ko'rib chiqilar edi.

## 5§. Eski va yangi institusionalizmning asosiy oqimlari

«Eski institusionalizm, iqtisodiy oqim sifatida 19-20 asrlar oralig'ida yuzaga keldi. U iqtisodiy nazariyadagi eski va yangi tarixiy maktab deb nomlanuvchi tarixiy yo'nalish bilan uzviy bog'liqlikda bo'lgan (List F., Shmoler G., Bretano L., Byuxer K.).Institusionalizmning rivojlanishi boshidanoq, uning ijtimoiy nazorat va iqtisodiy jarayonlarga ommaning hamda ayniqsa, davlatning aralashuvi g'oyasini qo'llab-quvvatlashi bilan xarakterlanadi. Bu tarixiy maktabdan qolgan me'ros bo'lib, uning nomoyondalari barqaror deterministik (ya'ni, narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi materialistik ta'limotga asosan) bog'lanishlarning va iqtisodiyotdagi qonunlarning mavjudligini rad qilib qolmasdan, balki, jamiyatning farovonligiga milliy iqtisodiyotga naf keltiruvchi qat'iy davlat boshqaruvi orqaligina erishish mumkin degan g'oyaning ham tarafdorlari bo'lgan. «Eski instiusionalizm»ning ahamiyatga molik nomoyondalari quyidagilardir: Torsteyn Veblen, Djon Kommons, Uesli Mitchell, Djon Gelbreyt.

## 6§. Hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarining asosiy xususiyatlari.

Bozor munosabatlarining amalda namoyon bo'lishi, turli mamlakatlar, sohalar va tarmoqlarda bir-biridan farq qilganligi tarixdan ma'lum. Shuningdek, bozor munosabatlari to'g'risidagi g'oya va qarashlar o'z xususiyatlariga ega bo'lgan. Biroq X1X asr oxiri va XX asr boshiga kelib, iqtisodiy munosabatlar rivojidagi xususiyatlar yangicha yondashuv, tahlil va talqinlarni taqozo eta boshlagan. Bu esa, tadqiqotlarning yo'nalishlarida namayon bo'ldi. Nazariy tadqiqotlar amaliy faoliyatni chuqurroq o'z ichiga qamrab olishi bilan bir qatorda, amaliyotda ham nazariy qoidalarni qo'llash uchun intilish kuchaydi,ya'ni nazariya va amaliyot birligi muhimdir.

X1X asr oxiri va XX asr boshlarida bunday sharoit, hozirgi davr iqtisodiy g'oyalarining shakllanishi va rivojlanishi uchun boshlang'ich nuqta bo'ldi.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixida mazkur g'oyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi asosan uch xil yo'nalishga ajratib o'rganilmoqda:

Bular: 1. Ijtimoiy-institusional; 2. Keynschilik va yangi keynschilik; 3. Neoklassik.

5-ilova (1.1)

**Xulosa**

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida bozor iqtisodiyoti munosabatlarining jadal rivojlanishi barobarida iqtisodiy tadqiqotlar ko'lami yanada kengaydi va chuqurlashdi. Bu bilan hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarining yirik yo'nalishlari shakllandi. Ular uch yo'nalishdan: neoklassika, institusionalizm va keynschilikdan iborat. Klassik nazariyaning marjinal yondashuv bilan kengayishi neoklassik nazariya sifatida namoyon bo'ldi.

Institusionalizmning tadqiqot markazida institutlar – insonlar tomonidan barpo etiladigan va o'zaro hamkorlikni tarkiblovchi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy me'yorlar va qoidalar turadi. Institusional nazariya qoidalari neoklassik yondashuvga nisbatan yangi nazariya bo'lib, u bozor munosabatlari tahlilining yangi sohasidir. Individlar va institutlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda metodologik individualizm va xolizm metodologiyasidan foydalaniladi. Ular institutlar yoki individlarning birlamchiligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi.

Institusional iqtisodiyot rivojlanishida o'zaro o'xshash nomdagi neoinstiusional hamda yangi institusional bosqichlardan iborat. Birinchi bosqichda mulkchilik huquqlari (R.Kouz, R.Pozner, S.Peyovich), optimal shartnoma, konstitusiyaviy iqtisodiyot (V.Vanberg), ijtimoiy tanlov (J.Byukenen, G.Tallok), transaksiya xarajatlari (R.Kouz, O.Uilyamson), axborot (J.Stigler) nazariyalari, ikkinchi bosqichga *o'yinlar nazariyasi* (J. fon Neyman, O.Morgenshtern, J.Nesh), G.Saymonning to'liqsiz rasionallik nazariyasi kiritilgan. D.Nort tadqiqotlarida individlarning institusional doiralarni o'zgartirishga qodirligi ta'kidlanadi. Yangi institusional iqtisodiyotning eng yoyiq ko'rinishdagi dasturi *kelishuvlar iqtisodiyoti* (L.Tevano, O.Favro, A.Orlean, R.Buaye)dir. Uni tahlil qilish markazida kelishuvlar turadi. Kelishuvlar individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning umumiy doiralari sifatida qabul qilinadi.

## O’z-o’zini nazorat qilish savollari.

1. Hozirgi iqtisodiy ta’limotlarining yirik yo’nalishlarini ayting.
2. Institusionalizmning boshqa yo’nalishlardan farqini ayting.
3. «Eski» institusionalizm vakillarining qarashlarini sharhlang.
4. Instiusionalizmning asosiy nazariyalariga tarif bering.
5. Mulkiy va shartnomaviy munosabatlarga oid nazariyalarni sharhlang.
6. “Eski” va “yangi” institusional maktablarning prinsipial farqini ayting.
7. Neoinstitusional iqtisodiy nazariyani (neoinstitusionalizmni) rivojlantirish uchun nima asos bo’lib xizmat qildi?
8. Neoinstitusional nazariyaning asosiy qoidalari qanaqa? Ularning neoklassik nazariyaning bazaviy asoslaridan farqi nimada?
9. Neoinstitusional nazariyada nima tahlilning bazaviy birligi hisoblanadi?
10. Neoinstitusionalizmning asosiy yo’nalishlarini sanab bering.

## Mavzuga oid adabiyotlar ro’yxati:


1. I.A.Karimov. “Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. –Toshkent, O’zbekiston, 2010.
2. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqrozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari ” O’zbekiston:. 2009
3. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G’ofurov, B.K.Tuxliyev. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari» nomli asarini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
4. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O’rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. T.: “Moliya”. 2002.
5. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
6. Nort D. Institutы, institusionalnыye izmeneniya i ekonomicheskaya effektivnost – M., 2002.
7. Semyuels U. Institusionalnaya ekonomicheskaya teoriya // Panorama ekonomicheskoy mыsli XX stoletiya. Pod red. D. Grinueya, M. Blini, I. Styuarta. – SPb: Ekonomicheskaya shkola, 2006.

# AMALIY MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| 1-мavzu | INSTITUSIONAL IQTISODIY NAZARIYA VA UNING HOZIRGI DAVR IQTISODIY TA’LIMOTLARIDA TUTGAN O’RNI |
|---|---|

**1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli**

| | |
|---|---|
| **Mashg’ulot vaqti-2 soat** | **Talabalar soni: 20 –30 gacha** |
| **Mashg’ulot shakli** | **Mavzu bo’yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar** |
| ***Amaliy mashg’ulot rejasi*** | 1. Institusional iqtisodiyot fani to’g’risida umumiy tushunchalar va axborotlar.<br>2. Institusional iqtisodiyotning nazariy asoslari.<br>3.Institusional nazariya maktablarining klassifikasiyalanishi.<br>4. Institusional iqtisodiyot yunalishlari. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** Talabalarga institusional iqtisodiyot kursining mazmuni vazifalari va iqtisodiy fanlar tizimidagi o’rni aniqlanib beriladi. Institusional iqtisodiyot fanining obyekti, predmeti va usullari talabalarga yetkaziladi. | |
| ***Pedagogik vazifalar*:** | ***O’quv faoliyati natijalari:*** |
| • Institusional iqtisodiyot fanining maqsadi va vazifalari, o’tiladigan mavzularga tumaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish;<br>• Bozor munosabatlariga o’tish sharoitida iqtisodiy fanlarning o’rni va ahamiyati to’g’risida ma’lumotlar berish;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog’liqligi haqida ma’lumotlar berish;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining tarkibiy tuzilishii bilan tanishtirish;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining obyekti va predmeti haqida ma’lumotlar berish;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining usullari haqida ma’lumotlar berish; | • Institusional iqtisodiyot fanining maqsadi va vazifalarini, o’tiladigan mavzularni tuilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlab beradi;<br>• Bozor munosabatlariga o’tish sharoitida iqtisodiy fanlarning o’rni va ahamiyatining mazmun-mohiyatini ochib beradilar;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog’liqligini yoritib beradilar;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining tarkibiy tuzilishiini aytib beradilar;<br>• Institusional iqtisodiyot fanining obyekti va predmetini aytib beradilar;<br>Institusional iqtisodiyot fanining usullarini sanab o’tadi; |
| ***Ta’lim berish usullari*** | Munozara, suhbat,tezkor-so’rov |

| | |
|---|---|
| ***Ta'lim berish shakllari*** | Ommaviy, guruhlarda ishlash: "koop-koop" texnikasi |
| ***Ta'lim berish vositalari*** | O'quv qo'llanma, proyektor, flipchart, markerlar, ekspert topshiriqlari |
| ***Ta'lim berish sharoiti*** | Texnik ta'minlangan, gurhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |
| ***Monitoring va baholash*** | Og'zaki nazorat: savol-javob |

**1.2. "Institusional iqtisodiy nazariya va uning hozirgi davr iqtisodiy ta'limotlarida tutgan o'rni"** amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi *(1-ilova)*.<br>Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun - yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi *(2-ilova)*.<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi *(3-ilova)*. | |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi** *(10 daq)* | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning axamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.<br>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi *(4-ilova)*.<br>1.3. Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi *(2-ilova)*. | Savollarga javob beradilar. |
| **2. Asosiy bosqich** (55 daqiqa) | 2.1. Talabalarni 5-ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlik asosida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi *(2-3-ilova)*. Har bir guruh mavzu rejasi asosida takdimot tayyorlashini aytadi.<br>2.2. O'quv kursi mavzulari bo'yicha | Kichik guruhlarga bo'linadilar.<br><br>Topshiriqlar bo'yicha |

| | | |
|---|---|---|
| | tayyorlangan ekspert varaqalarini tarqatadi *(5-ilova).*<br>2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'liq yoritilishini kuzatadi.<br>2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlarda sardorlar takdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatadi, savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi.<br>2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi. | ishlaydilar.<br><br>Faol qatnashadilar, takdimot uchun materiallar tayyorlaydilar.<br><br>Guruhdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida hamkorlik qiladilar. |
| 3–Yakuniy bosqich (20 daqiqa) | 3.1.O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.<br>3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi. | Tinglaydilar. |

**1-ilova**

**«BIRGALIKDA O'QIYMIZ» TEXNIKASI**

**Birgalikda o'qish:** o'quv guruhi kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir kichik guruh o'rganilayotgan mavzuning ma'lum bir sohasida ekspert bo'ladi va boshqalarni o'rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to'la hajmda egallab olishdan iborat.

*«Birgalikda o'qiymiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishii*

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo'lgan har xil turdagi guruhlar to'ziladi.

↓

2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi,* uning ustida butun o'quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.

↓

3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.

↓

4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.

↓

5. Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag'i bo'yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.

↓

6. Spiker yoki guruh barcha a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

**2-ilova**

***Guruhlarda ishlash qoidasi***

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.

Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.

Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.

**3-ilova**

***Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari***

| **Mezonlar** | **Maks. Ball** | **Guruh natijalarini baholash** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** |
| Axborotning to'liqligi | 1,0 | | | | | | |
| Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi | 0,6 | | | | | | |
| Guruhning faolligi | 0,4 | | | | | | |
| Ballarning maksimal summasi, jami | 2 | | | | | | |

**4-ilova**

**Bilimlarni faollashtirish uchun savollar**

* Institusionalizm nazariyasining mazmunini yoritib bering?
* Iqtisodiyot fanlari tizimiga qanday fanlar kiradi?

**5-ilova**

**Ekspert varagi №1**
**O'quv topshiriq**

**Institusional iqtisodiyot fanining obyekti va predmeti**

1. Institut so'zining mazmunini yoritib bering?
2. Institusional iqtisodiyot fanining obyekti nima?
3. Institusional iqtisodiyot fanining predmeti?

**Ekspert varagi №2**
**O'quv topshiriq**

**Institusional iqtisodiyot fanining usullari**

1.Usul (metod) so'zining mazmunini yoritib bering?
2. Aristotelning usullar haqidagi fikrlarini izohlab bering?
3. Institusional iqtisodiyot fanining usullarini sanab o'ting?

**Ekspert varagi №3**
**O'quv topshiriq**

1. Institusional iqtisodiyot fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi
2. Iqtisodiy fanlari tizimiga qanday fanlar kiradi?

# MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| 2-мавzu. | INSTITUTLAR VA ULARNING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI |
|---|---|

**2.1.Ta’lim berish texnologiyasining modeli**

| Mashg’ulot vaqti- 2 soat | Talabalar soni: 20 – 30 gacha |
|---|---|
| **Mashg’ulot shakli** | **Ma’ruza-muloqot** |
| *Ma’ruza rejasi* | 2.1. “Institut” va “norma” tushunchalarining mohiyati<br>2.2. Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi<br>2.3. Institusional matrisa<br>2.4. Institusional o’zgarishlar va institutlarning o’zaro bog’liqligi. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi**:* Iqtisodiy harakatlar va axborotlar, institutlar, ularni funksiyalari, tizimi hamda iyerarxik qoidalar to’g’risida tushunchalar, iqtisodiy harakatlar va axborotlar, institutlar va ularni iqtisodiyotdagi funksiyalari, institutlar tizimi xamda iyerarxiya qoidalari talablarga yetkaziladi | |
| ***Pedagogik vazifalar**:* | ***O’quv faoliyati natijalari (talaba):*** |
| • Iqtisodiy harakatlar va axborotlar mohiyatini ochib berish;<br>• institutlar, ularni funksiyalari, tizimi hamda iyerarxik qoidalar to’g’risida tushunchalar mazmun mohiyatini ochib berish;<br>• Institutlar va ularni iqtisodiyotdagi funksiyalari va elementlarini tushuntirish;<br>• Institutlar tizimini yoritib berish;<br>• Institutlar tizimini haqida ma’lumotlar berish; | • Iqtisodiy harakatlar va axborotlar to’g’risidagi bilimlarini mustahkamlaydi;<br>• institutlar, ularni funksiyalari, tizimi hamda iyerarxik qoidalarning mazmun mohiyatini ochib berish imkoniga ega bo’ladi;<br>• Institutlar va ularni iqtisodiyotdagi funksiyalari va elementlarini talqin eta olish ko’nikmasi shakllanadi;<br>• Institutlar tizimini ajrata oladi va tushunib yetadi;<br>• Institutlar tizimi to’g’risidagi bilimlarini mustahkamlaydi; |
| **Ta’lim metodlari** | Ma’ruza, savol-javob, suhbat, o’zaro o’qitish metodi, klaster, insert texnikalari |
| **Ta’lim vositalari** | Ma’ruza matni, kodoskop, slaydlar, format qog’ozlari, markerlar, skotch, chizmali organayzerlar, asosiy ma’lumot va tayanch tushunchalardan iborat ma’ruza matnlari (tarqatma material). |
| **Ta’lim shakllari** | Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash. |

| | |
|---|---|
| **O’qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash. |

**2.2. “Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli” mavzusi bo’yicha ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi**

| Ish bosqich-lari | O’qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi, 5 savollarni va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Baholash mezonlari (1- ilova).<br>1.3.BBB jadvalini to’ldirish qoidasi bo’yicha ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollashtiradi. BBB jadvali natijasiga ko’ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxisini amalga oshiradi (2-ilova ).<br>1.4. Mavzuni jonlashtirish uchun savollar beradi. (3-ilova). | Tinglaydilar.<br><br>Tinglaydilar. |
| 2 - bosqich. Asosiy bo’lim (50 min) | 2.1.1 savol yuzasidan kichik ma’ruza qiladi.<br>2.2.Ma’ruza rejasining hamma savollari bo’yicha tushuncha beradi. (4 - ilova).<br>2.3.Ma’ruzada berilgan savollar yuzasidan umumlashtiruvchi xulosa beradi. (5 - ilova).<br>2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. | Tinglaydilar.<br><br>Tinglaydilar.<br>UMKga qaraydilar<br>UMKga qaraydilar<br>Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. |
| 3-bosqich.<br><br>Yakunlovchi<br><br>(10 min) | 1.3.Mashg’ulot bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo’yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma’lum qiladi.<br>3.2.Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro’yxatini hamda tezkor so’rov asosida test topshiriqlarini beradi.<br>3.3.Keyingi mazvu bo’yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi. | Savollar beradilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>UMKga qaraydilar. |

1-ilova (1.2.)

## MAVZU BO'YIChA TINGLOVChILARNING O'ZLAShTIRIShLARINI BAHOLASH MEZONLARI

| Muddati | Nazorat shakli | Talaba ballari |
|---|---|---|
| Ma'ruza mashg'uloti darsida | Ma'ruza mashg'ulotida faol ishtirok etish va guruhda ishlash | 14 ball |
| Amaliy mashg'ulot darsida | Amaliy mashg'ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash | 14 ball |
| Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishi (masalalar, insert usuli asosida va boshqalar) | Mavzu bo'yicha yozilgan ishga | 20 ball |
| Mavzu davomida mavzuning savollari bo'yicha nazorat ishi va testlar (oraliq nazorat ballari) | Ma'ruza mashg'ulotlaridan olingan bilimlarni mustahkamlaydi va amaliyotda qo'llash uchun o'zlarini bilimlarini sinab ko'radi | 28 ball |
| Mavzu oxirida | Test topshirish yoki og'zaki baholash | 24 ball |
| Jami: | | 100 ball |

86 % - 100% → «A'lo»
71 % - 85% → «Yaxshi»
55 % - 70% → «Qoniqarli»
0% - 54% → «Qoniqarsiz»

2 – ilova (1.3.)

**1. BBB jadvalini to'ldirish qoidasi.**

BO'B (ZXU) jadvali- bilaman/ bilishni hohlayman/bildim.

- Mavzu bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarini bajarishni ta'minlaydi. Sistemali fikrlash tahlil asoslari va strukturlashni rivojlantiradi.
- Yangi mavzuni o'rganishdan oldin qo'llaniladi: birinchi va ikkinchi ustunlar to'ldiriladi va so'ngra yakunlovchi qismida uchinchi ustun to'ldiriladi.

BO'B (ZXU) jadvalini to'ldirish qoidalari bilan tanishadi. Yakka holda yoki juftlikda jadvalni to'ldiradi

"Shu mavzu bo'yicha siz nimalarni bilasiz?", "Nimalarni bilmoqchisiz?" savollariga javob beradi.

Jadvalning birinchi va ikkinchi ustunni to'ldiradi. (yakka holda yoki juftlikda)

Mustaqil ravishda ma'ruza matnini o'qiydi, (yoki eshitadi)

Uchinchi ustunni to'ldiradi

3-ilova (1.4)

**Mavzuni jonlantirish uchun blis so’rov savollari**

1. Institutlar nima? Ularning ta’riflarini keltiring.
2. Institutlar tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Rasmiy va norasmiy normalar qanday yuzaga keladi?
4. Norasmiy qoidalarning jamiyatdagi roli nimada?
5. Institusional matrisa ta’rifini keltiring va uning g’oyasi nimadan iborat?
6. Norma bazaviy institut ekanligini izohlang.

4 - ilova (2.2)

**1§. “Institut” va “norma” tushunchalarining mohiyati**

Institutlar jamiyat hayotida muhim o’rin tutadi. Agar bir daqiqaga barcha institutlar yo’q bo’lib ketganligini tasavvur qiladigan bo’lsak, u holda tartibsizlik boshlanib ketib, bu o’z navbatida abadiy davom etmas edi. Chunki insonlarning o’z hayotini tartibga keltirishga urinishlari yangi institutlarning paydo bo’lishiga olib kelgan bo’lar edi.

**Institut** – bu jamiyat a’zolari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar tizimi. Institutlar asosini uning tarkibiy qismlari hisoblangan normalar tashkil etadi.

**Norma** – institusional muhitda individlarning o’z tanlovini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy unsur hisoblanadi. Ushbu unsur: tartibni saqlash funksiyasiga ega; o’zaro hamkorliklar tizimida majburiy xatti-harakat bajarilishini talab etadi; shaxslar xatti-harakatidagi ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik sanksiyaga tayanuvchi muntazamlik hamda muqarrarlikni aks ettiradi; shaxsning turli vaziyatlarda o’zini qanday tutishi lozimligini belgilaydi.

Institutsionalizmning asoschilaridan biri D.Nort institutlar tarkibida ularni uchta asosiy qismga ajratadi:

- rasmiy qoidalar (konstitusiyalar, qonunlar, sud qarorlari, ma’muriy hujjatlar va b.);
- norasmiy normalar (an’analar, urf-odatlar, ijtimoiy shartlilik);
- qoidalarga amal qilinishini ta’minlovchi (sudlar, polisiya va h.k.) majburlash mexanizmlari (masalan, jazolash tizimi).

## 3§. Institusional matrisa.

Institusional matrisa sosiologiya fani doirasida ishlab chiqilgan bo’lib, unda sosiologik tushunchalardan foydalaniladi. Ammo ushbu konsepsiya jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan iqtisodiyotda hamda huquqiy jarayonlarni tahlil qilishda qo’llanilishi mumkin.

**Institusional matrisa** – bu tarixan barqaror shakllangan, dastlabki davlatlarning paydo bo’lishini va barcha keyingi institusional tuzilmalarning rivojlanishini belgilab bergan, o’z navbatida, mohiyati hamon saqlanib qolgan birlamchi modelni takror yaratishga xizmat qiluvchi bazaviy ijtimoiy institutlar tizimi.




2.1-rasm. Jamiyatnig institusional matrisasi

## 4§. Institusional o'zgarishlar va institutlarning o'zaro bog'liqligi.

Institutlar qanday ishlayotganligini, nima uchun ular asrlar mobaynida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, ularning "hayotiyligi" yoki barqarorligini tushunish uchun institusional o'zgarishlarga olib keluvchi sabablarni o'rganib chiqish lozim.

Jamiyatning rivojlanish jarayonida institutlar shaklining o'zgarishi ro'y beradi. Agar rasmiy qoidalarni u yoki bu qonun, farmonni qabul qilib o'zgartirish mumkin bo'lsa, an'analar va urf-odatlarda ifodalanadigan norasmiy cheklovlarni bir kunda o'zgartirib yoki tugatib bo'lmaydi. Ular yana uzoq vaqt amal qilishda va jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatishda davom etadi.

Biroq institusional tizimning o'zida doimiy ravishda o'zgarishlarga ehtiyoj sezilib bo'lib turadi. T.Veblenning ta'kidlashicha, institusional o'zgarishlarning asosiy sababi shakllangan institutlar bilan o'zgargan sharoitlar, tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro nomuvofiqlik hisoblanadi.

Institusional o'zgarishlar texnika taraqqiyoti, yangi bozorlarning ochilishi, aholi sonining o'sishi va hokazolar, ya'ni ular natijasida tashkiliy va institusional o'zaro hamkorlikning ilgari muvafaqiyatli faoliyat ko'rsatgan alohida shakllari "foydasiz" bo'lib qoladigan jarayonlar oqibatida yuz berishi mumkin. Yangi rasmiy normalar o'rniga boshqalari qabul qilinadi, norasmiy normalarga amal qiladigan insonlar soni kamayib borishi bilan ular asta-sekin yo'qolib boradi.

5-ilova (1.1)

**Xulosa**

Institutlar jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynab kelgan. Ular jamiyatda qarorlar qabul qilish, insonlar va iqtisodiyot ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini belgilovchi normalardan tarkib topgan rasmiy va norasmiy qoidalar hisoblanadi. rasmiy qoidalar mamlakat konstitusiyasida, qonunlarda, ma'muriy va boshqa hujjatlarda o'z aksini topadi. Norasmiy normalar esa urf-odat, an'analar va shu kabi boshqa hayot tarzi orqali yuzaga kelgan qoidalarda ifodalanadi.

Jamiyat rivojlanishi bilan mavjud institutlar va ular negizini tashkil etuvchi rasmiy va norasmiy qoidalar ham o'zgarib boradi, takomillashadi. Bunday o'zgarishlarni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlar belgilab beradi.

Institutlar o'zaro muvofiqlashtirilgan tarzda ishlashi, davlat tizimi faoliyatining samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Institutlar faoliyati aksariyat hollarda normalarga bog'liqdir. Norma tushunchasi tartibni saqlash funksiyasiga ega bo'lib, u o'zaro hamkorliklik tizimida majburiy xatti-harakat bajarilishini talab etadi. Normalar hamkorlik strategiyasi, qoida, xususan, normaning o'zi kabi shakllarga ega. Rasionallikning to'liq, to'liqsiz, tartibotli, asoslangan, harakat normasi kabi shakllari mavjud. Ijtimoiy tanlash nazariyasida normalarga oqilona tanlash natijasi sifatida qaraladi. Kelishuvlar iqtisodida esa normalar oqilona xatti-harakatning omili sifatida tahlil qilinadi.

**O'z-o'zini nazorat qilish savollari.**

1. Institutlar nima? Ularning ta'riflarini keltiring.
2. Institutlar tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Rasmiy va norasmiy normalar qanday yuzaga keladi?
4. Norasmiy qoidalarning jamiyatdagi roli nimada?
5. Institusional matrisa ta'rifini keltiring va uning g'oyasi nimadan iborat?
6. Norma bazaviy institut ekanligini izohlang.
7. O'zaro hamkorlikni qurishda normaning o'rni qanday tavsiflanadi?
8. O'zingizning odatiy kuningizni ertalabdan kechgacha kelishuv (murosa, ekspansiya, urinish) lar atamalarida yoritishga urinib ko'ring.
9. Institusional o'zgarishlarga nimalar sabab bo'ladi? Eski va yangi institutlar o'rtasida qanday bog'liqliklar mavjud?

10. Rasmiy va norasmiy normalarni muvofiqlashtirish zarurati nima bilan belgilanadi?

11. Tashkilotlar institusional jarayonda qanday funksiyalarni bajaradi?

## Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati:


1. I.A.Karimov. "Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". –Toshkent, O'zbekiston, 2010.
2. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
3. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
4. Nort D. Institutы, institusionalnыye izmeneniya i ekonomicheskaya effektivnost – M., 2002.
5. Semyuels U. Institusionalnaya ekonomicheskaya teoriya // Panorama ekonomicheskoy mыsli XX stoletiya. Pod red. D. Grinueya, M. Blini, I. Styuarta. – SPb: Ekonomicheskaya shkola, 2006.

## AMALIY MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 2-мавzu | INSTITUTLAR VA ULARNING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI |
|---|---|

### 2.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| ***Mashg'ulot vaqti*-2 soat** | **Talabalar soni: 20 – 30 gacha** |
| ***Mashg'ulot shakli*** | **Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar** |
| *Amaliy mashg'ulot rejasi* | 1. Iqtisodiy harakatlar va axborotlar<br>2. Institutlar, ularni funksiyalari, tizimi hamda iyerarxik qoidalar to'g'risida tushunchalar.<br>3. Institutlar va ularni iqtisodiyotdagi funksiyalari.<br>4. Institutlar tizimi<br>5. Iyerarxiya qoidalari. |

***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** Iqtisodiy harakatlar va axborotlar, institutlar, ularni funksiyalari, tizimi hamda iyerarxik qoidalar to'g'risida tushunchalar, iqtisodiy harakatlar va axborotlar, institutlar va ularni iqtisodiyotdagi funksiyalari, institutlar tizimi xamda iyerarxiya qoidalari talablarga yetkaziladi

| ***Pedagogik vazifalar*:** | ***O'quv faoliyati natijalari:*** |
|---|---|
| • Iqtisodiy harakatlar va axborotlar mohiyatini ochib berish;<br>• institutlar, ularni funksiyalari, tizimi hamda iyerarxik qoidalar to'g'risida tushunchalar mazmun mohiyatini ochib berish;<br>• Institutlar va ularni iqtisodiyotdagi funksiyalari va elementlarini tushuntirish;<br>• Institutlar tizimini yoritib berish;<br>• Institutlar tizimini haqida ma'lumotlar berish; | • Iqtisodiy harakatlar va axborotlar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydi;<br>• institutlar, ularni funksiyalari, tizimi hamda iyerarxik qoidalarning mazmun mohiyatini ochib berish imkoniga ega bo'ladi;<br>• Institutlar va ularni iqtisodiyotdagi funksiyalari va elementlarini talqin eta olish ko'nikmasi shakllanadi;<br>• Institutlar tizimini ajrata oladi va tushunib yetadi;<br>• Institutlar tizimi to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydi; |
| *Ta'lim berish usullari* | Suhbat,tezkor-so'rov, FSMU-texnikasi |
| *Ta'lim berish shakllari* | Ommaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibli |

| | |
|---|---|
| *Ta'lim berish vositalari* | O'quv qo'llanma, proyektor, flipchart, markerlar, ekspert topshiriqlari |
| *Ta'lim berish sharoiti* | Texnik ta'minlangan, gurhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat: savol-javob |

**2.2. "Institutlar va ularning jamiyat rivojlanishidagi roli"** mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Faoliyat bosqichlari | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | ***Ta'lim beruvchi*** | ***Ta'lim oluvchilar*** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish muammoli vazifalarni ishlab chiqadi. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. | |
| 1. **Kirish bosqichi** *(5 daqiqa)* | 1.1.Mavzuning nomi, maksadi, ukitish natijalarini, mavzuning rejasini eslatadi.<br>1.2.Guruhlar ishini baxolash mezonlarini e'lon qiladi *(1-ilova).* | Tinglaydilar. |
| **2. Asosiy bosqich** *(50 daqiqa)* | 2.1.Talabalarni faollashtirish maksadida tezkor-so'rov usulini qo'llaydi:<br>1. Institutlar nima? Ularning ta'riflarini keltiring.<br>2. Rasmiy va norasmiy normalar qanday yuzaga keladi?<br>2.2.Talabalarni 5 ta kichik guruhlarga bo'ladi. Guruhlarga ekspert vazifalarini tarqatadi va ularning mohiyati bilan tanishtiradi. Ekspert topshiriqlarini "FSMU" texnikasi asosida bajarishlarini tushuntiradi. *(2,3-ilovalar).*<br>Avval yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muxokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlab, format qog'oziga ko'chirishni taklif qiladi.<br>Talabalar faoliyatini nazorat qiladi, | Savolga javob beradilar.<br><br>Guruhlarga bo'linadi.<br>Yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muxokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlab, format qog'oziga ko'chiradi.<br><br>Guruh sardori tayyor |

| | | |
|---|---|---|
| | yo'naltiradi, maslahat beradi. Baholash mezonlarini eslatadi. Taqdimot boshlanishini ma'lum qiladi.<br>2.3.Bajargan ishlarini takdim qilishlarini so'raydi. Takdimot jarayonida talabalar fikrlarini tahlil qiladi, faol ishtiroklarini rag'batlantiradi. | ishni olib chikib doskaga iladi va takdim qiladi. Tanlagan fikrini asoslaydi. Boshka ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi. |
| **3. Yakuniy bosqich** *(15 daqiqa)* | 3.1.Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi, yakun yasaydi.<br>3.2.Guruhlar ishini baholaydi, faol ishtirokchilarni alohida qayd qiladi va baholarni e'lon qiladi.<br>3.3. Mustakil ishlashlari uchun nazorat va test savollariga tayyorgarlik ko'rib kelish vazifasini beradi *(4- ilovalar).* | Eshitadi.<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

1-ilova

***Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari***

| *Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari* | *1- guruh* | *2- guruh* | *3- guruh* |
|---|---|---|---|
| Maksimal ball – 2 | | | |
| - savol to'liq yoritib berildi (0,5 ball) | | | |
| - javoblar yetarli darajada asoslab berildi (0,5 ball) | | | |
| - guruh ishtirokchilarining faolligi (0,5 ball) | | | |
| - berilgan savollarga javob berdi (0,3 ball) | | | |
| - reglamentga rioya kildi (0,2) | | | |
| ***Jami: (2 ball)*** | | | |

1,5 – 2 ball - «a'lo»
1,0 – 1,4 ball - «yaxshi»
0,5 – 0,9 ball - «konikarli»
0 - 0,4 ball - «konikarsiz»

2-ilova

**Ekspert varagi №2**
**Norma, o'zaro hamkorlik tushunchalari, mohiyati, ahamiyati**

1. Norma bazaviy institut ekanligini izohlang.
2. O'zaro hamkorlikni qurishda normaning o'rni qanday tavsiflanadi?
3. O'zingizning odatiy kuningizni ertalabdan kechgacha kelishuv (murosa, ekspansiya, urinish) lar atamalarida yoritishga urinib ko'ring?

***Tarqatma materialning taxminiy nusxasi***
***FSMU texnologiyasi***

**(F)** – Fikringizni bayon eting.

**(S)** – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

**(M) –** Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

3-ilova

***Tarqatma materialning taxminiy nusxasi***
***FSMU texnologiyasi***

**(F)** – Fikringizni bayon eting.

**(S)** – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

**(M) –** Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

**(U)** – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qaydarajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

4-ilova

## Nazorat savollari va vazifalari:

1. Institutlar nima? Ularning ta'riflarini keltiring.
2. Institutlar tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Rasmiy va norasmiy normalar qanday yuzaga keladi?
4. Norasmiy qoidalarning jamiyatdagi roli nimada?
5. Institusional matrisa ta'rifini keltiring va uning g'oyasi nimadan iborat?
6. Norma bazaviy institut ekanligini izohlang.
7. O'zaro hamkorlikni qurishda normaning o'rni qanday tavsiflanadi?
8. O'zingizning odatiy kuningizni ertalabdan kechgacha kelishuv (murosa, ekspansiya, urinish) lar atamalarida yoritishga urinib ko'ring.
9. Institusional o'zgarishlarga nimalar sabab bo'ladi? Eski va yangi institutlar o'rtasida qanday bog'liqliklar mavjud?
10. Rasmiy va norasmiy normalarni muvofiqlashtirish zarurati nima bilan belgilanadi?
11. Tashkilotlar institusional jarayonda qanday funksiyalarni bajaradi?

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| 3-мавzu | O’YINLAR NAZARIYASI VA O’ZARO HAMKORLIKLARNI MODELLASHTIRISH |
|---|---|

### 3.1. Ma’ruza mashgulotining ukitish texnologiyasi

| *Mashg’ulot vaqti*-2 soat | *Talabalar soni: 20-30 nafar* |
|---|---|
| *Mashg’ulot shakli* | *Ma’ruza muloqot* |
| *Ma’ruza rejasi* | 3.1. O’yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari<br>3.2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo’llari<br>3.3. O’yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi |
| ***Ukuv mashgulotining maqsadi**:* Talabalarga o’tish davri iqtisodiyotidagi institusional o’zgarishlar, jamiyat boshkaruvidagi muhim institutlarning mazmun va tashkil topish shakllaridagi o’zgarishlar to’g’risida tushunchalar beriladi. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>1. O’yinlar nazariyasining asosiy tushunchalarining ahamiyatini tushuntirish;<br>2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo’llarini tanishtirish;<br>3. O’yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifini berish va tasavvur xosil qilish. | ***Ukuv faoliyatining natijalari:***<br>1. O’yinlar nazariyasining asosiy tushunchalarining mohiyatini va ahamiyatini izoxdaydi;<br>2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo’llariga munosabat bildiradi;<br>3. O’yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi to’g’risida ma’lumotlar beradi; |
| **Ta’lim metodlari** | Ma’ruza, namoyish etish, zigzag texnikasi |
| **Ta’lim vositalari** | Ma’ruza matni, kodoskop, slaydlar, format qog’ozlari, markerlar, skotch, chizmali |
| **Ta’lim shakllari** | Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash. |
| **O’qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda |
| **Monitoring va baholash** | Og’zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi |

### 3.2. "O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorliklarni modellashtirish"

ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqich-lari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich.<br><br>Mavzuga kirish<br>(20 min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi savollarni va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Aqliy xujum usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. Xabarlashib o'rganish usuli natijasiga ko'ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxizini amalga oshiradi. (1-ilova). | Tinglaydilar.<br><br>Savollarga javob beradilar. |
| 2 - bosqich.<br>Asosiy bo'lim<br><br>(50 min) | 2.1.1 Talabalarning e'tiborini tortish uchun jonlantirish savollarini beradi. (2 - ilova).<br>2.2. Ma'ruza rejasining hamma savollarni tushuntiradi Pover Point da yaratilgan slaydlar yordamida ( 3-ilova).<br>2.3.Har bir savol nihoyasida umumlashtiruvchi xulosa beradi.<br>2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. | Tinglaydilar va javob beradilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. |
| 3-bosqich.<br>Yakunlov chi<br><br>(10 min) | 3.1.Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma'lum qiladi.<br>3.2. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriq beradi<br>3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.<br>3.4. Insert usulidan foydalanib keyingi mazvuga tayyorlanib kelishga topshiriq beradi. | Savollar beradilar<br>UMKga qaraydilar.<br><br>Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>UMKga qaraydilar. |

1- ilova (2.1.)

## «Aqliy hujum» ning asosiy qoidalari:

-aytilayotgan barcha g'oyalar bir –biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
-kiritilayotgan g'oyalar tanqid qilinmasligi kerak.
-g'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
-so'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.
- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- «xujum»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

## Xabarlashib o'rganish usuli qoidasi

1. Savollarga o'ylanib javob berishni suraydi.
2. Talabalar 4-5 guruhga ajratiladi.
3. Har bir guruhdan ekspertlarni aniqlashni so'raydi.
4. Ekspertlar bittadan savol bo'yicha guruh a'zolarini tanishtirishi kerak.
5. Ekspertlar varag'ini tarqatadi va guruhda ishlashni tashkil etadi.
6. Ekspertlar prezentasiya qilish kerakligini ma'lum qiladi.
7. Maslahatchi o'rnida sharxlaydi, aniqlik kiritadi.

Prezentasiyani yakunlab, har bir guruhga har bir savol uchun xulosalar qiladi.

2-ilova (2.2.)

**Mavzuni jonlantirish savollari.**

1. Nima uchun institusional nazariyada matematik apparat neoklassikasi uchun an'anaviy hisoblangan matematik apparat tilidan emas, balki o'yinlar nazariyasidan foydalaniladi.
2. Individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qaysi asosiy muammolari o'yinlar nazariyasi yordamida modellashtiriladi?
3. Kooperativ (koalisiyali) va nokooperativ (koalisiyasiz) nazariyalarning xususiyatlarini izohlang.

3- ilova (3.1.)

## 1-§. O'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari

Neoklassikaning «qat'iy negizi»dagi o'zaro hamkorliklarni tahlil qilishda differensial hisoblashdan foydalanilgan. Institusional iqtisodiy nazariyada yuqoridagi tadqiqot usulini tayanch usul sifatida qo'llash unchalik qulay emas. Institusional iqtisodiy nazariyaning predmetini individlarlarning o'zaro hamkor(harakat)ligi hamda ushbu hamkorlikni ta'minlovchi tuzilmalar tashkil etadi.

Institusional iqtisodiyot formal modellarni tuzish uchun Jon fon Neyman va Oskar Morgenshternning «O'yinlar nazariyasi va iqtisodiy xatti-harakat» (1944) kitobidagi fikrlarga asoslangan *o'yinlar nazariyasidan* foydalanadi [47].Ushbu nazariyaning rivojlanishi Djon Nesh 1950 yilda kiritgan muvozanat vaziyati tushunchasi bilan bog'liq. Bu bilan nokoalision o'yinlarning yechish usuli ishlab chiqildi. 1994 yilga kelib, birdaniga uch tadqiqotchi "nokooperativ o'yinlar" nazariyasidagi muvozonatni birinchi bor tahlil qilib chiqqanligi uchun iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. Bular: Raynxad Selten (Germaniya), Jog Nesh (AQSh), Jon S.Xarsani (asli vengriyalik – AQSh). Ushbu tadqiqot usulining o'ziga xos asosiy belgilari ichida quyidagilarni ajratish lozim. Birinchidan, o'yinlar nazariyasi individlarning o'zaro shartlashilgan xatti-harakatlari vaziyatini tahlil qilish bilan shug'ullanadi: har bir shartning hal etilishi o'zaro hamkorlik natijasiga va o'z navbatida, qolgan individlarning qarorlariga ta'sir ko'rsatadi. Individ o'z harakatlari masalasini hal etayotib, o'zini kontragentlar o'rniga qo'yib ko'rishi kerak. Ikkinchidan, o'yinlar nazariyasi, mukammal kalkulyator sifatidagi individdan tortib to robot sifatidagi individgacha qator modellardan foydalangan holda, individlarning to'liq rasionalligini talab qilmaydi. Uchinchidan, o'yinlar nazariyasi o'zaro hamkorliklardagi muvozanatning mavjudligi, yagonaligi va Pareto-optimalligini nazarda tutmaydi. Ushbu sabablar o'yinlar nazariyasi yordamida qurilgan institutlarning formal modellariga bo'lgan qiziqishni orttiradi.

Kooperativ (koalisiyali) o'yinlar – bu ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin bo'lgan vaziyatlar. Nokooperativ (koalisiyasiz) o'yinlarda yakka ishtirokchi tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi, bunda ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin emas. O'yinlar asosan matrisa shaklida namoyon etiladi. Nokooperativ (koalisiyasiz) o'yinlarda ishtirokchilar o'zaro ziddiyatli munosabatda bo'ladilar. Har bir ishtirokchi o'z yutug'ini oshirishga xarakat qiladi. Birining yutug'i ikkinchisining yutqizishiga olib keladi. Har bir o'yin ishtirokchisining ziddiyatli vaziyatlarni hal etish borasidagi xarakat dasturi o'yin ishtirokchisining strategiyasi deyiladi.

## *2- §.* Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo'llari

Har bir o'zaro hamkorlik uchun muvozanatlarning turli xillari mavjud bo'lishi mumkin: *ustun strategiyali muvozanat, Nesh bo'yicha muvozanat, Shtakelberg bo'yicha muvozanat va Pareto bo'yicha muvozanat.*

**Ustun strategiyali muvozanat** – boshqa ishtirokchining harakatlaridan *qat'i nazar ishtirokchiga* maksimum foydalilikni ta'minlovchi harakatlar rejasi.

**Nesh bo'yicha muvozanat** – o'yinchilarning hyech biri o'z harakatlari rejasini o'zgartirgan holda o'z yutug'ini bir tomonlama oshira olmaydigan vaziyat.

**Shtakelberg bo'yicha muvozanat** – hyech bir o'yinchi o'z yutug'ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o'yinchi tomonidan qabul qilinadi, so'ngra ikkinchi o'yinchiga ma'lum bo'ladi.

**Pareto bo'yicha muvozanat** – o'yinchilardan birining holatini, ikkinchi o'yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo'lmaydigan vaziyat.

## *3-§.* O'yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi

O'yinlar nazariyasi uchun bir necha tayanch modellar mavjud. Ushbu modellar Nesh bo'yicha muvozanat nuqtalarining soni bilan va ularning Shtakelberg bo'yicha va Pareto bo'yicha muvozanat nuqtalariga mos kelishi yoki mos kelmasligi bilan farq qiladi. Masalan, ikkita talaba tomonidan uchrashuv joyining tanlanishi vaziyatini aks ettiradi. Ulardan har birini yo kutubxonada yoki bufetda topish mumkin. Bufetdagi uchrashuv ikkala talabaga ham foydalilikni ta'minlashi nazarda tutiladi: ular kofe yoki biror xil sharbat ustida suhbat o'tkazishlari mumkin.

**Insert texnikasi bo'yicha mavzuni o'qib chiqing va jadvalni to'ldiring.**

| V | + | - | ? |
|---|---|---|---|
| | | | |

**Insert jadvali**

Insert jadvali qoidasi:
**V-** olgan bilimiga to'g'ri keladi.
**+ -** yangi ma'lumot
**-- -** olgan bilimiga qarama-qarshi
? – tushunarsiz (aniqlanishi zarur bo'lgan ma'lumotlar)

.

**O'z-o'zini nazorat qilish savollari.**

1. Nima uchun institusional nazariyada matematik apparat neoklassikasi uchun an'anaviy hisoblangan matematik apparat tilidan emas, balki o'yinlar nazariyasidan foydalaniladi.
2. Individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qaysi asosiy muammolari o'yinlar nazariyasi yordamida modellashtiriladi?
3. Kooperativ (koalisiyali) va nokooperativ (koalisiyasiz) nazariyalarning xususiyatlarini izohlang.
4. Ustun strategiyali muvozanatni sharhlab bering.
5. Nesh bo'yicha muvozanatni sharhlab bering.
6. Shtakelberg bo'yicha muvozanatni sharhlab bering
7. Pareto bo'yicha muvozanatni sharhlab bering.

**Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati:**


1. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqrozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari " O'zbekiston:. 2009.
2. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
3. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
4. Nort D. Institutы, institusionalnыye izmeneniya i ekonomicheskaya effektivnost – M., 2002.
5. Semyuels U. Institusionalnaya ekonomicheskaya teoriya // Panorama ekonomicheskoy mыsli XX stoletiya. Pod red. D. Grinueya, M. Blini, I. Styuarta. – SPb: Ekonomicheskaya shkola, 2006.

## AMALIY MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 3-мавzu | O'YINLAR NAZARIYASI VA O'ZARO HAMKORLIKLARNI MODELLASHTIRISH |
|---|---|

**3.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli**

| | |
|---|---|
| **Mashg'ulot vaqti-2 soat** | **Talabalar soni: 20 –30 gacha** |
| **Mashg'ulot shakli** | **Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar** |
| *Amaliy mashg'ulot rejasi* | 3.1. O'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari<br>3.2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo'llari<br>3.3. O'yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi |

***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** Talabalarga o'tish davri iqtisodiyotidagi institusional o'zgarishlar, jamiyat boshkaruvidagi muhim institutlarning mazmun va tashkil topish shakllaridagi o'zgarishlar to'g'risida tushunchalar beriladi.

| *Pedagogik vazifalar*: | *O'quv faoliyati natijalari:* |
|---|---|
| 1. O'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalarining ahamiyatini tushuntirish;<br>2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo'llarini tanishtirish;<br>3. O'yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifini berish va tasavvur xosil qilish. | 1. O'yinlar nazariyasining asosiy tushunchalarining mohiyatini va ahamiyatini izoxdaydi;<br>2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo'llariga munosabat bildiradi;<br>3. O'yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi to'g'risida ma'lumotlar beradi; |
| *Ta'lim berish usullari* | Munozara, suhbat,tezkor-so'rov |
| *Ta'lim berish shakllari* | Ommaviy, guruhlarda ishlash: "koop-koop" texnikasi |
| *Ta'lim berish vositalari* | O'quv qo'llanma, proyektor, flipchart, markerlar, ekspert topshiriqlari |
| *Ta'lim berish sharoiti* | Texnik ta'minlangan, gurhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat: savol-javob |

### 3.2. "O'yinlar nazariyasi va o'zaro hamkorliklarni modellashtirish"

amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi *(1-ilova).*<br>Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun - yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi *(2-ilova).*<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi *(3-ilova).* | |
| **1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi** *(10 daq)* | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning axamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.<br>1.2. Mavzu bo'yicha sosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi *(4-ilova).*<br>1.3. Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi *(2-ilova).* | Savollarga javob beradilar. |
| **2. Asosiy bosqich** (55 daqiqa) | 2.1. Talabalarni 5-ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlik asosida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi *(2-3-ilova).* Har bir guruh mavzu rejasi asosida takdimot tayyorlashini aytadi.<br>2.2. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'liq yoritilishini kuzatadi.<br>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlarda sardorlar takdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatadi, savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi.<br>2.4. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirokchi talabalarni | Kichik guruhlarga bo'linadilar.<br><br>Topshiriqlar bo'yicha ishlaydilar.<br><br>Faol qatnashadilar, takdimot uchun materiallar tayyorlaydilar.<br><br>Guruhdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida hamkorlik qiladilar. Savollarga javob beradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | rag'batlantiradi va umumiy baholaydi. | Tinglaydilar. |
| 3–Yakuniy bosqich (20 daqiqa) | 3.1.O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.<br>3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.<br>3.3. Mustakil ishlashlari uchun nazorat savollariga tayyorgarlik ko'rib kelish vazifasini beradi *(4 - ilova).* | Tinglaydilar. |

1-ilova

**«BIRGALIKDA O'QIYMIZ» TEXNIKASI**

**Birgalikda o'qish:** o'quv guruhi kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir kichik guruh o'rganilayotgan mavzuning ma'lum bir sohasida ekspert bo'ladi va boshqalarni o'rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to'la hajmda egallab olishdan iborat.

*«Birgalikda o'qiymiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishii*

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo'lgan har xil turdagi guruhlar to'ziladi.

↓

2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi,* uning ustida butun o'quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.

↓

3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.

↓

4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.

↓

5. Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag'i bo'yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.

↓

6. Spiker yoki guruh barcha a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

2-ilova

***Guruhlarda ishlash qoidasi***

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.
Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.
Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'imiz lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

3-ilova

***Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari***

| **Mezonlar** | **Maks. ball** | **Guruh natijalarini baholash** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** |
| Axborotning to'liqligi | 1,0 | | | | | | |
| Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi | 0,6 | | | | | | |
| Guruhning faolligi | 0,4 | | | | | | |
| Ballarning maksimal summasi, jami | 2 | | | | | | |

4-ilova

**Nazorat savollari va vazifalari:**

1. Individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qaysi asosiy muammolari o'yinlar nazariyasi yordamida modellashtiriladi?
2. Kooperativ (koalisiyali) va nokooperativ (koalisiyasiz) nazariyalarning xususiyatlarini izohlang?
3. Ustun strategiyali muvozanatni sharhlab bering?
4. Nesh bo'yicha muvozanatni sharhlab bering?
5. Shtakelberg bo'yicha muvozanatni sharhlab bering?.

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| 4-мavzu | REJA VA BOZOR INSTITUTI |
|---|---|

### 4.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli

| *Mashg’ulot vaqti*-2 soat | **Talabalar soni: 40–50 gacha** |
|---|---|
| ***Mashg’ulot shakli*** | **ma’ruza** |
| *Ma’ruza rejasi* | 4.1. Iqtisodiyot konstitusiyalarining shakllanishi<br>4.2. Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari<br>4.3. Bozor konstitusiyasi normalari<br>4.4. Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash<br>4.5. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash |

**Ma’ruzaning maqsadi:** Reja instituti va uning asosiy qonuni va uning me’yorlari, bozor konstitusiyasi va sotuvchi bilan xaridor o’rtasidagi ishonch va erkinlik kategoriyalarini tushuntirishdan iborat.

| ***Pedagogik vazifalar*:** | ***O’quv faoliyati natijalari:*** |
|---|---|
| • Iqtisodiyot konstitusiyalarining shakllanishi haqida tushuncha berish;<br>• Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari va bozor konstitusiyasi normalari to’g’risida ma’lumotlar berish;<br>• Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash va tafsirlashning moxiyatini tushuntirish; | • Iqtisodiyot konstitusiyalarining shakllanishidagi uziga xos jixatlari va mohiyatini sharhlab beradi;<br>• Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari va bozor konstitusiyasi normalari tashkil topishining ahamiyatini va mazmun-mohiyatini ochib beradilar;<br>• Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash va tafsirlashning moxiyatini yoritib beradilar; |
| *Ta’lim berish usullari* | Ko’rgazmali ma’ruza, suhbat |
| *Ta’lim berish shakllari* | Ommaviy, jamoaviy |
| *Ta’lim berish vositalari* | O’quv qo’llanma, proyektor |
| *Ta’lim berish sharoiti* | O’TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og’zaki nazorat: savol-javob |

## 4.2. "Reja va bozor instituti" ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqich-lari | O'qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich. Mavzuga kirish (20min) | 1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi savollarni va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.<br><br>1.2. Insert texnikasi usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. (1-ilova). | Tinglaydilar.<br><br>Tinglaydilar. |
| 2 - bosqich. Asosiy bo'lim<br><br>(50 min) | 2.1.Talabalarning e'tiborini tortish uchun jonlantirish savollarini beradi. ( 2-ilova).<br>2.2. Ma'ruza rejasining hamma savollarini tushuntiradi Pover Point da yaratilgan slaydlar yordamida ( 3-ilova).<br>2.3.Har bir savol nihoyasida umumlashtiruvchi xulosa beradi.<br>2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi | Tinglaydilar va javob beradilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi<br><br>(10 min) | 3.1.Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma'lum qiladi.<br>3.2. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun savollar beradi. (4-ilova).<br>3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. 5-ilova<br>3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun uch darajali testlar ro'yxatini beradi. 6-ilova | Savollar beradilar<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>UMKga qaraydilar. |

1-ilova (1.1)

**Insert texnikasi bo’yicha mavzuni o’qib chiqing va jadvalni to’ldiring.**

| V | + | - | ? |
|---|---|---|---|
| | | | |

## Insert jadvali

Insert jadvali qoidasi:

**V-** olgan bilimiga to’g’ri keladi.
**+ -** yangi ma’lumot
**-- -** olgan bilimiga qarama-qarshi
? – tushunarsiz (aniqlanishi zarur bo’lgan ma’lumotlar)

2-ilova (2.1.)

**Mavzuni jonlantirish savollari**

1. Reja instituti va uning asosiy qonuni tushuntiring?
2. Bozor konstitusiyasini tushuntiring?
3. Sotuvchi bilan xaridor o’rtasidagi ishonch va erkinlik kategoriyalarini izoxlang?

3-ilova (2.3.)

## 1-§. Iqtisodiyot konstitusiyalarining shakllanishi.

Individlarning iqtisodiy faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi normalar tizimi **iqtisodiyot konstitusiyasi** deyiladi. Iqtisodiyot konstitusiyasi buyruqbozlik va bozor tizimlarida o'zaro zid normalarga amal qiladi. Masalan, bozor tizimi faqat individlar o'zlarining kundalik iqtisodiy faoliyatida u asoslanadigan normalardan foydalangan darajaga qarab barqaror va takror ishlab chiqarishga qodir bo'ladi. O'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi individlar o'rtasidagi bitimlardan makroiqtisodiy darajaga o'tish bozor xatti-harakatlari normalari orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, buyruqbozlik va bozor tizimlarida qo'llaniladigan normalarning tarkibiy tuzilishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

**Iqtisodiyot konstitusiyalari normalarining guruhlanishi**

| Bozor konstitusiyasi | Buyruqbozlik iqtisodiyoti konstitusiyasi |
|---|---|
| Murakkab utilitarizm | Oddiy utilitarizm |
| Rasional maqsadli fe'l-atvor | Mafkuraviy qadriyat rasionalligi |
| Depersonifikasiyalangan ishonch | Personifikasiyalangan ishonch |
| Empatiya | «Sen – menga, men - senga», |
| Ijobiy ma'noda erkinlik | |
| Qonunga ixtiyoriy bo'ysunish | Qonunga tilda buysunish |

**2-§. Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari**

Buyruqbozlik iqtisodiyotining normal holatlari uchun zarur bo'lgan normalardan biri oddiy utilitarizm hisoblanadi. Bunda individ tomonidan o'z foydaliligini oshirilishi o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, **oddiy utilitarizm -** individning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda o'z foydaliligini oshirishga intilishidir.

Ikkinchi unsuri to'liqsiz rasional faoliyat bilan izohlanadi. Bunda, birinchi navbatda axborotning cheklanganligi va to'liqsizligi bilan shartlangan to'liqsiz rasionallik tushuniladi.

**3-§. Bozor konstitusiyasi normalari**

*Bozor konstitusiyasi* – bozorda bitimlarni amalga oshirish va unda muvozanatga erishish imkonini beruvchi xatti-harakatlarning o'zaro shartlangan normalari yig'indisini tashkil etadi. Bozorlardagi barqaror muvozanat bozor normalaridan foydalanishning natijasi hisoblanadi Bozor konstitusiyasining asosida yotuvchi birinchi norma – *murakkab utilitarizm* normasi bo'lib, u nafaqat individni o'zining foydaliligini oshirishga yo'naltirishni, balki uning olinadigan foyda bilan o'zining samarali faoliyati o'rtasidagi aloqani anglab yetishini nazarda tutadi.

**murakkab utilitarizm** – individ tomonidan o'z foydaliligining samarali faoliyat asosida oshirilishidir. Bozor konstitusiyasining yana bir normasi empatiya bo'lib, bunda individ o'zini kontragent o'rniga qo'yib ko'radi va uning barcha kechinmalari, qiziqishlari va mo'ljallarini bozor subyekti sifatida o'zidan o'tkazishga harakat qiladi.

4-ilova (2.2.)

## O'z- o'zini nazorat qilish savollari

1. Iqtisodiyot konstitusiyasi tushunchasining mohiyatini sharhlang.
2. Agar buyruqbozlik iqtisodiyoti hatto surunkali taqchillik mavjud bo'lganda ham barqaror holatda turuvchi tizimni o'zida namoyon etgan bo'lsa, u holda o'tish iqtisodiyotining tub beqarorligining sabablari nimada?
3. Buyruqbozlik iqtisodiyotining unsuri hisoblangan utilitarizm normasi utilitarizmning bozor normasidan nima bilan farq qiladi?
4. Amerikalik mashhur siyosatshunos va iqtisodchi Frensis Fukuyama o'zining so'nggi kitoblaridan birida bozor iqtisodiyotidagi ko'tarilish va pasayishlarni uning subyektlari o'rtasidagi ishonch orqali ko'rib chiqadi. Bunday yondashuv qanchalik asosli?
5. Huquqiy an'analardagi asosiy huquqlarning farqlanish xususiyatlarini izohlang.
6. Lizing misolida bitim ishtirokchilarining manfaatlarini himoyalash va ijaraga beriladigan mol-mulkdan samarali foydalanishga undash nuqtai nazaridan fuqarolik huquqiga nisbatan umumiy huquqning ustunligini ko'rsating.
7. Bir buyumning bir necha egasi bo'lishi mumkinmi? Bir necha mulkdorlarning mavjud bo'lishi buyumdan samrali foydalanishga to'sqinlik qiladigan shart-sharoitlarni ko'rsatib bering.

5-ilova (2.3)

## Mavzuga oid adabiyotlar ro'yxati


1. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqrozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari " O'zbekiston:. 2009.
2. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
3. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
4. Nort D. Instituты, institusionalnыye izmeneniya i ekonomicheskaya effektivnost – M., 2002.
5. Semyuels U. Institusionalnaya ekonomicheskaya teoriya // Panorama ekonomicheskoy mыsli XX stoletiya. Pod red. D. Grinueya, M. Blini, I. Styuarta. – SPb: Ekonomicheskaya shkola, 2006.

## 2.3. “Reja va bozor instituti” mavzusi bo’yicha seminar mashg’ulotini olib borish texnologiyasi
**(2-soat)**

| | |
|---|---|
| *Mashg’ulot shakli* | Individual topshiriqlarni bajarishga asoslangan amaliy mashg’ulot<br>Talabalar soni – 25 ta |
| *Amaliyot rejasi* | 1. Iqtisodiyot konstitusiyalarining shakllanishi.<br>2. Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari.<br>3. Bozor konstitusiyasi normalari.<br>4. Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash.<br>5. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi:* Reja instituti va bozor institutining ijtimoiy-iktisodiy jixatdan asoslab ularning amaliy ahamiyatini tushuntirish. | |
| *Pedagogik vazifalar:* | Talabalarga kurs bo’yicha to’liq tushunchalar berish, ularni bilimlarini sinash |
| O’qitish vositalari | Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska ekspert varaqlari, grafiklardan foydalanish. |
| O’qitish usullari-texnikasi | Amaliy mashgulot, topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suxbat guruhlarda ishlash usuli. Bahs munozara usuli. Charxpalak |
| O’qitish shakllari | individual, guruh |
| O’qitish sharoiti | Texnik vositalar bilan ta’minlangan, guruxlarda ishlash usulini qo’llash mumkin bo’lgan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | og’zaki savollar, blis-so’rov |

### Reja va bozor instituti mavzusi bo’yicha seminar mashg’ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqich-lari | O’qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich (20 min) | 1.1O’quv mashg’uloti savollarni tahlil qiladi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Tinglovchilarning mashg’ulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova).<br>1.3. Mavzu bo’yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi.(2-ilova).<br>1.4.Savollar berib suhbat tarzida tinglovchilar bilimlari jonlantiriladi | Tinglaydilar.<br>Tinglaydilar.<br>Topshiriqlar bilan tanishadilar<br>Javob beradilar |

| | | |
|---|---|---|
| 2 - bosqich Asosiy bo'lim. (50 min) | 2.1.Topshiriqlarni aniqlaydi va guruhda ishlashni tashkil etadi. Yechimni tekshiradi va baholaydi. (3-ilova).<br>2.2.Topshiriqlar mazmunini tushuntiradi va bajarish bo'yicha maslahatlar beradi. | 2 ta kichik guruhga ajraladilar. Topshiriqda keltirilgan savollarga 1-2 javob tayyorlaydi.<br>Prezentasiyani amalga oshiradilar. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.<br>3.2.Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.<br>3.3.Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi. | Savollar beradilar<br>UMKga qaraydilar. |

1-ilova (2.3)

**Baholash mezoni:**
2,6-3,0 ball- «a'lo»
2,5- 2,0 ball - «yaxshi»
1,6-2,0 ball- «qoniqarli»
0- 1,5 ball- «qoniqarsiz»

2-ilova.(2.3.)

**1- topshiriq**

1. Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari tushunchasi.
2. Bozor konstitusiyasi normalari tushunchasi

**1- topshiriq**

1. Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy moxiyati.
2. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash.

3-ilova (2.3)

**Kichik guruhlarda ishlash qoidasi**

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| | |
|---|---|
| **5-mavzu.** | **TRANSAKSIYA VA TRANSAKSIYA XARAJATLARI** |

(ma’ruza – 2 soat,  amaliy -2 soat)

### 5.1. Ma’ruzani olib borish modeli

| | |
|---|---|
| *Mashg’ulot shakli* | Muammoli<br>Talabalar soni – 40-50 ta |
| *Maruza rejasi* | 5.1. Mulkdorlar o’rtasida huquqlarning taqsimlanishi<br>5.2. Kouz teoremasi<br>5.3. Transaksiya xarajatlari |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi*. Transaksiya va transaksiya xarajatlari tushunchasining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati haqida to’liq tushuncha berish**.** | |
| *Pedagogik vazifalar:* | *o’quv faoliyati natijalari:* |
| Mulkdorlar o’rtasida huquqlarning taqsimlanishi haqida umumiy tushuncha va ularning tasniflanishini aytib berish. | Mulkdorlar o’rtasida huquqlarning taqsimlanishi haqida umumiy tushunchalarni va ularning tasniflanishini tushuntirib bera oladilar. |
| Kouz teoremasining ilmiy-nazariy axamiyati va uning amalda kullanilishini tushuntirish. | Kouz teoremasining ilmiy-nazariy axamiyati va uning amalda kullanilishini tushunib biladilar. |
| Transaksiya xarajatlari tushunchasining moxiyati va axamiyatini xamda turlari va tarkibini tushuntirib berish. | Transaksiya xarajatlari tushunchasining moxiyati va axamiyatini xamda turlari va tarkibini tushuntirib beradilar. |
| O’qitish vositalari | ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska |
| O’qitish usullari texnikasi | ma’ruza, aqliy xujum texnikasi Zig-zag , xabarlashib o’rganish usuli, Insert texnikasi |
| O’qitish shakllari | frontal, kollektiv ish |
| O’qitish sharoiti | kompyuter,  multimediya proyektor |
| Monitoring va baholash | Test, og’zaki savollar, blis-so’rov |

**“Transaksiya va transaksiya xarajatlari” mavzusining texnologik xaritasi**

| Ish bosqich-lari | O’qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi savollarni va o’quv faoliyati natijalarini aytadi. 1.2.BBB jadvalini to’ldirish qoidasi usulida mavzu bo’yicha ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollashtiradi. BBB jadvalini to’ldirish qoidasi usuli natijasiga ko’ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxisini amalga oshiradi. (1-ilova). | Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar |
| 2 - bosqich. Asosiy bo’lim (50 min) | 2.1. Talabalarning e’tiborini tortish uchun jonlantirish savollarini beradi.(2-ilova). 2.2. Ma’ruza rejasining hamma savollarni tushuntiradi Powyer Point da yaratilgan slaydlar yordamida ( 3-ilova). 2.3.Har bir savol nihoyasida umumlashtiruvchi xulosa beradi. 2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. | Tinglaydilar. UMKga qaraydilar. UMKga qaraydilar. Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Mashg’ulot bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo’yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi. 3.2. Mavzu bo’yicha mustaqil o’rganish uchun savollar beradi. (4-ilova). 3.3. Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi. | Savollar beradilar UMKga qaraydilar Mustaqil o’rganish uchun savollarni yozib oladilar. UMKga qaraydilar. |

(1-ilova). (3.1)

## 1. BBB jadvalini to'ldirish qoidasi.

BO'B (ZXU) jadvali- bilaman/ bilishni xohlayman/bildim.

- Mavzu bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarini bajarishni ta'minlaydi. Sistemali fikrlash tahlil asoslari va strukturlashni rivojlantiradi.
- Yangi mavzuni o'rganishdan oldin qo'llaniladi: birinchi va ikkinchi ustunlar to'ldiriladi va so'ngra yakunlovchi qismida uchinchi ustun to'ldiriladi.

BO'B (ZXU) jadvalini to'ldirish qoidalari bilan tanishadi. Yakka holda yoki juftlikda jadvalni to'ldiradi

"Shu mavzu bo'yicha siz nimalarni bilasiz?", "Nimalarni bilmoqchisiz?" savollariga javob beradi.

Jadvalning birinchi va ikkinchi ustunni to'ldiradi (yakka holda yoki juftlikda)

Mustaqil ravishda ma'ruza matnini o'qiydi (yoki eshitadi)

Uchinchi ustunni to'ldiradi.

2- ilova (3.1)

**Mavzuni jonlantirish savollari.**

1. Mulkchilik huquqining bo'linishini nazarda tutuvchi umumiy huquq talqinida fuqarolik huquqi konsepsiyasiga nisbatan mulkchilik konsepsiyasining iqtisodiy ustunliklari nimadan iborat?
2. Kouz teoremasining mazmuni sharhlang.
3. «Rekombinasiyalangan» va «chigallashib ketgan» mulk tushunchalari qanday izohlanadi.
4. Kouz teoremasi qanday amaliy ahamiyatga ega?
5. Mulkchilik huquqlarini u yoki bu tarzda taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan «daromad samarasi»ni muhokama etishda qanday omillarni e'tiborga olish lozim?

3-ilova (3.1.)

## 1-§. Mulkdorlar o'rtasida huquqlarning taqsimlanishi

Mamlakatimizda davlat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ayniqsa mulkchilik huquqlarini tafsirlash bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilgan «o'zbek modeli»ga asos solindi. Yirik davlat korxonalarini xususiylashtirish Davlat dasturiga muvofiq OAJ doirasida mulkchilik huquqlarini taqsimlashning turli variantlari nazarda tutildi. Masalan, mehnat jamoasining a'zolari aksiyalar umumiy summasida ma'lum (10) foiz miqdorida, lekin har bir xodimga ko'pi bilan eng kam ish haqining belgilangan (20 yoki 25) baravari summasida imtiyozli (ovoz bermaydigan) aksiyalarni olish huquqiga ega bo'lishdi. Natijada, mulkchilik subyektlari va huquqlarining taqsimlanishi ruyberdi (5.1.-jadval).

Mulkchilik huquqlarining jadvaldagi taqsimlanishi birlamchi taqsimot bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda, ya'ni huquqlarning har biri undan samarali foydalanishdan manfaatdor bo'lgan mulkdorning qo'lida bo'lgan vaziyatda mulkning optimal tarkibiga erishish muhim o'rin tutadi. U yoki bu imkoniyatli mulkdorning mulkchilik huquqlaridan samarali foydalanishdan manfaatdorlik darajasi haqida mulohaza yuritishda Kouz teoremasi asos bo'lib xizmat qiladi.

5.1.-jadval

**Mulkchilik subyektlari bo'yicha huquqlarining taqsimlanishi**

| Huquqlarga ega bo'lish | Mulkchilik huquqi subyektlari | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Aksiyador, korxona xodimi | Aksiyadorlar yig'ilishi (mehnat jamoasi) | Ijro etuvchi organ, korxona direksiyasi | Davlat mulki qo'mitasi |
| Egalik qilish huquqi | | + | | |
| Foydalanish huquqi | + | | | |
| Tasarruf etish huquqi | | | + | |
| Topshirish huquqi | + | | | + |
| Qoldiq qiymatni olish huquqi | | + | | |
| Xavfsizlik huquqi | + | | | + |
| Meros bo'yicha ashyoning o'tishi huquqi | + | | | |
| Muddatsizlik | + | | | |
| Zararli foydalanishni taqiqlash huquqi | | | | + |
| O'ndirish ko'rinishidagi javobgarlik | + | + | | |
| Qoldiq xususiyati | | + | | |

## 2-§. Kouz teoremasi.

Kouz teoremasining asosiy qoidalari R.Kouz tomonidan «Aloqa federal komissiyasi» (1959) va «Ijtimoiy xarajatlar muammosi» (1960) maqolalarida ifodalangan, lekin Kouzning o'zi teorema atamasini ishlatmagan. R.Kouz qoidasi qisqa tarzda quyidagicha ifodalanadi: mulkchilik huquqlarini taqsimlash bozor mexanizmi asosida kechadi va u ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining oshishiga olib keladi, demak, yakuniy natija huquqiy qarorga bog'liq emas. **Kouz teoremasi**ning to'liq mazmuni shunday ifodalanadi:

Agar mulkchilik huquqlari aniq tafsirlanib, transaksiya xarajatlari nolga teng bo'lsa, u holda, agar daromad samarasidan fikrni boshqa tomonga bursak, mulkchilik huquqlarining taqsimlanishidagi o'zgarishlardan qati nazar, ishlab chiqarishning tarkibi o'zgarmasdan qoladi.

1960 yilda R.Kouz "Sosial chegirmalar muammosi" nomli ishida tashki samaralar muammosiga e'tibor karatadi. Bu muammoning tub moxiyati shundan iboratki, bozorning istalgan xar kanday ishtirokchisi boshka iktisodiy subyektga ziyon (yoki aksincha yutuk) keltirishi mumkin. Natijada, jamiyatda resurslarning samarasiz taksimlanishi, tovarlarni qayta ishlab chiqarish va tugallanmagan tovarlarni ishlab chiqarish muammolarini keltirib chiqadi.

Aytaylik, bir zavod daryo suvini ifloslantiryapti. Bu esa baliq ovi bilan tirikchilik qiladigan qishloq aholisining sharoitini yomonlashishiga olib keladi. A.Pigu nuqtai nazarida ko'riladigan chegirma va daromadni tenglashtirish uchun "ekologiya solig'i" ni joriy etish zarur deb hisoblaydi. R.Kouz fikricha, bunday yondashuv hyech qanday samaradorlik prinsiplariga mos kelmaydi.

Kouz teoremasining yana bir xususiyati shundaki, teoremani isbotlash uchun mulkiy xuquqlarning almashinuvi bo'yicha aniq amaliy misollardan foydalanilgan. Masalan, ikki fermerning ikki yaylovdagi mulkiy xuquqlarining o'zgarishi bo'yicha ayrim vaziyatlar tahlilini chuqurlashtirish kerak bo'ladi. Xususan, birinchi fermer o'z yayloviga borishi uchun boshqa fermerning yaylovidan o'tishga to'g'ri kelsa, bunday vaziyat (poda o'tgan yo'lakda boshqa fermer yaylovining payxon bo'lishi yoxud mollar sonining ko'payishi)da o'zaro qo'shimcha kelishuvlarni taqozo etadi. Yana bir boshqa misol sifatida bir xonada o'tiradigan ikkita xodim (kashanda va sigaret tutuni mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir etadigan shaxs)ning o'zaro kelishuvini tashkil etishni keltirish mumkin.

Kouz teoremasini ko'rib chiqish huquqlarni mulkdorlar foydasiga eng samarali tarzda qayta taqsimlash jarayonida o'rin tutadi. Mamlakatimizda huquqlarni qayta taqsimlash jarayoni deyarli huquqlarni dastlabki tafsirlashdan so'ng darhol boshlandi. Ya'ni, davlat korxonalari xususiylashtirilib, aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Bunda aksiyalar yo korxona ishchilari va ma'muriyatining, yoki tashqi investorning qo'liga o'tdi. Aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan yirik korxonalarning aksariyatida davlat, tashqi investor nazorati amal qiladi.

Boshqacha aytganda, mulkchilik huquqlarini dastlabki tafsirlashning avvalgi bosqichida aksariyat korxonalarga egalik qilish huquqi mehnat jamoasining qo'lidan davlat, ma'muriyat va kam hollarda tashqi sarmoyador qo'liga o'tdi.

Chunki, davlat mulkini o'zgartirish yo'li bilan tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida huquqlarni taqsimlash ancha murakkab kechadi. Ushbu korxonalarda yuzaga kelgan mulkchilik munosabatlarini ta'riflash uchun borgan sayin «qayta guruhlashgan» (D.Stark) yoki «chigallashib ketgan» (B.Shavans) mulk atamalari ko'proq ishlatilmoqda. Qayta guruhlashgan mulk deganda qonun bilan mustahkamlangan va real mulkchilik huquqlarining mos kelmasligi, nazorat mexanizmlari va korxonaning tashkiliy chegaralarining «yo'qotilganligi» tushuniladi.

## 3-§. Transaksiya xarajatlari va ularning turlari.

Transaksion chegirmalar nazariyasining asoslari ingliz iqtisodchisi Ronald Kouzning “Firmalar tabiati” (1937), maqolasida ifodalangan. Shunga o’xshash g’oyalarni F.Naytning “Risk, noaniqlik va daromad” va birinchi marta “transaksiya” terminini ishlatgan Dj. Kommonsning ishlarida topish mumkin. Kouz taklif etgan konsepsiya 1970-80 yillarda keng rivoj topdi. 1991 yilda R.Kouz firmalar nazariyasini (Kouz teoremasi) ishlab chiqganligi uchun Nobel mukofoti soxibi bo’ldi.

R.Kouz o’zining “Firmalar tabiati” nomli ishida nima uchun bozorda firmalar qayg’urishadi (cho’chishadi, bezovtalanadi) degan savolni qo’yadi. U yozadi, bozor prinsipi individlarning o’zaro aloqadorligi natijasida iqtisodiy faoliyat chegirmalarini oshiradigan bir qator muammolarni keltirib chiqadi. Bu chegirmalar o’z tarkibiga bajarilgan ishlar bo’yicha xarajatlarni, xamkorlikni izlash, muloqot olib borish, shartnomalarni tuzish, aloqalarni mustaxkamlash va b. Xarajatlarni oladi. Shu kabi xarajat turlarini Kouz bitta “transaksiya chegirmalari” tushunchasiga birlashtiradi.Bu xarajatlarni minimallashtirish maqsadida insonlar va firmalar tashkillashadi. Bu esa transaksiya chegirmalari ulushini pasaytiradi.

**Transaksiya xarajatlari** – bu mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash bilan bog’liq barcha xarajatlardir.

5.2.-jadval

**Transaksiya harajatlarining tasniflanishi**

| *ex ante* xarajatlari | *ex port* xarajatlari |
|---|---|
| **Axborotni qidirib topish xarajatlari -** imkoniyatli sherik haqidagi, bozordagi vaziyat haqidagi axborotni qidirib topish xarajatlarini, shuningdek qo’lga kiritiladigan to’liqsiz va nomukammal axborot bilan bog’liq yo’qotishlarni o’z ichiga oladi. | **Monitoring va opportunizmni oldini olish xarajatlari -** bitim shartlariga rioya etilishini nazorat qilish va ushbu shartlarning bajarilishidan bosh tortilishini oldini olish xarajatlari |
| **Muloqot yuritish xarajatlari** -almashuv shartlari, bitim shaklini tanlash haqida muloqotlar olib borish xarajatlarini o’z ichiga oladi | **Tafsirlash va mulkchilik huquqlarini himoya qilish xarajatlari -** sudlar, hakamlar xarajatlari; shartnomani bajarish jarayonida buzilgan huquqlarni tiklash uchun zarur bo’lgan vaqt va resurslar sarflari, shuningdek mulkchilik huquqlarining yaxshi tafsirlanmagan va ishonchsiz himoyadan ko’rilgan yo’qotishlar |
| **O’lchash xarajatlari -** bitim predmeti bo’lgan tovarlar va xizmatlar sifatini o’lchash uchun zarur bo’lgan xarajatlar | |
| **Shartnoma tuzish xarajatlari -** bitimni yuridik yoki xufyona (norasmiy) rasmiylashtirish xarajatlari | **Uchinchi shaxslardan himoyalash xarajatlari -** uchinchi shaxslar (davlat, uyushgan jinoyatchilik va h.k.)ning bitim natijasida olinadigan foydali samara qismiga e’tirozlaridan himoyalash xarajatlari |

## O’z o’zini nazorat qilish savollari

1. Transaksiya tushunchasi va ularning turlari
2. “Kouz Teoremasi” va mulkiy huquq nazariyasi.
3. Mulkdorlar o’rtasida huquqlarning taqsimlanishi
4. Nol darajaga ega transaksiya xarajatlarining omillaridan kelib chiquvchi Kouz teoremasi qanday amaliy ahamiyatga ega?

## Mavzuga oid adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent., «Adolat», 2009 yil.
2. O’zbekiston Respublikasining yangi qonunlar to’plami. №6, 15-son. Toshkent., «Adolat». 1993 yil.
3. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Prosessual Kodeksi. Toshkent., «Adolat», 2008 yil.
4. Karimov I.A.O’zbekiston Konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo’lida va fuqrolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. //Mahalla gazetasi, 2009-yil 6-dekabr 49-soni
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. //O’zbekiston ovozi gazetasi, 2010 yil 13-noyabr 132-soni.
6. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqrozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari ” O’zbekiston:. 2009
7. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G’ofurov, B.K.Tuxliyev. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari» nomli asarini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
8. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
9. Nort D. Institutы, institusionalnыye izmeneniya i ekonomicheskaya effektivnost – M., 2002.
10. Semyuels U. Institusionalnaya ekonomicheskaya teoriya // Panorama ekonomicheskoy mыsli XX stoletiya. Pod red. D. Grinueya, M. Blini, I. Styuarta. – SPb: Ekonomicheskaya shkola, 2006.

## AMALIY MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 5-мавzu | TRANSAKSIYA VA TRANSAKSISION XARAJATLAR |
|---|---|

### 5.2. Seminarda ta'lim texnologiyasi

| **O'quv soati: 2 soat** | **Talabalar soni: 20-30 nafar** |
|---|---|
| **O'quv mashg'ulotining shakli** | Bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish mashg'uloti |
| **Mavzu rejasi** | 1. Mulkdorlar o'rtasida huquqlarning taqsimlanishi.<br>2. Kouz teoremasi.<br>3. Transaksiya xarajatlari. |
| **Mashg'ulotning maqsadi:** Transaksiya va uning xarajatlari, xarajatlar turlari va tarkibi ularni son jihatdan baholash masalalari. Transaksiya.Transaksion xarajatlar.Transaksion xarajatlarning turlari va ularni minimallashtirish vositalari.Transaksion xarajatlarni son jihatidan baholash ulardan oqilona foydalanishni yoritishdan iborat, | |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>• Transaksiya tushunchasi, tasnifi, tavsifi, mohiyati va ahamiyatini tushuntirish;<br>• xarajatlar turlari va tarkibi ularni son jihatdan baholash masalalarini yoritib berish;<br>• Transaksion xarajatlar tushunchasini yoritib berish;<br>• Transaksion xarajatlarning turlari va ularni minimallashtirishni tushuntirib berish;<br>• Transaksion xarajatlarni son jihatidan baholash ulardan oqilona foydalanishni tushuntirib berish; | **O'quv mashg'ulotining natijalari:**<br>• Transaksiya tushunchasi, tasnifi, tavsifi, mohiyati va ahamiyatini izoxlaydi;<br>• xarajatlar turlari va tarkibi ularni son jihatdan baholash masalalarini tushuntiradi;<br>• Transaksion xarajatlar tushunchasini tushuntiradi;<br>• Transaksion xarajatlarning turlari va ularni minimallashtirishni tushuntiradi;<br>• Transaksion xarajatlarni son jihatidan baholash ulardan oqilona foydalanishni tushuntiradi; |
| **Ta'lim metodlari** | Suhbat,tezkor-so'rov, FSMU-texnikasi |
| **Ta'lim vositalari** | Ma'ruza matni, format qog'ozlari, markerlar, skotch, o'quv materiallari, kompyuter texnologiyalari. |
| **Ta'lim shakllari** | Frontal, guruhlarda ishlash. |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |

| Monitoring va baholash | Nazorat savollari, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash. |
|---|---|

**5.1.2. "Transaksiya va transaksion xarajatlar"**

mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Faoliyat bosqichlari | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | *Ta'lim beruvchi* | *Ta'lim oluvchilar* |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish muammoli vazifalarni ishlab chiqadi. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. | |
| 1. **Kirish bosqichi** *(5 daqiqa)* | 1.1.Mavzuning nomi, maksadi, ukitish natijalarini, mavzuning rejasini eslatadi.<br>1.2.Guruhlar ishini baxolash mezonlarini e'lon qiladi *(1-ilova).* | Tinglaydilar. |
| **2. Asosiy bosqich** (*50 daqiqa*) | 2.1.Talabalarni faollashtirish maksadida tezkor-so'rov usulini qo'llaydi:<br>1.transaksiya deb nimaga aytiladi?<br>2.transaksiya xarajatlariga misollar keltiring?<br>2.2.Talabalarni 5 ta kichik guruhlarga bo'ladi. Guruhlarga ekspert vazifalarini tarqatadi va ularning mohiyati bilan tanishtiradi. Ekspert topshiriqlarini "FSMU" texnikasi asosida bajarishlarini tushuntiradi. *(2,3-ilovalar).*<br>Avval yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muxokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlab, format qog'oziga ko'chirishni taklif qiladi.<br>Talabalar faoliyatini nazorat qiladi, yo'naltiradi, maslahat beradi. Baholash mezonlarini eslatadi. Taqdimot boshlanishini ma'lum qiladi.<br>2.3.Bajargan ishlarini takdim qilishlarini so'raydi. Takdimot jarayonida | Savolga javob beradilar.<br>Guruhlarga bo'linadi.<br>Yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muxokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlab, format qog'oziga ko'chiradi.<br>Guruh sardori tayyor ishni olib chikib doskaga iladi va takdim qiladi.<br>Tanlagan fikrini asoslaydi. Boshka |

| | | |
|---|---|---|
| | talabalar fikrlarini tahlil qiladi, faol ishtiroklarini rag'batlantiradi. | ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi. |
| **3. Yakuniy bosqich** *(15 daqiqa)* | 3.1.Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi, yakun yasaydi.<br>3.2.Guruhlar ishini baholaydi, faol ishtirokchilarni alohida qayd qiladi va baholarni e'lon qiladi. | Eshitadi.<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

1-ilova

***Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari***

| *Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari* | *1- guruh* | *2- guruh* | *3- guruh* |
|---|---|---|---|
| Maksimal ball – 2 | | | |
| - savol to'liq yoritib berildi (0,5 ball) | | | |
| - javoblar yetarli darajada asoslab berildi (0,5 ball) | | | |
| - guruh ishtirokchilarining faolligi (0,5 ball) | | | |
| - berilgan savollarga javob berdi (0,3 ball) | | | |
| - reglamentga rioya kildi (0,2) | | | |
| ***Jami: (2 ball)*** | | | |

1,5 – 2 ball - «a'lo»
1,0 – 1,4 ball - «yaxshi»
0,5 – 0,9 ball - «konikarli»
0 - 0,4 ball - «konikarsiz»

2-ilova

**Ekspert varagi №1**
**Transaksiya xarajatlarini aniqlash**

1. transaksiya deganda nimani tushunasiz?
2. transaksiya xarajatlarining tarkibini ayting?
3. transaksiya xarajatlariga misollar keltiring?

**Ekspert varagi №2**
**Kouz teoremasini tushuntiring**

1.Kouz teoremasining moxiyatini ayting?
2.Transaksiya chegirmalari nima, qanday aniqlanadi?
3. transaksiya xarajatlarining tarkibini ayting?

3-ilova

***Tarqatma materialning taxminiy nusxasi***
***FSMU texnologiyasi***

**(F)** – Fikringizni bayon eting.

**(S)** – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

**(M) –** Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

**(U)** – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

## Nazorat uchun savollar.

1. Transaksiya xarajatlari.
2. Transaksiya xarajatlarining iqtisodiy ta'rifi.
3. Transaksiya xarajatlarini tasniflash.
4. Transaksiya xarajatlari va institutlar.
5. Mulkchilik huquqlarining iqtisodiy nazariyasi.
6. Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash.
7. Mulkchilik huquqlarini tafsirlashga nisbatan yondashuvlar.
8. Ingliz-saksoniya va rum-nemis huquqiy an'analari.
9. Mulkchilik huquqlar to'plami sifatida.

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| 6-мavzu | XUFYONA IQTISODIYOT |
|---|---|

### 6.1. Ma’ruza mashgulotining ukitish texnologiyasi

| *Mashg’ulot vaqti*-2 soat | **Talabalar soni: 40–50 gacha** |
|---|---|
| ***Mashg’ulot shakli*** | **Kirish-axborotli ma’ruza** |
| ***Ma’ruza rejasi*** | 6.1. Qonunga bo’ysunish bahosi<br>6.2. Xufyona iqtisodiyot tarkibi<br>6.3. Xufyona iqtisodiyot faoliyatining oqibatlari<br>6.4. Xufyona bozor institusional tizim sifatida |
| ***Ukuv mashgulotining maqsadi***: talabalarga xufyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalarini, xamda xufyona faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar va ularning tularini tushuntirishdan iborat. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>Xufyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalarini tushuntirish;<br>Xufyona iqtisodiyot tarkibi, ko’lami va ularning ko’rsatkchilari to’g’risida ma’lumotlar berish;<br>Xufyona faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar va ularning tularini tushuntirish;<br>Xufyona iqtisodiyot bozori va uning faoliyat yuritishining oqibatlarini tushuntirish. | ***Ukuv faoliyatining natijalari:***<br>Xufyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalarining ahamiyatini izoxlaydi;<br>Xufyona iqtisodiyot tarkibi, ko’lami va ularning ko’rsatkchilariga munosabat bildiradi;<br>Xufyona faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar va ularning tularini tushunadi;<br>Xufyona iqtisodiyot bozori va uning faoliyat yuritishining oqibatlarini tushunadi. |
| ***Ta’lim berish usullari*** | Blis so’rov”, “Aqliy xujum”, “Ma’ruza-suhbat” usullari. |
| ***Ta’lim berish shakllari*** | Ommaviy, jamoaviy |
| ***Ta’lim berish vositalari*** | O’quv qo’llanma, proyektor |
| ***Ta’lim berish sharoiti*** | O’TV bilan ishlashga moslashtirilgan |
| ***Monitoring va baholash*** | Og’zaki nazorat: savol-javob |

**“Xufyona iqtisodiyot” ma’ruza mashgulotining texnologik xaritasi**

| Ish bosqich-lari | O’qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi, 5 savollarni va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.4.Baholash mezonlari (1- ilova).<br>1.3.BBB jadvalini to’ldirish qoidasi bo’yicha ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollashtiradi. BBB jadvali natijasiga ko’ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxisini amalga oshiradi (2-ilova ).<br>1.4. Mavzuni jonlashtirish uchun savollar beradi. (3-ilova). | Tinglaydilar.<br><br>Tinglaydilar. |
| 2 - bosqich. Asosiy bo’lim (50 min) | 2.1.1 savol yuzasidan kichik ma’ruza qiladi.<br>2.2.Ma’ruza rejasining hamma savollari bo’yicha tushuncha beradi. (4 - ilova).<br>2.3.Ma’ruzada berilgan savollar yuzasidan umumlashtiruvchi xulosa beradi. (5 - ilova).<br>2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. | Tinglaydilar.<br><br>Tinglaydilar.<br>UMKga qaraydilar<br>UMKga qaraydilar<br>Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. |
| 3-bosqich.<br><br>Yakunlovchi<br><br>(10 min) | 1.5.Mashg’ulot bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo’yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma’lum qiladi.<br>3.2.Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro’yxatini hamda tezkor so’rov asosida test topshiriqlarini beradi.<br>3.3.Keyingi mazvu bo’yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi. | Savollar beradilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>UMKga qaraydilar. |

1-ilova (1.2.)

## MAVZU BO'YICHA TINGLOVChILARNING O'ZLAShTIRISHLARINI BAHOLASH MEZONLARI

| Muddati | Nazorat shakli | Talaba ballari |
|---|---|---|
| Ma'ruza mashg'uloti darsida | Ma'ruza mashg'ulotida faol ishtirok etish va guruhda ishlash | 14 ball |
| Amaliy mashg'ulot darsida | Amaliy mashg'ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash | 14 ball |
| Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishi (masalalar, insert usuli asosida va boshqalar) | Mavzu bo'yicha yozilgan ishga | 20 ball |
| Mavzu davomida mavzuning savollari bo'yicha nazorat ishi va testlar (oraliq nazorat ballari) | Ma'ruza mashg'ulotlaridan olingan bilimlarni mustahkamlaydi va amaliyotda qo'llash uchun o'zlarini bilimlarini sinab ko'radi | 28 ball |
| Mavzu oxirida | Test topshirish yoki og'zaki baholash | 24 ball |
| Jami: | | 100 ball |

86 % - 100% → «A'lo»
71 % - 85% → «Yaxshi»
55 % - 70% → «Qoniqarli»
0% - 54% → «Qoniqarsiz»

2 – ilova (1.3.)

### 1. BBB jadvalini to'ldirish qoidasi.

BO'B (ZXU) jadvali- bilaman/ bilishni xohlayman/bildim.

- Mavzu bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarini bajarishni ta'minlaydi. Sistemali fikrlash tahlil asoslari va strukturlashni rivojlantiradi.
- Yangi mavzuni o'rganishdan oldin qo'llaniladi: birinchi va ikkinchi ustunlar to'ldiriladi va so'ngra yakunlovchi qismida uchinchi ustun to'ldiriladi.

BO'B (ZXU) jadvalini to'ldirish qoidalari bilan tanishadi. Yakka holda yoki juftlikda jadvalni to'ldiradi

"Shu mavzu bo'yicha siz nimalarni bilasiz?", "Nimalarni bilmoqchisiz?" savollariga javob beradi.

Jadvalning birinchi va ikkinchi ustunni to'ldiradi (yakka holda yoki juftlikda)

Mustaqil ravishda ma'ruza matnini o'qiydi (yoki eshitadi)

Uchinchi ustunni to'ldiradi.

3-ilova (1.4)

**Mavzuni jonlantirish uchun blis so'rov savollari**

1. Qonunga bo'ysunish bahosi deganda nima tushuniladi?
2. Xufyona iqtisodiyot tarkibini ayting?
3. Xufyona iqtisodiyot faoliyatining oqibatlarini tushuntiring?
4. Xufyona bozor institusional tizim ekanligini tushuntiring?
5. Ushbu kursni o'qigan talaba nimalarni bilishi kerak?

4 - ilova (2.2.)

**1§. Qonunga bo'ysunish bahosi**

Iqtisodiy faoliyatni xufyona amalga oshirish birinchi navbatda qonun doirasidagi harakat bilan ya'ni, yuqori transaksiya xarajatlari bilan bog'liq. Transaksiya xarajatlarining tasnifiga asoslangan holda, ta'kidlash lozimki, bunda asosan shartnomani tuzishdagi yuqori xarajatlar, mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoyalash xarajatlari va uchinchi shaxslardan himoyalash xarajatlari nazarda tutiladi. De Soto ushbu xarajatlarni «qonunga bo'ysunish narxi» deya ta'riflaydi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qonundan foydalanish xarajatlari (yuridik shaxsni ro'yxatga olish, lisenziya olish, bankda hisobvaraqlar ochish, yuridik manzilga ega bo'lish va boshqa rasmiyatchiliklarni bajarish xarajatlari);

- qonun doirasida faoliyatni davom ettirish zarurati bilan bog'liq xarajatlar (soliqlarni to'lash; mehnat munosabatlari sohasida qonun talablarini bajarish (ish kunining uzunligi, eng kam ish haqi, ijtimoiy kafolatlar); oshkora sud tizimi doirasida nizolarni hal etishda sud xarajatlarini to'lash).

## 2§. Xufyona iqtisodiyot tarkibi

**Xufyona iqtisodiyot** uchta unsurdan tarkib topadi: norasmiy, sohta va kriminal iqtisodiyot.

**Norasmiy iqtisodiyot** – iqtisodiy faoliyatning oshkora turlari, unda xarajatlarni pasaytirish maqsadida tovarlar va xizmatlarning qayd etilmagan tarzda ishlab chiqarilishi o’rin tutadi (yana bir bor ta’kidlash lozimki, davlatdan yashiriladigan barcha faoliyat turlari huquqiy me’yorlar bilan tartibga solinishi mumkin emas va mulkchilik huquqlarini himoyalashning muqobil mexanizmlari qo’llanilishini talab qiladi).

**Sohta iqtisodiyot** - qo’shib yozishlar, chayqovchilik bitimlari, poraxo’rlik va pulni olish hamda berish bilan bog’liq har xil tovlamachilik harakatlari iqtisodiyoti.

**Kriminal iqtisodiyot** - qonunning (birinchi navbatda – Jinoiy va Fuqarolik kodekslarining) to’g’ridan-to’g’ri buzilishi va mulkchilikning qonuniy huquqlariga tajovuz qilish bilan bog’liq iqtisodiy faoliyat.

## 3§. Xufyona iqtisodiyot faoliyatining oqibatlari.

Ijobiy oqibatlar jumlasiga, xufyona xo'jalik faoliyatining barqarorlashtiruvchi rolini kiritish lozim. Ushbu barqarorlashtiruvchi rol ayniqsa buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida yaqqol namoyon bo'ladi. «Dastlabki iqtisodiyot» qondira olmaydigan talab xufyona iqtisodiy faoliyat sohasidagi mahsulot va xizmatlar uchun barcha narsalarni hazm qiluvchi bozorni barpo etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xufyona sektorning katta o'lchamlari ishlab chiqarishdagi pasayishlar va jahon bozorlaridagi tangliklarni yumshatish imkonini beradi. Tangik davrlarida xufyona sektor mehnatga haq to'lash darajasining pasayishi hisobidan bandlikni avvalgi darajada saqlab turishga qodir: xufyona korxona faoliyat ko'rsatishining asosida ijtimoiy (oilaviy-qarindoshchilik, urug'chilik, milliy) aloqalarni qayta tiklash yotadi. Bunday qayta tiklash mantiqiga muvofiq ishdan bo'shatishga yo'l qo'yish – ijtimoiy aloqalarning buzilishi demakdir. **Ikkinchidan,** xufyona sektorning mavjud bo'lishi oshkora bozorga kirish xarajatlari yuqori bo'lganligi tufayli unga talab bo'lmay qolgan tadbirkorlik salohiyatini amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, Limada ko'cha savdogarlari foydalanadigan sotuv strategiyalari yuqori xarajatlar asosida marketing va narxni shakllantirishning eng yaxshi namunalariga savdo korxonalarining siyosatiga qaraganda juda yaqin.

Shunga qaramay, iqtisodiyotning oshkora va xufyona sektorlarining parallel ravishda mavjud bo'lishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ham ko'rsatadi. Xufyona sektorda texnika bilan qayta jihozlashning foydasizligi tufayli texnik taraqqiyot to'xtab qoladi va umuman mehnat unumdorligi pasayadi. Oshkora iqtisodiyotda qolgan iqtisodiy subyektlarga soliq yuki ko'payadi: davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar xarajatlari kam sonli soliq to'lovchilarga taqsimlanadi. Bundan tashqari, xufyona iqtisodiyotning mavjud bo'lishi izchil makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha har qanday chora-tadbirlarni samarasiz qiladi.

## 4§. Xufyona bozor institusional tizim sifatida.

Xufyona sektor bilan bog'liq eng katta xavf bu bozor konstitusiyasidan keskin farq qiluvchi xatti-harakatlar va bitimlar tuzishning alohida me'yorlarining shakllanishdir. Xufyona me'yorlarning asosida ularning amal qilishi hududiy jihatdan va / yoki shaxslarning ma'lum doirasi tomonidan chegaralangan ijtimoiy mexanizmlar yotadi - qonunga bo'ysunish me'yorlarining mavjud emasligi, me'yorlarning amal qilishini ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, barcha iqtisodiy subyektlarga tarqatishga imkon bermaydi.

Xufyona me'yorlarning yozilmagan va lokal xususiyati tufayli xufyona bitimlar tuzish uchun universal o'yin qoidalarini ifodalab bo'lmasa-da, xufyona iqtisodiyot «konstitusiyasi»ning asosiy unsurlarini aniqlash mumkin. Misol tariqasida Italiya, Sisiliya, Kalabriya va Kampaniyani olamiz: rivojlangan xufyona sektorga ega bo'lgan ushbu mintaqa iqtisodchilar va sosiologlar tomonidan yaxshi o'rganilgan.

Davlatning (dastlab Ispaniya, so'ngra Italiya davlatining) kam ishtiroki va uning mahalliy aholining turmushini va mulkchilik huquqlarini himoyalashni ta'minlashga layoqatsizligi Italiya janubi tarixiy rivojlanishining muhim omillari bo'ldi. Davlat ushbu mintaqalarning uzoqda joylashganligi va o'zi olib boradigan «bo'lib ol va hokimiyat o'rnat» siyosat tufayli ularning mavjudligi haqida shunchaki unutib qo'ydi. Shuning uchun, ayniqsa feodal huquqning bekor qilinishi va mayda mulkdorlar sinfining shakllanishi munosabati bilan mulkchilik huquqlarini tafsirlash va shartnomalar bajarilishini ta'minlashning davlatning aralashuviga muqobil mexanizmari talab etildi.

5-ilova (1.1)

**Xulosa**

Iqtisodiy subyekt tomonidan o'z biznesi uchun institusional muhitni – oshkora yoki xufyona – tanlash to'g'risidagi qaror birinchi va ikkinchi holatlarda bitimlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini qiyoslash orqali belgilanadi. Boshqacha aytganda, qonunga bo'ysunish normasi yana bir bor oqilona asoslanadi: shaxs uning talabini mutlaq imperativning ta'siri ostida emas (qonuniy narsalarning hammasi yaxshi), balki qonunga amal qilishdan kutilayotgan foydalar tufayli bajaradi. Qonunga ixtiyoriy bo'ysunishga undovchi omillar shaxsda faqat, davlat iqtisodiyotining oshkora sektorida transaksiya xarajatlarini pasaytirish yo'li bilan uning manfaatlarini amalga oshirishga qodir bo'lgan taqdirda, paydo bo'ladi.

Iqtisodiy sohada xufyona bitimlar amalga oshiriladigan o'yin qoidalarida, birinchi galda bozor konstitusiyasidan bitimlarning barcha ishtirokchilarini «o'ziniki» va «begonalarga» ajratish bilan katta farq qiladi. O'zinikilarga nisbatan opportunizmni oldini olishning ijtimoiy mexanizmlari amal qiladi, ishonch va o'zaro yordam me'yorlari hukmronlik qiladi. Aksincha, «begonalarga» nisbatan opportunizm me'yor bo'lib qoladi. T.Veblen yozganidek, xufyona iqtisodiyot «hasadguylik raqobatchiligiga» asoslangan «yovvoyi» bozor modeliga juda yaqin. Va nihoyat, xufyona iqtisodiyot maksimal darajada fragmentlangan va mozaikli, u to'liq tizim shaklini qabul qilmaydi hamda bozorning barcha ishtirokchilari uchun yagona va majburiy bo'lgan konstitusiyani qabul qilmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, qonunga bo'ysunishning yuqori narxiga muqobil variant ham g'oyat qimmat ekan.

**O’z-o’zini nazorat qilish savollari.**

1. Faqat iqtisodiyotning xufyona sektori subyektlariga nisbatan repressiya choralarini qat’iylashtirish yordamida ushbu sektorning o’lchamlarini qisqartirishga erishish mumkinmi?
2. Xufyona sektor yalpi ichki mahsulotida yuqori ulushga bilan tavsiflanadigan mamlakatda bozor islohotlarining dastlabki bosqichlari qanday bo’lishi kerak?
3. Bozor islohotlari siyosatining standart dasturiga qanday tuzatishlar kiritilishi lozim?
4. Xufyona iqtisodiyotning qanday unsurlari mavjud?
5. Xufyona iqtisodiyot o’lchamlarini baholash yondashuvlarini izohlang.
6. Xufyonalik narxining unsurlari nimalardan iborat?
7. «Mafiya» atamasining kelib chiqishini sharhlang.

**Mavzuga oid adabiyotlar ro’yxati:**


1. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent, 2009.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: //O’zbekiston ovozi gazetasi, 2010 yil 13-noyabr soni.
3. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual kodeksi. T.: «Adolat», 1997, 2008 yangi nashr.
4. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: «Adolat», 2008.
5. O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T.: «Adolat», 1996.
6. O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi. T., «Adolat», 2008.
7. O’zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.T.: «Adolat». 2008.
8. Sh.Sh.Shorahmetov.O’zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. Toshkent.: Adolat. 2001. 512-bet.
9. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
10. Nort D. Institutы, institusionalnыye izmeneniya i ekonomicheskaya effektivnost – M., 2002.
11. Semyuels U. Institusionalnaya ekonomicheskaya teoriya // Panorama ekonomicheskoy mыsli XX stoletiya. Pod red. D. Grinueya, M. Blini, I. Styuarta. – SPb: Ekonomicheskaya shkola, 2006.

## AMALIY MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 6-мавzu | XUFYONA IQTISODIYOT |
|---|---|

### 6.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| **Mashg'ulot vaqti-2 soat** | **Talabalar soni: 20 –30 gacha** |
| **Mashg'ulot shakli** | **Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar** |
| ***Amaliy mashg'ulot rejasi*** | 6.1. Qonunga bo'ysunish bahosi<br>6.2. Xufyona iqtisodiyot tarkibi<br>6.3. Xufyona iqtisodiyot faoliyatining oqibatlari<br>6.4. Xufyona bozor institusional tizim sifatida |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi**: xufyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalarini, xamda xufyona faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar va ularning tularini talabalarni tanishtirishdan iborat.* | |
| ***Pedagogik vazifalar*:**<br>Xufyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalarini tushuntirish;<br>Xufyona iqtisodiyot tarkibi, ko'lami va ularning ko'rsatkchilari to'g'risida ma'lumotlar berish;<br>Xufyona faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar va ularning tularini tushuntirish;<br>Xufyona iqtisodiyot bozori va uning faoliyat yuritishining oqibatlarini tushuntirish. | ***O'quv faoliyati natijalari:***<br>Xufyona faoliyatning kelib chiqishi sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalarining ahamiyatini izoxlaydi;<br>Xufyona iqtisodiyot tarkibi, ko'lami va ularning ko'rsatkchilariga munosabat bildiradi;<br>Xufyona faoliyat olib borish uchun qilinadigan xarajatlar va ularning tularini tushunadi;<br>Xufyona iqtisodiyot bozori va uning faoliyat yuritishining oqibatlarini tushunadi. |
| *Ta'lim berish usullari* | Munozara, suhbat,tezkor-so'rov |
| *Ta'lim berish shakllari* | Ommaviy, guruhlarda ishlash: "koop-koop" texnikasi |
| *Ta'lim berish vositalari* | O'quv qo'llanma, proyektor, flipchart, markerlar, ekspert topshiriqlari |
| *Ta'lim berish sharoiti* | Texnik ta'minlangan, gurhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat: savol-javob |

**6.2. "Xufyona iqtisodiyot" amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi**

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi *(1-ilova).*<br>Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun - yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi *(2-ilova).*<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi *(3-ilova).* | |
| **1. O'quv mashg'uloti ga kirish bosqichi** *(10 daq)* | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning axamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.<br>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi *(3-ilova).*<br>1.3. Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi *(2-ilova).* | Savollarga javob beradilar. |
| **2. Asosiy bosqich** (55 daqiqa) | 2.1. Talabalarni 5-ta kichik guruhga bo'ladi va guruhlarda hamkorlik asosida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi *(2-3-ilova).* Har bir guruh mavzu rejasi asosida takdimot tayyorlashini aytadi.<br>2.2. O'quv kursi mavzulari bo'yicha tayyorlangan ekspert varaqalarini tarqatadi *(5-ilova).*<br>2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to'liq yoritilishini kuzatadi.<br>2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruhlarda sardorlar takdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatadi, savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi.<br>2.5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va | Kichik guruhlarga bo'linadilar.<br><br>Topshiriqlar bo'yicha ishlaydilar.<br><br>Faol qatnashadilar, takdimot uchun materiallar tayyorlaydilar.<br><br>Guruhdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida hamkorlik qiladilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | umumiy baholaydi. | |
| 3–Yakuniy bosqich (20 daqiqa) | 3.1.O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.<br>3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.<br>3.3. Mustakil ishlashlari uchun nazorat savollariga tayyorgarlik ko'rib kelish vazifasini beradi *(6 - ilovalar).* | Tinglaydilar. |

**1-ilova**

**«BIRGALIKDA O'QIYMIZ» TEXNIKASI**

**Birgalikda o'qish:** o'quv guruhi kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir kichik guruh o'rganilayotgan mavzuning ma'lum bir sohasida ekspert bo'ladi va boshqalarni o'rgatadi.

Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari mavzu savollarini to'la hajmda egallab olishdan iborat.

*«Birgalikda o'qiymiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishii*

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo'lgan har xil turdagi guruhlar to'ziladi.

↓

2. Har bir guruhga *bitta* topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir *qismi,* uning ustida butun o'quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – **ekspert varaqlari** – taqdim etiladi.

↓

3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.

↓

4. Hamma *yakka tartibdagi topshiriqni* bajaradi.

↓

5. Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag'i bo'yicha savollar javobi)ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.

↓

6. Spiker yoki guruh barcha a'zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

**2-ilova**

***Guruhlarda ishlash qoidasi***

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling.
Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering.
Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'imiz lozim:

- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz;
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib

***Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari***

| Mezonlar | Maks. ball | Guruh natijalarini baholash | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| Axborotning to'liqligi | 1,0 | | | | | | |
| Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi | 0,6 | | | | | | |
| Guruhning faolligi | 0,4 | | | | | | |
| Ballarning maksimal summasi, jami | 2 | | | | | | |

**4-ilova**

## Bilimlarni faollashtirish uchun savollar

1. Xufyona sektor yalpi ichki mahsulotida yuqori ulushga bilan tavsiflanadigan mamlakatda bozor islohotlarining dastlabki bosqichlari qanday bo'lishi kerak?
2. Bozor islohotlari siyosatining standart dasturiga qanday tuzatishlar kiritilishi lozim?
3. Xufyona iqtisodiyotning qanday unsurlari mavjud?
4. Xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholash yondashuvlarini izohlang.

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| 7-мавzu | MULKNI MUQOBIL REJIMI VA TASHQI SAMARASI |
|---|---|

**7.1. Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| **O’quv soati: 2 soat** | **Talabalar soni: 40-50 gacha** |
| **O’quv mashg’ulotining shakli** | Ma’lumotli (ko’rgazmali) ma’ruza<br>Ko’rgazmali (vizual) ma’ruza (2-mashg’ulot) |
| **Mavzu rejasi** | 1. Mulk to’g’risida umumiy tushunchalar, uning muqobil rejimi va tashqi samarasi.<br>2. Kouz nazariyasi to’g’risida tushunchalar<br>3. Tashqi samara va kouza nazariyasi.<br>4. Mulkning muqobil rejimi |
| *Ukuv mashgulotining maksadi:* Mulk to’g’risida, uning muqobil rejimi, tashqi samarasi, kouza nazariyasi to’g’risida talabalarga tushunchalar berish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>1 Mulkchilik ta’riflarining tahlili va ahamiyatini tushuntirish.<br>2. Mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning tarixiy shakllari bilan tanishtirish;<br>3. Mulkiy xuquqlar to’g’risida ma’lumotlar berish;<br>4. Mulkiy xuquqlar ahamiyatini tushuntirish;<br>5. Mulkning muqobil rejimi to’g’risida ma’lumotlar berish; | *Ukuv faoliyatining natijalari:*<br>1. Mulkchilik ta’riflarining tahlili va ahamiyatini izoxlaydi;<br>2. Mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning tarixiy shakllari to’g’risida ma’lumotlar beradi;<br>3. Mulkiy xuquqlarni izoxlaydi;<br>4. Mulkiy xuquqlar ahamiyatini va mohiyatini tushuntirib beradi;<br>5. Mulkning muqobil rejimi to’g’risida ma’lumotlar beradi; |
| **Ta’lim metodlari** | Vizual ma’ruza, blis-surov, bayon qilish, klaster, «xa-yuk» texnikasi |
| **Ta’lim vositalari** | Ma’ruza matni, kompyuter texnologiyalari. |
| **Ta’lim shakllari** | Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash |
| **O’qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Savol-javob, reyting tizimi asosida baholash, nazorat savollari va vazifalar. |

## 7.2. "Mulkni muqobil rejimi va tashqi samarasi" ma'ruza mashgulotining texnologik xaritasi

| Faoliyat bosqichlari | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchining** | **Talabaning** |
| **I. Kirish bosqichi (10 daqiqa)** | 1.1.Mavzuning nomi, maqsadi, o'qitish natijalarini, mavzuning rejasini e'lon qiladi.<br>1.2.Mavzu bo'yicha asosiy tushuncha va tayanch iboralarni sharhlaydi va ularni yozdiradi.<br>1.3.Baholash mezonlarini e'lon qiladi. | Tinglaydilar.<br><br>Asosiy tushuncha va iboralarni yozib oladilar |
| **II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)** | 2.1.Bugungi o'quv mashg'ulotida nimalarni muhokama qilishimizni chuqur o'ylab javob berishni, unda asosiy tushuncha va iboralarning o'rnini aniqlashni ularning o'rganilish ketma-ketligini raqamlar asosida belgilashni taklif qiladi (Kutish hamkori. 1-ilova).<br>2.2.Aqliy hujum metodi yordamida talabalarni faollashtiradi. «Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish deganda nimani tushunasiz?» savolini beradi va qisqa iboralar bilan javob berishini so'raydi. Javoblarni doskaga yozib boradi.<br>2.3. Javoblarni guruhlashtirishni va sistemalashtirishni taklif qiladi. Talabalar bilan hamkorlikda, ularning javoblari asosida klaster ishlab chiqadi (2-ilova – o'qituvchining varianti). Faoliyat jarayonida javoblarni aniqlashtiradi, tuzatadi, o'zgartirishlar kiritadi.<br>2.4.Rejalar asosida (klasterga qarab) mavzuning mazmunini yoritadi. Ekranda chizmali organayzerlarni namoyish etib, xodimlarning xizmat-kasb jihatidan ko'tarilish tizimini, kadrlar zaxirasi va ular bilash ishlash, kadrlar zaxirasini shakllantirish manbalari kabilarni sharhlaydi, tushuntiradi (slaydlar).<br>2.5.Talabalarni uchta guruhga bo'ladi.T-sxemani to'ldirish qoidasini tushuntiradi (3-ilova).<br>Guruhlar ishini kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi.<br>2.6.Olingan natijalar bo'yicha taqdimot o'tkazilishini e'lon qiladi. Taqdimot | Daftarlariga yozib, asosiy tushuncha va iboralarni raqamlar bilan belgilab chiqadilar.<br>Savolga javob beradilar.<br>Javoblari guruhlashtirib, klaster ishlab chiqishga yordam beradi.<br>Eshitadilar. Zarur ma'lumotlarni yozib oladilar.<br>Fikr almashadilar.<br>Har bir talaba individual T-sxemani ishlab chiqadi. So'ng T-sxemalar solishtiriladi va bita umumiysi guruhlarda ishlab chiqiladi.<br>Guruh sardorlari ishlarini doskaga ilib, uni sharhlay-di. (5 daq.).<br>Boshqa guruh a'zolari qo'shimchalar kirita-di, to'g'rilaydi, |

| | | |
|---|---|---|
| | jarayonida talabalar bilan birgalikda T-sxemaning to'liq ishlab chiqilganini tahlil qiladi, kamchiliklarni to'ldiradi, aniqlashtiradi, to'g'rilaydi va baholaydi.<br>2.7.T-sxemaning oxirgi to'g'ri variantini daftarlariga ko'chirishni taklif qiladi. | savollar beradi. T-sxemani daftar-lariga ko'chiradilar. |
| **III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)** | 3.1. Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi va yakun yasaydi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy tomonlariga qaratadi.<br>3.2.Talabalar faoliyatini baholaydi: eng faol ishtirokchilar bilan birga guruh ishlarida eng sust ishtirok etganlarni ham aytib o'tadi. Guruh ishlarini samarasini oshirish bo'yicha takliflar beradi.<br>3.3.Talabalarga mashg'ulot boshida belgilangan asosiy tushuncha va iboralarni ketma-ketligi taqdim etilgan ma'lumotni bayon etish strukturasi bilan solishtirishni taklif qiladi (4-ilova). | Eshitadilar.<br><br>Asosiy tushuncha va iboralarni uzlari tuzgan ketma-ketlik bilan solishtirib ko'radilar. Vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova**

**«Kutish hamkori»**

O'qituvchi ma'ruza boshlanishidan oldin talabalarga mavzu bo'yicha yozdirgan asosiy tushuncha va iboralarga umumiy tushuncha berishni va ularning ma'ruza jarayonida qo'llanilishining taxminiy ketma-ketligini aniqlashni taklif qiladi.

O'qituvchi ma'ruza yakunida talabalarga asosiy tushuncha va iboralarga qaytishni, hamda uni asl natijalar bilan solishtirishni taklif qiladi.

**2-ilova**

## Klaster tuzish




**3-ilova**

***T-sxema***

ma'lumotlarni solishti-rish yoki ikki tomonini (ha/yo'q) ko'rsatish uchun qo'llaniladigan chizmali organayzer. Bu:

tanqidiy tafakkurni ri-vojlantiruvchi;

ko'proq yakuniy ma'ruzada qo'llaniladigan taqqoslash jadvalidir.

T-sxemani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Individual xolda T-sxemani ishlab chiqadilar.

↓

Ajratilgan vaqt ichida yakka holda yoki juftlikda sxemani to'ldiradilar: bir tomonida tarafdorlik sabablarini, ik-kinchi tomonda qarshilik sabablarini yozadilar.

↓

Sxemalar juftlikda / guruhlarda to'ldi-rilishi, solishtirilishi mumkin.

↓

Butun guruh birgalikda bitta umumiy T-sxemani ishlab chiqadi.

## AMALIY MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 7-мавzu | MULKNI MUQOBIL REJIMI VA TASHQI SAMARASI |
|---|---|

### 7.2. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

| | |
|---|---|
| *Mashg'ulot vaqti*-2 soat | **Talabalar soni: 20 – 30 gacha** |
| ***Mashg'ulot shakli*** | **Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar** |
| *Amaliy mashg'ulot rejasi* | 1. Mulk to'g'risida umumiy tushunchalar, uning muqobil rejimi va tashqi samarasi.<br>2. Kouz nazariyasi to'g'risida tushunchalar<br>3. Tashqi samara va kouza nazariyasi.<br>4. Mulkning muqobil rejimi |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi:* Mulk to'g'risida, uning muqobil rejimi, tashqi samarasi, kouza nazariyasi to'g'risida tushunchalar berish. Tashqi samara va kouza nazariyasi.Mulkning muqobil rejimini talabalarga tushuntirish | |
| *Pedagogik vazifalar*:<br>1 Mulkchilik ta'riflarining tahlili va ahamiyatini tushuntirish.<br>2. Mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning tarixiy shakllari bilan tanishtirish;<br>3. Mulkiy xuquqlar to'g'risida ma'lumotlar berish;<br>4. Mulkiy xuquqlar ahamiyatini tushuntirish;<br>5. Mulkning muqobil rejimi to'g'risida ma'lumotlar berish; | *O'quv faoliyati natijalari:*<br>1. Mulkchilik ta'riflarining tahlili va ahamiyatini izoxlaydi;<br>2. Mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning tarixiy shakllari to'g'risida ma'lumotlar beradi;<br>3. Mulkiy xuquqlarni izoxlaydi;<br>4. Mulkiy xuquqlar ahamiyatini va mohiyatini tushuntirib beradi;<br>5. Mulkning muqobil rejimi to'g'risida ma'lumotlar beradi; |
| **Ta'lim metodlari** | Amaliyot, tezkor so'rov, nima uchun texnikasi |
| **Ta'lim vositalari** | Ma'ruza matni, format qog'ozlari, markerlar, skotch, o'quv tarqatrma materiallari |
| **Ta'lim shakllari** | Jamoaviy, juftliklarda va guruhlarda ishlash. |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Nazorat savollari, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash. |

**7.2. "Mulkni muqobil rejimi va tashqi samarasi"**

mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| Faoliyat bosqichlari | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | ***Ta'lim beruvchi*** | ***Ta'lim oluvchilar*** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish muammoli vazifalarni ishlab chiqadi. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. | |
| 1. **Kirish bosqichi** *(5 daqiqa)* | 1.1.Mavzuning nomi, maksadi, ukitish natijalarini, mavzuning rejasini eslatadi.<br>1.2.Guruhlar ishini baxolash mezonlarini e'lon qiladi *(1-ilova).* | Tinglaydilar. |
| **2. Asosiy bosqich** *(50 daqiqa*) | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida tezkor-so'rov texnikasini qo'llab, quyidagi savollarni beradi:<br>- Aylanma mablag'lar deganda nimani tushunasiz?<br>- Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari deganda nimani tushunasiz?<br>- Aylanma mablag'lar aylanishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?<br>-Aylanma mablag'lar zaxirasi deganda nimani tushunasiz?<br>Berilgan javoblarni tahlil qiladi, kamchiliklarini to'ldiradi, xatolarini tuzatadi.<br>2.2. Talabalarni ixtiyoriy ravishda uchta kichik guruhga bo'ladi va hamkorlikda topshiriq bajarishlarini uqtiradi.<br>2.3. Topshiriqlar tarqatadi. «Nima uchun?» texnikasidan foydalanib, topshiriqni avval individual, so'ngra guruhda bajarishi kerakligini aytadi va jadvalni to'ldirish to'ldirish qoidasini tushuntiradi. (2-ilova).<br>Guruhlarda faoliyatni tashkil qiladi, talabalarni kuzatadi, yo'naltiradi, | Savolga javob beradilar.<br><br>Guruhlarga bo'linadi.<br>Yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muxokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlab, format qog'oziga ko'chiradi.<br><br>Guruh sardori tayyor ishni olib chikib doskaga iladi va takdim qiladi. Tanlagan fikrini asoslaydi. Boshka ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| | maslahatlar beradi.<br>2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Yo'naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi. | |
| **3. Yakuniy bosqich**<br>*(15 daqiqa)* | 3.1.Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi, yakun yasaydi.<br>3.2.Guruhlar ishini baholaydi, faol ishtirokchilarni alohida qayd qiladi va baholarni e'lon qiladi.<br>3.3. Mustakil ishlashlari uchun nazorat va test savollariga tayyorgarlik ko'rib kelish vazifasini beradi *(3,4,-ilovalar).*<br>*3.4.* Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) nazorat savollariga og'zaki javob berish; (2) Savollar asosida BBB jadvalini to'ldirib kelish. (5-ilova) | Eshitadi.<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova**

***Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari***

| **Mezonlar** | **Maks. ball** | **Guruh natijalarini baholash** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **1** | **2** | **3** | **4** | **5** | **6** |
| Axborotning to'liqligi | 1,0 | | | | | | |
| Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi | 0,6 | | | | | | |
| Guruhning faolligi | 0,4 | | | | | | |
| Ballarning maksimal summasi, jami | 2 | | | | | | |

**2-ilova**

**O'quv topshiriqlari**
**1-guruh**
**«Nima uchun?» texnikasi**



**2-guruh**
**«Nima uchun?» texnikasi**




**3-guruh**
**«Nima uchun?» texnikasi**




**3-ilova**

## Nazorat savollari va vazifalari:

1. Mulkchilik huquqlarining iqtisodiy nazariyasi.
2. Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash.
3. Mulkchilik huquqlarini tafsirlashga nisbatan yondashuvlar.
4. Ingliz-saksoniya va rum-nemis huquqiy an’analari.
5. Mulkchilik huquqlar to’plami sifatida?.

# MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| 8-мavzu | SHARTNOMALAR NAZARIYASI |
|---|---|

**8.1. Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| Vakti - 2 soat | Talabalar soni: 40-50 nafar |
| Ukuv mashgulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashgulotining rejasi | 8.1. Shartnoma tushunchasi<br>8.2. Sotish to’g’risidagi shartnoma va yollash to’g’risidagi shartnoma<br>8.3. Shartnomalarning xillari<br>8.4. Tashkilot tushunchasi |
| *Ukuv mashgulotining massadi:* talabalarga institutsional kelishuv turlari, shartnoma tushunchasi, sotish to’g’risidagi shartnoma va yollash to’g’risidagi shartnoma, shartnomalarning xillari xamda tashkilot tushunchasi tugrisida tushunchalar beriladi. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br><br>1. Institutsional kelishuvlarni tadqiqot qilishni kontrakt shaklini tushuntirish;<br>2. institutsional kelishuvlarning o’zaro aloqalari tushuntirish;<br>3. Bozor institutsional kelishuvini tushuntirish;<br>4. Firma institutsional kelishuvi turi to’g’risida ma’lumotlar berish; | *Ukuv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br><br>1. Institutsional kelishuvlarni tadqiqot qilishni kontrakt shaklini izoxlaydi;<br>2. institutsional kelishuvlarning o’zaro aloqalari to’g’risida ma’lumotlar beradi;<br>3. Bozor institutsional kelishuvini tushuntiradi;<br>4. Firma institutsional kelishuvi turi to’g’risida ma’lumotlar keltiradi; |
| Ukitish uslubi va texnikasi | Vizual ma’ruza, blis-surov, bayon kilish, klaster, «xa-yuk» texnikasi |
| Ukitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proyektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| Ukitish shakli | Jamoa, gurux, va juftlikda ishlash. |
| Ukitish shart-sharoiti | Proyektor, kompyuter har jixozlangan auditoriya |

**“Shartnomalar nazariyasi” mashgulotining texnologik xaritasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | Ukituvchi | talaba |
| 1-boskich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, ukuv mashgulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum kilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-boskich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e’tiborini jalb qilib bilim darajalarini aniklash uchun tezkor savol-javob utkazadi.<br>1. Bozor nima?<br>2. firma nima?<br>3. Institusional kelishuvlarni izoxlang?<br>2.2. Ukituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi. Bahoning tushunchasi, baholashtirishning mohiyati va ahamiyati tushuntirib beradi. Baho, narx va baholashtirish tushunchalarini sharxlaydi (1-ilova).<br>2.3. Bozorning funksiyalarini batafsil yoritadi va takdimotni namoyish kiladi (2-ilova).<br>2.4. Bozorning asosiy turlarini slaydlar orqali tushuntirib beradi (3-ilova).<br>2.5. bozor bahoga ta’sir qiluvchi omillarning asosiylarini sanab beradi (4-ilova).<br>2.6. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e’tibor kilishni va yozib olishlarina ta’kidlaydi.<br>2.7.O’tilgan mavzuni qay darajada o’rganganligini bilish maqsadida “BBB” usulini qo’llagan holda talabalarga savollar beradi *(5-ilova).*<br>2.8.Savollarga to’g’ri javob bergan talabalarni baholaydi va rag’batlantiradi. | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. Uylaydi, javob beradi. Javob beradi va to’g’ri javobni eshitadi.<br><br>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama kiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3.Eslab koladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga xarakat kiladi. Ta’rifni yozib oladi, misollar keltiradi. |

| | | |
|---|---|---|
| 3-boskich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga karatadi. Faol ishtirok etgan talabalarni ragbatlantiradi. Mustakil ish uchun vazifa: "Bozor" so'ziga klaster to'zishni vazifa kilib beradi, baxolaydi. | 3.1. Eshitadi, anikdashtiradi. 3.2. Topshirikni yozib oladi. |

1-ilova (1.2.)

**MAVZU BO'YICHA TINGLOVChILARNING O'ZLASHTIRISHLARINI BAHOLASH MEZONLARI**

| Muddati | Nazorat shakli | Talaba ballari |
|---|---|---|
| Ma'ruza mashg'uloti darsida | Ma'ruza mashg'ulotida faol ishtirok etish va guruhda ishlash | 14 ball |
| Amaliy mashg'ulot darsida | Amaliy mashg'ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash | 14 ball |
| Mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishi (masalalar, insert usuli asosida va boshqalar) | Mavzu bo'yicha yozilgan ishga | 20 ball |
| Mavzu davomida mavzuning savollari bo'yicha nazorat ishi va testlar (oraliq nazorat ballari) | Ma'ruza mashg'ulotlaridan olingan bilimlarni mustahkamlaydi va amaliyotda qo'llash uchun o'zlarini bilimlarini sinab ko'radi | 28 ball |
| Mavzu oxirida | Test topshirish yoki og'zaki baholash | 24 ball |
| | Jami: | 100 ball |

86 % - 100% → «A'lo»
71 % - 85% → «Yaxshi»
55 % - 70% → «Qoniqarli»
0% - 54% → «Qoniqarsiz»

2 – ilova (1.3.)

## 1. BBB jadvalini to'ldirish qoidasi.

BO'B (ZXU) jadvali- bilaman/ bilishni xohlayman/bildim.

- Mavzu bo'yicha ilmiy tekshirish ishlarini bajarishni ta'minlaydi. Sistemali fikrlash tahlil asoslari va strukturlashni rivojlantiradi.
- Yangi mavzuni o'rganishdan oldin qo'llaniladi: birinchi va ikkinchi ustunlar to'ldiriladi va so'ngra yakunlovchi qismida uchinchi ustun to'ldiriladi.

BO'B (ZXU) jadvalini to'ldirish qoidalari bilan tanishadi. Yakka holda yoki juftlikda jadvalni to'ldiradi

"Shu mavzu bo'yicha siz nimalarni bilasiz?", "Nimalarni bilmoqchisiz?" savollariga javob beradi.

Jadvalning birinchi va ikkinchi ustunni to'ldiradi (yakka holda yoki juftlikda)

Mustaqil ravishda ma'ruza matnini o'qiydi (yoki eshitadi)

Uchinchi ustunni to'ldiradi.

3-ilova (1.4)

**Mavzuni jonlantirish savollari.**

1. Siz bugun qanday xildagi shartnomalarni tuzishingizga to'g'ri keldi? Amalga oshirilgan bitimlardan birini shu nuqtai nazardan tavsiflang.
2. «Lavz puldan ham qimmat» degan mashhur maqolni institusional nuqtai nazardan talqin eting. Unda qanaqa shartnoma ideali o'z aksini topgan?
3.Bugungi kunda Siz qanday eng o'ziga xos aktivga egasiz? Javobingizni asoslang.
4.Institut va tashkilot kategoriyalaridan foydalangan holda institusional yondashuv asosida siyosiy partiya bilan ijtimoiy-siyosiy harakat o'rtasidagi farqni izohlang.
5.Yollash to'g'risidagi shartnomaning institusional va marksistik talqinini taqqoslang.

4 - ilova (2.2.)

## 1§. Shartnoma tushunchasi

Shaxslar o'zaro hamkorligining umumiy doiralari institutlar tomonidan belgilanadi. Bitimlarni tuzish shartlarining muayyan doiralari esa o'zaro hamkorlikning turli ishtirokchilari o'rtasida qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 9-bobi (101-112-moddalar) bitimlarga bag'ishlangan. Agar mulkchilik huquqlari nazariyasining atamalaridan foydalansak, mulkchilik huquqlari bilan almashish va ularni himoyalash to'g'risidagi har qanday kelishuvni shartnoma, deb atash mumkin. Shartnomani tuzishda shaxslar rasmiy va norasmiy me'yorlarni muayyan bitim ehtiyojlari uchun qo'llagan holda, ulardan foydalanishadi. Boshqacha aytganda, shartnoma belgalangan institusional doiralarda amalga oshiriladigan almashuv maqsadlari va shartlarining shaxslar tomonidan ongli ravishda va erkin tanlanishini aks ettiradi.

**Shartnoma** – belgalangan institusional doiralarda shaxslarning ongli ravishda va erkin tanlashi natijasi hisoblangan mulkchilik huquqlari bilan almashish va ularni himoyalash to'g'risidagi kelishuv.

## 2§. Sotish to'g'risidagi shartnoma va yollash to'g'risidagi shartnoma

**Yollash to'g'risidagi shartnoma** – xatarga betaraf bo'lgan shaxs va xatarga qarshi shaxs o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida *amalga oshirilishi mumkin bo'lgan* vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv. Bunda xatarga qarshi shaxs xatarga betaraf bo'lgan shaxsga o'z harakatlari ustidan nazorat qilish uquqini topshiradi.

**Sotish to'g'risidagi shartnoma** – bir xil darajada xatarga betaraf bo'lgan shaxslar o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida *amalga oshiriladigan* vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv.

## 3§. Shartnomalarning xillari

Shartnomaning uchta bazaviy xili ma’lum – *klassik*, *implisit* va *neoklassik*.

**Klassik shartnoma**, unda o’zaro hamkorlikning barcha shartlari aniq va to’la-to’kis belgilangan, sotish to’g’risidagi shartnomadan hosil bo’lgan shartnoma.

**Implisit** (bundan «implisit», ya’ni oxirigacha kelishilmagan shartnoma atamasi kelib chiqqan) shartnoma esa, aksincha, o’zaro hamkorlikning aniq belgilanishini istisno etadi, shartnoma tomonlari shartnomaning amalga oshirilishi jarayonida ularning tafsirlanishini nazarda tutadi. Bunday shartnoma yollash to’g’risidagi shartnomadan hosil qilingan.

**Neoklassik** yoki *gibrid, «munosabatli»* shartnoma o’zida ham yollash to’g’risidagi shartnomaning, ham sotish to’g’risidagi shartnomaning unsurlarini birlashtiradi va tomonlarga kutilmagan holatlar sodir bo’lganida uning harflariga amal qilmaslik imkonini beradi.

## 4§. Tashkilot tushunchasi.

**Ташкилот** - ҳукмронлик муносабатлари, яъни иштирокчиларининг айримлари - «агентлар» томонидан ўз ҳаракатлари устидан назорат қилиш ҳуқуқининг унинг бошқа иштирокчиси - «принципал»га топширилиши асосида қурилган мувофиқлаштириш бирлиги.

Tashkilotni muvofiqlashtirish birligi sifatida ta'riflash ushbu tushuncha va insonlarning o'zaro hamkorligini belgilab beruvchi «institut» tushunchasini aniq chegaralashni talab qiladi. Ularni quyidagi jadval yordamida taqqoslaymiz:

| **Institut** | **Tashkilot** |
|---|---|
| *Makro*institusional toifa | *Mikro*institusional toifa |
| O'zaro hamkorlikning *umumiy* doiralarini belgilaydi | O'zaro hamkorlik(lar)ning *muayyan* doiralarini belgilaydi |
| *Sof ijtimoiy ne'mat* tavsifiga ega | *Klub ne'mati* tavsifiga ega |
| *Depersonifikasiyalashgan* va *nolokal* transaksiyalarni tartibga soladi | Aniq chegaralangan, demak, *personifikasiyalangan* va *lokal* transaksiyalarni tartibga soladi |
| Shaxslar institutlarning o'zgarish jarayoniga ta'sir ko'rsata olishmaydi | Tashkilot shaxslarning ongli ravishdagi tanlovi natijasi sanaladi |
| Hukmronlik munosabatlarining elementi *mavjud emas* | Hukmronlik munosabatlari tashkilot *faoliyat ko'rsatishining asosida* yotadi |
| Transaksiya xarajatlarining tarkibini va miqdorini belgilaydi | Institusional doiralar tomonidan belgilangan transaksiya xarajatlarining tejalishiga ko'maklashadi |

**Xulosa**

Demak, shartnoma muayyan bitimlarni amalga oshirishning institusional doiralarini o'zida namoyon etadi. Har qanday institut singari, shartnoma nafaqat o'zaro hamkorlikni chegaralaydi, balki uning uchun zamin yaratadi, bu hol ayniqsa bitimlarni tuzish va amalga oshirish lahzalarining vaqt bo'yicha mos kelmasligida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday turdagi bitimlar ular ishtirokchilarining maqsadlariga bog'liq bo'lmagan holatlarning paydo bo'lishi xatari bilan bog'liq. Insonlar xatarni qabul qilish darajasi bo'yicha farq qiladi, bu esa ikki turdagi shartnomalarning – xatarga betaraf bo'lgan sheriklar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi sotish to'g'risidagi shartnoma hamda xatarga betaraf bo'lgan va xatarga qarshi insonlarga o'zaro hamkorlik qilish imkonini beruvchi yollash to'g'risidagi shartnomaning mavjud bo'lishini izohlaydi.

Tashkilot miniatyuradagi buyruqbozlik iqtisodiyotini o'zida namoyon etadi. Tashkilot ichki o'sishining cheklanishlari aynan shu bilan bog'liq: tashkilot ko'lamlarining kengayishi monitoring va opportunizmni oldini olish xarajatlarining oshishiga olib keladi. Institut (bozor) bilan tashkilot (firma) o'rtasidagi eng aniq chegara quyidagi ko'rsatkichlar darajasini baholash yordamida aniqlanadi: aktivlarning o'ziga xosligi, noaniqlik, bitim tomonlarining xatarga moyilligi, bitimning murakkabligi, shuningdek qonundan foydalanish narxi bilan xufyonalik narxining o'zaro nisbati.

**O’z-o’zini nazorat qilish savollari.**

1. Siz bugun qanday xildagi shartnomalarni tuzishingizga to’g’ri keldi? Amalga oshirilgan bitimlardan birini shu nuqtai nazardan tavsiflang.

2. «Lavz puldan ham qimmat» degan mashhur maqolni institusional nuqtai nazardan talqin eting. Unda qanaqa shartnoma ideali o’z aksini topgan?

3. Bugungi kunda Siz qanday eng o’ziga xos aktivga egasiz? Javobingizni asoslang.

4. Institut va tashkilot kategoriyalaridan foydalangan holda institusional yondashuv asosida siyosiy partiya bilan ijtimoiy-siyosiy harakat o’rtasidagi farqni izohlang.

5. Yollash to’g’risidagi shartnomaning institusional va marksistik talqinini taqqoslang. (Eslatib o’tamiz, marksistik nazariyaga ko’ra yollash to’g’risidagi kapitalistik shartnomaning asosida tovarning qiymati va iste’mol qiymati spesifikasi «ishchi kuchi» yotadi.)

6. Nima uchun implisit shartnomani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal etish uchun uchinchi tomonni jalb etishga zarurat yo’q? Boshqacha aytganda, boshqa turdagi shartnomalar bilan solishtirilganda implisit shartnomaning o’ziga-o’zi yetarliligining sababi nimada (self-enforcing)?

7. Firmaning tabiatini tushuntirishga nisbatan institusional yondashuv va Frenk Nayt bilan namoyon etilgan Avstriya maktabining yondashuvini qanchalik taqqoslash mumkin? (F.Naytning asosiy tezisi kapitalist o’z zimmasiga oladigan xatar uchun o’ziga xos mukofot sifatida uning daromadlarini aniqlashdan iborat edi.)

**Mavzuga oid adabiyotlar ro’yxati:**


12. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent, 2009.
13. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: //O’zbekiston ovozi gazetasi, 2010 yil 13-noyabr soni.
14. Karimov I.A. Navoiy viloyat xalq deputatlari kengashining navbatdan tashqari sessiyasi materiallari. //Xalq so’zi. 2008 yil 13 dekabr.
15. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual kodeksi. T.: «Adolat», 1997, 2008 yangi nashr.
16. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: «Adolat», 2008.
17. O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T.: «Adolat», 1996.
18. O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi. T., «Adolat», 2008.
19. Sh.Sh.Shorahmetov.O’zbekiston Respublikasining fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. Toshkent.: Adolat. 2001. 512-bet.
20. M.Mamasiddiqov. Fuqarolik prosessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. TDYuI nashri. 2010. 534-bet.

21.Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
22. Nort D. Institutы, institusionalnыye izmeneniya i ekonomicheskaya effektivnost – M., 2002.
23. Semyuels U. Institusionalnaya ekonomicheskaya teoriya // Panorama ekonomicheskoy mыsli XX stoletiya. Pod red. D. Grinueya, M. Blini, I. Styuarta. – SPb: Ekonomicheskaya shkola, 2006.

## AMALIY MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 8-мavzuv | SHARTNOMALAR NAZARIYASI |
|---|---|

### 8.1. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

| *Mashg'ulot vaqti*-2 soat | **Talabalar soni: 20 – 30 gacha** |
|---|---|
| *Mashg'ulot shakli* | **Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar** |
| *Amaliy mashg'ulot rejasi* | 1. Shartnoma tushunchasi<br>2. Sotish to'g'risidagi shartnoma va yollash to'g'risidagi shartnoma<br>3. Shartnomalarning xillari<br>4. Tashkilot tushunchasi |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi:* talabalarga institutsional kelishuv turlari, shartnoma tushunchasi, sotish to'g'risidagi shartnoma va yollash to'g'risidagi shartnoma, shartnomalarning xillari xamda tashkilot tushunchasi tugrisida tushunchalar beriladi. | |
| *Pedagogik vazifalar*:<br>1.Institutsional kelishuvlarni tadqiqot qilishni kontrakt shaklini tushuntirish;<br>2.institutsional kelishuvlarning o'zaro aloqalari tushuntirish;<br>3. Bozor institutsional kelishuvini tushuntirish;<br>4. Firma institutsional kelishuvi turi ekanligini tushuntirish. | *O'quv faoliyati natijalari:*<br>1. Institutsional kelishuvlarni tadqiqot qilishni kontrakt shaklini izoxlaydi;<br>2. institutsional kelishuvlarning o'zaro aloqalari to'g'risida ma'lumotlar beradi;<br>3. Bozor institutsional kelishuvini tushuntiradi;<br>4. Firma institutsional kelishuvi turi to'g'risida ma'lumotlar keltiradi; |
| **Ta'lim metodlari** | Amaliyot, tezkor so'rov, nima uchun texnikasi |

| | |
|---|---|
| **Ta'lim vositalari** | Ma'ruza matni, format qog'ozlari, markerlar, skotch, o'quv tarqatrma materiallari |
| **Ta'lim shakllari** | Jamoaviy, juftliklarda va guruhlarda ishlash. |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Nazorat savollari, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash. |

**"Shartnomalar nazariyasi"** mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| **Faoliyat bosqichlari** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | ***Ta'lim beruvchi*** | ***Ta'lim oluvchilar*** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish muammoli vazifalarni ishlab chiqadi. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. | |
| 1. **Kirish bosqichi** *(5 daqiqa)* | 1.1.Mavzuning nomi, maksadi, ukitish natijalarini, mavzuning rejasini eslatadi.<br>1.2.Guruhlar ishini baxolash mezonlarini e'lon qiladi *(1-ilova).* | Tinglaydilar. |
| **2. Asosiy bosqich** *(50 daqiqa)* | 2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida tezkor-so'rov texnikasini qo'llab, quyidagi savollarni beradi:<br>- Aylanma mablag'lar deganda nimani tushunasiz?<br>- Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari deganda nimani tushunasiz?<br>- Aylanma mablag'lar aylanishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?<br>-Aylanma mablag'lar zaxirasi deganda nimani tushunasiz?<br>Berilgan javoblarni tahlil qiladi, | Savolga javob beradilar.<br>Guruhlarga bo'linadi.<br>Yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muxokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlab, format |

| | | |
|---|---|---|
| | kamchiliklarini to'ldiradi, xatolarini tuzatadi.<br>2.2. Talabalarni ixtiyoriy ravishda uchta kichik guruhga bo'ladi va hamkorlikda topshiriq bajarishlarini uqtiradi.<br>2.3. Topshiriqlar tarqatadi. «Nima uchun?» texnikasidan foydalanib, topshiriqni avval individual, so'ngra guruhda bajarishi kerakligini aytadi va jadvalni to'ldirish to'ldirish qoidasini tushuntiradi. (2-ilova).<br>Guruhlarda faoliyatni tashkil qiladi, talabalarni kuzatadi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi.<br>2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Yo'naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi. | qog'oziga ko'chiradi.<br><br>Guruh sardori tayyor ishni olib chikib doskaga iladi va takdim qiladi. Tanlagan fikrini asoslaydi. Boshka ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi. |
| **3. Yakuniy bosqich**<br>*(15 daqiqa)* | 3.1.Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi, yakun yasaydi.<br>3.2.Guruhlar ishini baholaydi, faol ishtirokchilarni alohida qayd qiladi va baholarni e'lon qiladi.<br>3.3. Mustakil ishlashlari uchun nazorat va test savollariga tayyorgarlik ko'rib kelish vazifasini beradi *(3,4,-ilovalar).*<br>*3.4.* Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) nazorat savollariga og'zaki javob berish; (2) Savollar asosida BBB jadvalini to'ldirib kelish. (5-ilova) | Eshitadi.<br><br><br><br>Vazifani yozib oladilar. |

## MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| 9-mavzu | DAVLAT TO’G’RISIDA YANGI INSTITUTSIONAL NAZARIYA |
|---|---|

(ma’ruza – 2 soat, amaliy -2 soat)

### 9.1. Ma’ruzani olib borish modeli

| | |
|---|---|
| *Mashg’ulot shakli* | Muammoli<br>Talabalar soni – 40-50 ta |
| *Maruza rejasi* | 12.1. Davlatning funksiyalari<br>12.2. Davlat xususiyatini baholashning empirik usullari<br>12.3.Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari»<br>12.4. Davlat «chegarasi» |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi*. Talabalarga Davlat to’g’risida yangi inistitutsional nazariyaning mazmuni va mohiyati.Davlat moddiy va ijtimoiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi agent sifatida.To’satdan vujudga kelgan iqtisodiy tartib va ideal davlat tipi.Davlatni faoliyatini iqtisodiy tahlili yetkaziladi. | |
| *Pedagogik vazifalar:* | *o’quv faoliyati natijalari:* |
| 1 Davlat to’g’risida yangi inistitutsional nazariyaning mazmuni va mohiyati tushuntirish;<br>2. Davlat moddiy va ijtimoiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi agent sifatida tanishtirish;<br>3. To’satdan vujudga kelgan iqtisodiy tartib va ideal davlat tipi to’g’risida ma’lumotlar berish;<br>4. Davlat faoliyatini iqtisodiy tahlilini Tushuntirish; | 1 Davlat to’g’risida yangi inistitutsional nazariyaning mazmuni va mohiyati tushuntirish;<br>2. Davlat moddiy va ijtimoiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi agent sifatida tanishtirish;<br>3. To’satdan vujudga kelgan iqtisodiy tartib va ideal davlat tipi to’g’risida ma’lumotlar berish;<br>4. Davlat faoliyatini iqtisodiy tahlilini tushuntirish; |
| O’qitish vositalari | ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska |
| O’qitish usullari texnikasi | ma’ruza, aqliy xujum texnikasi Zig-zag , xabarlashib o’rganish usuli, Insert texnikasi |
| O’qitish shakllari | frontal, kollektiv ish |
| O’qitish sharoiti | kompyuter, multimediya proyektor |
| Monitoring va baholash | Test, og’zaki savollar, blis-so’rov |

**“Davlat to’g’risida yangi institutsional nazariya” mavzusining texnologik xaritasi**

| Ish bosqich-lari | O’qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich.<br><br>Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi savollarni va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.BBB jadvalini to’ldirish qoidasi usulida mavzu bo’yicha ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollashtiradi. BBB jadvalini to’ldirish qoidasi usuli natijasiga ko’ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxisini amalga oshiradi. (1-ilova). | Tinglaydilar.<br><br>Savollarga javob beradilar |
| 2 - bosqich. Asosiy bo’lim<br><br>(50 min) | 2.1. Talabalarning e’tiborini tortish uchun jonlantirish savollarini beradi.(2-ilova).<br>2.2. Ma’ruza rejasining hamma savollarni tushuntiradi Powyer Point da yaratilgan slaydlar yordamida ( 3-ilova).<br>2.3.Har bir savol nihoyasida umumlashtiruvchi xulosa beradi.<br>2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. | Tinglaydilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br><br>UMKga qaraydilar.<br>Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi<br><br>(10 min) | 3.1.Mashg’ulot bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo’yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi.<br>3.2. Mavzu bo’yicha mustaqil o’rganish uchun savollar beradi. (4-ilova).<br>3.3. Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi. | Savollar beradilar<br>UMKga qaraydilar<br><br>Mustaqil o’rganish uchun savollarni yozib oladilar.<br><br>UMKga qaraydilar. |

(1-ilova). (3.1)

## 1. BBB jadvalini to’ldirish qoidasi.

BO’B (ZXU) jadvali- bilaman/ bilishni xohlayman/bildim.

- Mavzu bo’yicha ilmiy tekshirish ishlarini bajarishni ta’minlaydi. Sistemali fikrlash tahlil asoslari va strukturlashni rivojlantiradi.
- Yangi mavzuni o’rganishdan oldin qo’llaniladi: birinchi va ikkinchi ustunlar to’ldiriladi va so’ngra yakunlovchi qismida uchinchi ustun to’ldiriladi.

BO’B (ZXU) jadvalini to’ldirish qoidalari bilan tanishadi. Yakka holda yoki juftlikda jadvalni to’ldiradi

“Shu mavzu bo’yicha siz nimalarni bilasiz?”, “Nimalarni bilmoqchisiz?” savollariga javob beradi.

Jadvalning birinchi va ikkinchi ustunni to’ldiradi (yakka holda yoki juftlikda)

Mustaqil ravishda ma’ruza matnini o’qiydi (yoki eshitadi)

Uchinchi ustunni to’ldiradi.

1- ilova (3.1)

## Mavzuni jonlantirish savollari.

1. Davlatning funksiyalari nimalardan iborat.?
2. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish xakida ayting?
3. Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari»?
4. Davlat «chegarasi»?
5. Davlat va «prinsipal-agent» muammosi?
6. «Shartnomaviy» davlat?
7. «Ekspluatatorlik» davlati?
8. Davlat xususiyatini baholashning empirik usullarini ayting?

3-ilova (3.1.)

## 1-§. Davlatning funksiyalari

Davlatning funksiyalari quyidagilar kiradi:

- *mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish:* transaksiya xarajatlari nolga teng bo'lmagan taqdirda mulkchilik huquqlarining taqsimlanishi resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi;
- *axborot bilan almashish tarmoqlarini barpo etish:* muvozanatli narx bozor ishtirokchilariga past xarajatli va kam buzib ko'rsatilgan axborot bilan almashish imkonini beruvchi rivojlangan axborot infratuzilmasi bazasida shakllanadi;
- *o'lchash va tortish standartlarini ishlab chiqish:* davlatning ushbu yo'nalishdagi faoliyati almashinadigan tovarlar va xizmatlar sifatini o'lchash xarajatlarini pasaytirish imkonini beradi, yanada keng ma'noda esa universal chora-tadbirlar jumlasiga davlat tomonidan pul muomalasining tashkil etilishi ham kiradi, chunki almashuvning universal tadbiri – pulning eng muhim funksiyalaridan biri;
- *tovarlar va xizmatlar bilan jismoniy almashish tarmoqlari va mexanizmlarini barpo etish:* bozor infratuzilmasi nafaqat axborot bilan almashish tarmoqlarini, balki tovarlar va xizmatlarning jismoniy harakatlanishi tarmoqlari (transport tarmoqlari, savdolar uchun uyushgan maydonchalar va h.k.)ni ham o'z ichiga oladi;
- *huquqni muhofaza qilish faoliyati va nizolarda «uchinchi» tomon rolini bajarish:* shartnomalarni bajarishda kutilmagan holatlarning paydo bo'lishi sharnoma tomonlarining ulardan opportunistik maqsadlarda foydalanishidan kafolatlash uchun «uchinchi» tomon (sud)ning aralashuvini talab qiladi;
- *sof ijtimoiy farovonlikni yaratish* «chiptasiz» muammosini keltirib chiqaradi, bu uni moliyalash uchun davlat tomonidan majburlov choralaridan foydalanishni talab qiladi (birinchi navbatda mudofaa, keyin sog'liqni saqlash va ta'lim singari ijtimoiy farovonlikni yaratish).

## 2-§. Davlat xususiyatini baholashning empirik usullari.

Davlatni u yoki bu xilga kiritishning birinchi mezoni – bu daromadlar turli moddalarining nisbati. Soliqdan tashqari tushumlarning ulushi qanchalik yuqori bo’lsa, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi shunchalik faol bo’ladi – bunday holatda uning roli shartnomalar bajarilishining oddiy kafili doirasidan tashqariga chiqadi.

Ikkinch mezon – davlat xarajatlarining tarkibi va birinchi navbatda real moliyalangan hamda davlat byudjeti to’g’risidagi qonunda qayd etilgan xarajatlar nisbati. Ekspluatatorlik davlatida uning majbur qilish salohiyatini saqlab qolish va kuchaytirish bilan bog’liq xarajatlar («kuch ishlatuvchi» vazirliklarni saqlab turish xarajatlari) hamda bevosita davlat apparatini saqlab turish uchun yo’naltirilgan xarajatlarni moliyalashning ustuvorligi o’rin tutadi. Mudofaa, huquqni muhofaza qilish faoliyati va davlat apparati xarajatlarni katta tayyorgarlik bilan amalga oshiradi.

Uchinchi mezon – byudjet taqchilligini moliyalash usullari. Byudjet taqchilligini qoplashning uchta asosiy usuli – markaziy bankning hukumatga kreditlari, tashqi va ichki qazlardan ekspluatatorlik davlati birinchisini afzal ko’radi. Bundan tashqari, markaziy bankning kreditlaridan foydalanish davlatga musodara xususiyatiga ega bo’lgan «inflyasiya solig’i» (senoraja) orqali daromad olish imkonini beradi. Aksincha, shartnomaviy davlat byudjet taqchilligini moliyalashning eng kam inflyasiya usuli – tashqi bozordagi qarzlarni afzal ko’radi. Ichki bozordagi qarzlar uzoq muddatli davrda inflyasiya xavfini tug’diradi va jamiyat umumiy farovonligining o’sishiga to’sqinlik qiladi, chunki moliyaviy resurslar real sektordan davlat qarz majburiyatlari bozoriga oqib ketadi.

## 3-§. Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari».

Bozorning «muvaffaqiyatsizliklari» bilan bir qatorda davlatning «muvaffaqiyatsizliklari»ni ham e’tiborga olish lozim. Xususan, davlatning quyidagi «muvaffaqiyatsizliklari» ajratiladi:

- *daromadlar va xarajatlarning mos kelmasligi:* oddiy firmadan farqli o’laroq, davlatning qat’iy byudjet cheklovi darajasi mutlaq darajadan ancha yiroq, davlat, hatto agar o’z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga qodir bo’lmagan taqdirda ham, uni bankrotga aylantirish ancha mushkul;
- *davlat faoliyati samaradorligining aniq mezonlari mavjud emasligi:* firma uchun foyda singari samaradorlikning aniq mezonlari mavjud emasligi tufayli davlat tuzilmalari ularni mustaqil ishlab chiqilgan standartlar bilan almashtiradi va ushbu holatda davlatning faoliyati ularning o’zlari tomonidan beriladigan mezonlar (byudjet tushumlarining o’sishi, davlat nazoratining ekspansiyasi va h.k.) bo’yicha baholanadi;
- *oldinga qo’yilgan natijalardan farq qiluvchi natijalarga erishish ehtimoli:* axborot xarajatlari hamda monitoring va nazorat xarajatlarining o’sishi amalga oshirilgan vazifalarning oldinga qo’yilgan vazifalardan muntazam farq qilishi uchun zamin yaratadi (yuqorida keltirilgan, unda davlatning kuch ishlatishdan xususiy foydalanishni cheklashga urinishi uning eskalasiyasiga olib kelishi mumkin bo’lgan model bunga yaqqol misol bo’ladi);
- *resurslarning noteng taqsimlanishi:* transaksiya xarajatlari noldan farq qilganda resurslarga bo’lgan mulkchilik huquqlarini taqsimlashda davlat uchun adolatlilikning bir necha standartlari mavjud; Pareto bo’yicha optimum bilan bir qatorda quyidagilar ana shunday standartlar hisoblanadi: Kaldora qoidasi (agar resurslarni taqsimlash natijasidan yutayotgan tomon yutqazayotgan tomonga yo’qotishlarni qoplashga qodir bo’lsa, resurslarni taqsimlashga o’zgartirish kiritishga yo’l qo’yiladi), Rolz qoidasi (eng kam ta’minlanganlarning ahvolini yaxshilovchi - resurslarning adolatli taqsimlanishi) va ko’plab boshqa standartlar.

## 4-§. Davlat «chegarasi»

Firmaning bozorga nisbatan ekspansiyasi chegaralari kabi davlatning ham o'sish chegaralari mavjud. Agar shartnomalar bajarilishining kafili funksiyalarini bajarish uchun to'liq davlat monopoliyasi qonunga bo'ysunishning yuqori xarajatlari shaklini qabul qiluvchi yuqori transaksiya xarajatlariga olib kelsa, u holda davlat barcha o'zaro munosabatlarda emas, balki faqat uning ayrimlarida kafil sifatida ishtirok etadi, deb taxmin qilish o'rinli. Boshqa bitimlarda ular amalga oshirilishini kafolatlashning muqobil mexanizmlari amal qiladi. Davlat kafolatlanadigan bitimlar doirasi nima bilan belgilanadi?

Ushbu doira ularning davlat tomonidan kafolatlanishi shartnoma tomonlarining muqobil kafillarga murojaat etishida yuzaga keladigan xarajatlarga qaraganda kam xarajatli bitimlar bilan chegaralanadi. Shu boisdan uchun firma uchun ifodalangan «o'zi qilish yoki bozorda xarid qilish» degan savol davlat uchun quyidagicha ifodalanadi: «o'zi kafolatlash yoki nazorat qilish huquqini boshqa kafillarga o'tkazish». Masalan, ayrim mamlakatlarda ijtimoiy va tibbiy sug'urta bilan bog'liq barcha bitimlar davlat tomonidan kafolatlanadi, ayni paytda boshqa mamlakatlarda ijtimoiy va tibbiy sug'urta xususiy firmalarga topshiriladi. Ta'lim haqida ham shunday deyish mumkin. Bu hol bitimlarni kafolatlashning muqobil mexanizmlarini taqqoslashda ular tomonidan muayyan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarining o'zaro nisbatini e'tiborga olish lozim. Demak, davlatning mutlaq chegarasi *mavjud emas*, shuningdek muayyan tarixiy haqqoniylikka nisbatan olinmasa, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga davlat aralashuvining optimal o'lchamlari ham *mavjud emas*.

Ushbu xulosa Duglas Nort tomonidan keltirilgan tarixiy istiqbolda davlat rolining tahlili bilan tasdiqlanadi. O'zining eng mashhur «Iqtisodiy tarix tarkibi va undagi o'zgarishlar» kitobida u ikkita iqtisodiy inqilob haqida aytib o'tgan. Nort bo'yicha birinchi iqtisodiy inqilob dehqonchilik resurs bazasini oshirishning asosiy manbasi bo'lgan insoniyatning ko'chmanchi hayotdan o'troq hayot kechirishga o'tishida yuz berdi. Aynan shu vaqtda yerga nisbatan mulkchilik huquqlarini kafolatlash mexanizmi sifatida davlat qurilishining dastlabki shakllari paydo bo'ldi. «Mutlaq mulkchilik huquqlari [yerga nisbatan] mulkdor uchun [undan foydalanish] samaradorligi va unumdorligini oshirishga to'g'ridan-to'g'ri rag'batlarni ta'minlaydi.

## O’z o’zini nazorat qilish savollari

1. Sho’rolar davrida davlat byudjetini to’ldirishning muhim manbasi bo’lib yakuniy talab tovarlarining katta qismiga va keyin ishlov beriladigan ayrim yarim tayyor mahsulotlarga solinadigan aylanmadan soliq hisoblanardi. Sotish qiymati hamda sarflangan xomashyo va materiallar qiymati o’rtasidagi farqdan to’lanadigan QQSning selektiv xususiyatga ega bo’lgan va asosan yakuniy iste’molga mo’ljallangan aylanmadan soliqqa nisbatan afzalliklarini ko’rib chiqing.
2. 1989 yilgi AQSh federal byudjetining daromadlar qismini tahlil qilish asosida qanday xulosalarni chiqarish mumkin?
3.

| **Byudjet daromadlari (YaIMga nisbatan %da)** | |
|---|---|
| Aholidan soliqlar (daromad solig’i) | 8,4 |
| Foydadan soliq (korporasiyalardan) | 2,0 |
| Ijtimoiy to’lovlar (ijtimoiy sug’urta to’lovlari) | 7,1 |
| Boshqalar (aksizlar, sotishdan soliqg’lar, mol-mulk solig’i) | 1,7 |
| Jami daromadlar | 19,2 |

4. Fuqarolar ichki terrorizm tahdidi yuz tutib turganda hal etishlari majbur bo’lgan muammoviy holatlarga institusional izoh bering: xavfsizlik uchun *xususiy* xarajatlarni oshirish yoki huquqni muhofaza qilish faoliyatiga yo’naltiriladigan *davlat* mablag’laridan samarali foydalanish kafolatlarini yaratish.
5. Yanosh Kornaining quyidagi fikrini qanday tushunasiz: «Soliq tizimi mumkin qadar betaraf bo’lishi kerak. Asoslangan istisnolardan tashqari, davlat fuqarolarni soliqlar tizimi orqali rag’batlantirishi yoki jazolashi mumkin emas»?

## Mavzuga oid adabiyotlar ro’yxati

1. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqrozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari ” O’zbekiston:. 2009 y.
2. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi.23.01.09.
3. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G’ofurov, B.K.Tuxliyev. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari» nomli asarini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
4. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
5. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Sharq», 2006.
6. Shodmonov Sh.Sh., G’afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2005.
7. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O’rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002.

## AMALIY MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 9-мавzu | DAVLAT TO'G'RISIDA YANGI INSTITUTSIONAL NAZARIYA |
|---|---|

**9.1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli**

| *Mashg'ulot vaqti*-2 soat | **Talabalar soni: 20 – 30 gacha** |
|---|---|
| ***Mashg'ulot shakli*** | **Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar** |
| *Amaliy mashg'ulot rejasi* | 1. Davlatning funksiyalari<br>2. Davlat xususiyatini baholashning empirik usullari<br>3.Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari»<br>4. Davlat «chegarasi» |

*O'quv mashg'ulotining maqsadi*. Talabalarga Davlat to'g'risida yangi inistitutsional nazariyaning mazmuni va mohiyati.Davlat moddiy va ijtimoiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi agent sifatida.To'satdan vujudga kelgan iqtisodiy tartib va ideal davlat tipi. Davlat faoliyatini iqtisodiy tahlili yetkaziladi.

| *Pedagogik vazifalar*: | *O'quv faoliyati natijalari:* |
|---|---|
| 1 Davlat to'g'risida yangi inistitutsional nazariyaning mazmuni va mohiyati tushuntirish;<br>2. Davlat moddiy va ijtimoiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi agent sifatida tanishtirish;<br>3. To'satdan vujudga kelgan iqtisodiy tartib va ideal davlat tipi to'g'risida ma'lumotlar berish;<br>4. Davlat faoliyatini iqtisodiy tahlilini tushuntirish; | 1 Davlat to'g'risida yangi inistitutsional nazariyaning mazmuni va mohiyati tushuntirish;<br>2. Davlat moddiy va ijtimoiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi agent sifatida tanishtirish;<br>3. To'satdan vujudga kelgan iqtisodiy tartib va ideal davlat tipi to'g'risida ma'lumotlar berish;<br>4. Davlat faoliyatini iqtisodiy tahlilini tushuntirish; |
| **Ta'lim metodlari** | Amaliyot, tezkor so'rov, nima uchun texnikasi |
| **Ta'lim vositalari** | Ma'ruza matni, markerlar, o'quv tarqatrma materiallari |
| **Ta'lim shakllari** | Jamoaviy, juftliklarda va guruhlarda ishlash. |
| **O'qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Nazorat savollari, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash. |

**9.1. "Davlat to'g'risida yangi institutsional nazariya"**

mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

| **Faoliyat bosqichlari** | **Faoliyatning mazmuni** | |
|---|---|---|
| | ***Ta'lim beruvchi*** | ***Ta'lim oluvchilar*** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv bilish muammoli vazifalarni ishlab chiqadi. Samarali ichki guruhlar ishini ta'minlovchi guruhlar uchun yozma yo'riqnomalarni tayyorlaydi.<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. | |
| 1. **Kirish bosqichi** *(5 daqiqa)* | 1.1.Mavzuning nomi, maksadi, ukitish natijalarini, mavzuning rejasini eslatadi.<br>1.2.Guruhlar ishini baxolash mezonlarini e'lon qiladi *(1-ilova).* | Tinglaydilar. |
| **2. Asosiy bosqich** *(50 daqiqa*) | 2.1.Talabalarni faollashtirish maksadida tezkor-so'rov usulini qo'llaydi:<br>1. Davlat to'g'risida yangi institutsional nazariyani ayting?<br>2. Davlat faoliyatini iqtisodiy tahlilini tushuntirish?<br>2.2.Talabalarni 5 ta kichik guruhlarga bo'ladi. Guruhlarga ekspert vazifalarini tarqatadi va ularning mohiyati bilan tanishtiradi. Ekspert topshiriqlarini "FSMU" texnikasi asosida bajarishlarini tushuntiradi. *(2,3-ilovalar).*<br>Avval yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muxokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlab, format qog'oziga ko'chirishni taklif qiladi.<br>Talabalar faoliyatini nazorat qiladi, yo'naltiradi, maslahat beradi. Baholash mezonlarini eslatadi. Taqdimot boshlanishini ma'lum qiladi.<br>2.3.Bajargan ishlarini takdim qilishlarini so'raydi. Takdimot jarayonida talabalar fikrlarini tahlil qiladi, faol ishtiroklarini rag'batlantiradi. | Savolga javob beradilar.<br>Guruhlarga bo'linadi.<br>Yakka tartibda bajargan ishlarini guruhlarda muxokama qilib, yagona to'g'ri fikrni tanlab, format qog'oziga ko'chiradi.<br>Guruh sardori tayyor ishni olib chikib doskaga iladi va takdim qiladi. Tanlagan fikrini asoslaydi. Boshqa ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| **3. Yakuniy bosqich** *(15 daqiqa)* | 3.1.Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi, yakun yasaydi.<br>3.2.Guruhlar ishini baholaydi, faol ishtirokchilarni alohida qayd qiladi va baholarni e'lon qiladi.<br>3.3. Mustakil ishlashlari uchun nazorat va test savollariga tayyorgarlik ko'rib kelish vazifasini beradi *(4- ilova).* | Eshitadi.<br><br>Vazifani yozib oladilar. |

**1-ilova**

***Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari***

| *Topshiriqlar, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari* | *1- guruh* | *2- guruh* | *3- guruh* |
|---|---|---|---|
| Maksimal ball – 2 | | | |
| - savol to'liq yoritib berildi (0,5 ball) | | | |
| - javoblar yetarli darajada asoslab berildi (0,5 ball) | | | |
| - guruh ishtirokchilarining faolligi (0,5 ball) | | | |
| - berilgan savollarga javob berdi (0,3 ball) | | | |
| - reglamentga rioya kildi (0,2) | | | |
| ***Jami: (2 ball)*** | | | |

1,5 – 2 ball - «a'lo»
1,0 – 1,4 ball - «yaxshi»
0,5 – 0,9 ball - «konikarli»
0 - 0,4 ball - «konikarsiz»

**2-ilova**

***Tarqatma materialning taxminiy nusxasi***
***FSMU texnologiyasi***

**(F)** – Fikringizni bayon eting.

**(S)** – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

**(M) –** Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

**(U)** – Fikringizni umumlashtiring.

| |
|---|
| Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. |

**3-ilova**

***Tayanch iboralar***:

Davlatning funksiyalari,Mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish, Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari», Davlat «chegarasi».

**Takrorlash uchun savollar.**

1. Mulkchilik huquqlari tutami tushunchasi.
2. Optimal shartnoma nazariyasi.
3. Shartnomalar turlari: klassik va neoklassik.
4. Tashkilotlar nazariyasi.
5. Institutlar va tashkilotlar.
6. Firmaning tarkibiy tuzilishi.
7. Prinsipal va agent o’zaro munosabatlari muammosi.
8. Xalqaro biznesning tashkilot faoliyatiga ta’siri.
9. Reja va bozor inistitutlari.
10. Iqtisodiyot konistitusiyalarining shakllanishi.
11. Buyruqbozlik iqtisodiyoti me’yorlari.
12. Firmaning ichki tuzilmasi.
13. Firmani rivojlantirish trayektoriyasi.
14. Firmalarning asosiy xillari.
15. Tashkilot menejmentning asosiy obyekti sifatida.
16. Tashkilotda menejment tizimi va uning boshqa tizimlar bilan bog’liqligi.

## MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

| 10-мавzu | UY XO'JALIGI VA UNING XILLARI. |
|---|---|

(ma'ruza – 2 soat, amaliy -2 soat)

### 10.1. Ma'ruzani olib borish modeli

| | |
|---|---|
| *Mashg'ulot shakli* | Muammoli<br>Talabalar soni – 40-50 ta |
| *Maruza rejasi* | 10.1.Uy xo'jaligi tashkilot sifatida<br>10.2. Uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatishida mutaassiblikning roli<br>10.3. Uy xo'jaligining xillari |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi*. Talabalarga uy xo'jaligi ta'rifi, uning o'ziga xos xususiyatlari, faoliyat yuritishi va uning funksiyalari, shuningdek, dehqon xo'jaliklari - uy xo'jaligining tarkibiy qismi ekanligini tushuntirish. | |
| *Pedagogik vazifalar:* | *o'quv faoliyati natijalari:* |
| 1. Uy xo'jaligi ta'rifi, uning o'ziga xos xususiyatlari tushuntiriladi;<br>2. Uy xo'jaligi turlari va uning oila bilan o'zaro bog'liqligi yetkaziladi;<br>3. Uy xo'jaligi turli shakldagi iqtisodiyot davrlarida faoliyat yuritishi va uning funksiyalari tushuntiriladi;<br>4. Dehqon xo'jaliklari - uy xo'jaligining tarkibiy qismi sifatida tanishtiriladi. | 1. Uy xo'jaligi ta'rifi, uning o'ziga xos xususiyatlarining mazmuni va mohiyatini tushunadi;<br>2. Uy xo'jaligi turlari va uning oila bilan o'zaro bog'liqligini tushunadi;<br>3. Uy xo'jaligi turli shakldagi iqtisodiyot davrlarida faoliyat yuritishi va uning funksiyalari to'g'risida ma'lumotlar oladi;<br>4. Dehqon xo'jaliklari - uy xo'jaligining tarkibiy qismi ekanligini asoslab beradilar; |
| O'qitish vositalari | ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska |
| O'qitish usullari texnikasi | ma'ruza, aqliy xujum texnikasi Zig-zag, xabarlashib o'rganish usuli, Insert texnikasi |
| O'qitish shakllari | frontal, kollektiv ish |
| O'qitish sharoiti | kompyuter, multimediya proyektor |
| Monitoring va baholash | Test, og'zaki savollar, blis-so'rov |

**“Uy xo’jaligi va uning xillari” mavzusining texnologik xaritasi**

| Ish bosqich-lari | O’qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich. Mavzuga kirish (20 min) | 1.1.O’quv mashg’uloti mavzusi savollarni va o’quv faoliyati natijalarini aytadi. 1.2.Aqliy xujum usulida mavzu bo’yicha ma’lum bo’lgan tushunchalarni faollashtiradi. Xabarlashib o’rganish usuli natijasiga ko’ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxizini amalga oshiradi. (1-ilova). | Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar. |
| 2 - bosqich. Asosiy bo’lim (50 min) | 2.1.1 Talabalarning e’tiborini tortish uchun jonlantirish savollarini beradi. (2 - ilova). 2.2. Ma’ruza rejasining hamma savollarni tushuntiradi Pover Point da yaratilgan slaydlar yordamida ( 3-ilova). 2.3.Har bir savol nihoyasida umumlashtiruvchi xulosa beradi. 2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. | Tinglaydilar va javob beradilar. UMKga qaraydilar. UMKga qaraydilar. Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1.Mashg’ulot bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo’yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma’lum qiladi. 3.2. Mavzu bo’yicha mustaqil o’rganish uchun topshiriq beradi 3.3. Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi. 3.4. Insert usulidan foydalanib keyingi mazvuga tayyorlanib kelishga topshiriq beradi. | Savollar beradilar UMKga qaraydilar. Mustaqil o’rganish uchun topshiriqlarni yozib oladilar. UMKga qaraydilar. UMKga qaraydilar. |

1- ilova (2.1.)

## «Aqliy hujum» ning asosiy qoidalari:

-aytilayotgan barcha g'oyalar bir –biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
-kiritilayotgan g'oyalar tanqid qilinmasligi kerak.
-g'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
-so'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.
- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- «xujum»ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

## Xabarlashib o'rganish usuli qoidasi

1. Savollarga o'ylanib javob berishni suraydi.
2. Talabalar 4-5 guruhga ajratiladi.
3. Har bir guruhdan ekspertlarni aniqlashni so'raydi.
4. Ekspertlar bittadan savol bo'yicha guruh a'zolarini tanishtirishi kerak.
5. Ekspertlar varag'ini tarqatadi va guruhda ishlashni tashkil etadi.
6. Ekspertlar prezentasiya qilish kerakligini ma'lum qiladi.
7. Maslahatchi o'rnida sharxlaydi, aniqlik kiritadi.

Prezentasiyani yakunlab, har bir guruhga har bir savol uchun xulosalar qiladi.

2-ilova (2.2.)

**Mavzuni jonlantirish savollari.**

1. Uy xo'jaligi ta'rifini keltiring va uning tashkilot sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iboratligini ayting.
2. Oila bilan uy xo'jaligi o'rtasidagi farq nimada?
3. Uy xo'jaligini yuritish va inson kapitalini shakllantirishda qanday vazifalar (funksiyalar) amalga oshiriladi?
4. Uy xo'jaligining qanaqa shakllari mavjud va ularning bir-biridan farqi nimada?

3- ilova (3.1.)

## 1-§. Uy xo'jaligi tashkilot sifatida

Uy xo'jaligi to'g'risida so'z yuritganda, ikki tushuncha-oila va uy xo'jaligi tushunchalarni chegaralash lozim. Oila deganda, bir uyda yashashi oila-qarindoshchilik aloqalarining umumiyligi bilan birlashgan guruh tushuniladi. Uy xo'jaligi esa umumiy vazifalar, yashash joyi, byudjet va odatda oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhini o'zida namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, oila faoliyati ko'plab o'lchamlarni o'z ichiga oladi: biologik, demografik, ruhiy, ijtimoiy va b. Uy xo'jaligi faoliyati esa oilani faoliyat sohasining birgina-iqtisodiy turiga yo'naltiradi. Uy xo'jaligining asosiy funksiyasini *inson kapitalini* shakllantirish, undan foydalanish va saqlash deb belgilash lozim. Bu o'z navbatida, insonning bilimlari, amaliy ko'nikmalari va mehnatga tirishqoqligining yig'indisi sifatida tushuniladi. 14.1-rasmda inson kapitalini shakllantirish bo'yicha uy xo'jaligi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari izohlangan. Uy xo'jaligini yuritish uning a'zolarining oila biznesida ishtiroki hamda oila kapitalini uni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirish asosiy masala hisoblanadi.

Uy xo'jaligining asosida yotuvchi hokimiyat munosabatlari haqidagi tezis aniqliklar kiritilishini talab qiladi. Bir tomondan, uy xo'jaligining faoliyat ko'rsatishi quyidagilarni nazarda tutadi:

- bolalar harakatlarini nazorat qilish huquqining ota-onalarga topshirilishi, buning o'rniga bola uchun u haqida qayg'urish va uni manfaatlarining ta'minlanishi kafolatlanda;
- oilaviy byudjetning shakllanishi va sarflanishi ustidan nazorat qilish, huquqining uy xo'jaligining odatda "oila boshlig'i" deb nomlanuvchi bir a'zosiga topshirilishi, u barcha oila a'zolarining manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi va ularga o'zlari alohida erisha olishi mumkin bo'lgandan ortiq darajadagi farovonlikni ta'minlaydi.

Umuman uy xo'jaligining maqsadi – o'z a'zolariga kutilmagan holatlar yuzaga kelishidan qat'i nazar kafolatlangan farovonlik darajasini ta'minlashdan iborat. Uy xo'jaligining himoya funksiyasi o'zaro yordam va oila a'zolarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning rasmiy va norasmiy me'yorlariga asoslanadi.

Uy xo'jaligi – bu inson kapitalini ishlab chiqarishning umumiy vazifalari, yashash, byudjet va oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhidir. Uy xo'jaligining asosida hokimiyat munosabatlari yotadi – birgalikdagi iqtisodiy faoliyat ustidan nazorat qilish huquqi uning bir a'zosiga – "oila boshlig'i"ga o'tadi.

## 2- §. Uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatishida mutaassiblikning roli

Firmaning faoliyat ko'rsatishini ko'rib chiqishda biz mutaassiblikning axborot xarajatlari va monitoring hamda opportunistiklikdan ogohlantirish xarajatlarini pasaytirishdagi rolini alohida ko'rsatdik. Firmadan farqli ravishda, uy xo'jaligining faoliyati ko'proq mutaassiblik xususiyatiga ega. Buning sababi umuman transaksiya xarajatlarini tejashda emas, chunki uy xo'jaligi doirasida barcha o'zaro munosabatlar lokallashgan bo'lib, nazorat qilish osondir va ijtimoiy choralarni qo'llash uchun imkoniyatlar mavjud. Mutaassibliklar rolini izohlash yo'llari bir nechta.

Birinchidan, o'z atrofida o'ziga ma'qul keladigan muhitni yaratishga bo'lgan ehtiyoj insonga xos xususiyatdir. Bozorda yoki fuqarolik kelishuvi sohasida harakat qila turib, inson xoh u bozor kon'yunkturasi yoki siyosiy beqarorlik bo'lsin, o'zgaruvchan holatlar bilan bog'liq asablarning taranglashuviga doimiy ravishda duch kelib turadi. Oila va uy xo'jaligini tashkil etish insonga o'zini kundalik hayotining bir qismini mutaassiblik yordamida, ya'ni uzluksizlik va oldindan bilish tamoyillariga muvofiq ravishda tashkil etish imkonini beradi. Odatiy kundalik hayot monandlik, insonning shaxsiy xususiyatlariga moslashgan holda xarakatlarning avtonomiyasi va oldindan aytib berilishini ta'minlovchi mutaassibliklar doirasida kechadi.

Aynan mutaassiblik bilan himoyalangan kenglik doirasida dastlab ishonch me'yori paydo bo'ladi. Entoni Giddens bolada atrofdagi odamlarga bo'lgan ishonchning paydo bo'lishini ota-onalarning hatti-xarakatlari bilan bog'laydi, chunki ular bola unda o'zini juda qulay his qiladigan tashqi muhitdan himoyalangan kenglikni hosil qilgan holda u haqida qayg'urishadi. Ushbu kenglikda bola o'z hatti-harakatlarini to'liq nazorat qila oladi, harakatlari natijasiga tashqi omillar deyarli ta'sir qilmaydi.

Ikkinchidan, atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlikdagi ko'plab "o'yin qoidalari" (kelishuvlar: bozor, industrial, fuqarolik va b.) mavjud sharoitda insonda u o'zi bilan o'zi yolg'iz qolishi mumkin bo'lgan sohani shakllantirishga ehtiyoj tug'iladi. Boshqacha aytganda, insonda "o'zi uchun kundalik hayotning uning boshqa kishilar va tabiat bilan muloqot aloqalari uning shaxsiyatli o'xshashlikka erishishi va uni saqlashga ko'maklashuvchi muhitni yaratish ehtiyoji mavjud". Ushbu talab ikki sohani – shaxsiy va oshkora hayotni chegaralash orqali amalga oshiriladi.

## 4-§. Uy xo’jaligining xillari.

Uy xo’jaligi faoliyat ko’rsatishidagi mutaassibliklar rolinin tahlil qilish uni tarkibining u harakat qiladigan institusional muhitning o’ziga xos xususiyatlari bilan shartlanganligini faraz qilishga yordam beradi. Haqiqatdan ham, uy xo’jaligi insonni tashqi muhitning noaniqligidan, unga yuklatiladigan o’yin me’yorlari va qoidalaridan, kundalik muammolarga ortiqcha e’tibor qaratishdan saqlaydi. Binobarin, institusional muhit xususiyatlari (noaniqlik darajasi, rasmiy va norasmiy me’yorlarning o’zaro nisbati, sodir bo’layotgan o’zgarishlar tezligi) uy xo’jaligining tarkibiga ta’sir ko’rsatadi. Boshqacha aytganda, firma yoki davlatning universal modeli bo’lmagani kabi, uy xo’jaligining ham universal modeli mavjud emas. Shu munosabat bilan uy xo’jaligining uchta ideal xilini yoritishga harakat qilamiz: bozor instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko’rsatuvchi, buyruqbozlik iqtisodiyoti instituti xukmronligi sharoitida faoliyat ko’rsatuvchi va buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida faoliyat ko’rsatuvchi.

**Insert texnikasi bo’yicha mavzuni o’qib chiqing va jadvalni to’ldiring.**

| V | + | - | ? |
|---|---|---|---|
| | | | |

**Insert jadvali**

Insert jadvali qoidasi:

**V-** olgan bilimiga to’g’ri keladi.
**+ -** yangi ma’lumot
**-- -** olgan bilimiga qarama-qarshi
? – tushunarsiz (aniqlanishi zarur bo’lgan ma’lumotlar)

## O’z-o’zini nazorat qilish savollari.

1. Uy xo’jaligi ta’rifini keltiring va uning tashkilot sifatidagi o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iboratligini ayting.
2. Oila bilan uy xo’jaligi o’rtasidagi farq nimada?
3. Uy xo’jaligini yuritish va inson kapitalini shakllantirishda qanday vazifalar (funksiyalar) amalga oshiriladi?
4. Uy xo’jaligining qanaqa shakllari mavjud va ularning bir-biridan farqi nimada?

## Mavzuga oid adabiyotlar ro’yxati:


1. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent, 2009.
2. Karimov I.A. O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: «O’zbekiston», 1995, 23-24- betlar.
3. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T., «Adolat», 2008.
4. O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T., «Adolat», 2008.
5. O’zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.T.: «Adolat». 2008.
6. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
7. Kuvondikov Sh.O. Xizmat sohalarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari.// iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini
olish uchun taqdim etilgan dissertasiya. Samarqand – 2008. 156 b.
8. Nort D. Institutы, institusionalnыye izmeneniya i ekonomicheskaya effektivnost – M., 2002.
9. Semyuels U. Institusionalnaya ekonomicheskaya teoriya // Panorama ekonomicheskoy mыsli XX stoletiya. Pod red. D. Grinueya, M. Blini, I. Styuarta. – SPb: Ekonomicheskaya shkola, 2006.

## AMALIY MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

| | |
|---|---|
| **10-мavzu** | **UY XO’JALIKLARI VA UNING TURLARI** |

**10.1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli**

| | |
|---|---|
| ***Mashg’ulot vaqti*-2 soat** | **Talabalar soni: 20 – 30 gacha** |
| ***Mashg’ulot shakli*** | **Mavzu bo’yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar** |
| *Amaliy mashg’ulot rejasi* | 1.Uy xo’jaligi tashkilot sifatida<br>2. Uy xo’jaligi faoliyat ko’rsatishida mutaassiblikning roli<br>3. Uy xo’jaligining xillari |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi*. Talabalarga uy xo’jaligi ta’rifi, uning o’ziga xos xususiyatlari, faoliyat yuritishi va uning funksiyalari, shuningdek, dehqon xo’jaliklari - uy xo’jaligining tarkibiy qismi ekanligini tushuntirish. | |
| *Pedagogik vazifalar*:<br>1. Uy xo’jaligi ta’rifi, uning o’ziga xos xususiyatlari tushuntiriladi;<br>2. Uy xo’jaligi turlari va uning oila bilan o’zaro bog’liqligi yetkaziladi;<br>3. Uy xo’jaligi turli shakldagi iqtisodiyot davrlarida faoliyat yuritishi va uning funksiyalari tushuntiriladi;<br>4. Dehqon xo’jaliklari - uy xo’jaligining tarkibiy qismi sifatida tanishtiriladi. | *O’quv faoliyati natijalari:*<br>1. Uy xo’jaligi ta’rifi, uning o’ziga xos xususiyatlarining mazmuni va mohiyatini tushunadi;<br>2. Uy xo’jaligi turlari va uning oila bilan o’zaro bog’liqligini tushunadi;<br>3. Uy xo’jaligi turli shakldagi iqtisodiyot davrlarida faoliyat yuritishi va uning funksiyalari to’g’risida ma’lumotlar oladi;<br>4. Dehqon xo’jaliklari - uy xo’jaligining tarkibiy qismi ekanligini asoslab beradilar; |
| **Ta’lim metodlari** | Amaliyot, tezkor so’rov |
| **Ta’lim vositalari** | Ma’ruza matni, markerlar, o’quv tarqatrma materiallari |
| **Ta’lim shakllari** | Jamoaviy, juftliklarda va guruhlarda ishlash. |
| **O’qitish shart-sharoiti** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo’ljallangan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Nazorat savollari, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash. |

**10.1. “Uy xo’jaliklari va uning turlari”** mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulotlarni olib borishning texnologik xaritasi

| Ish bosqich-lari | O’qituvchi faoliyatining mazmuni | Tinglovchi faoliyatining mazmuni |
|---|---|---|
| 1-bosqich (20 min) | 1.1O’quv mashg’uloti savollarni tahlil qiladi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.<br>1.2.Tinglovchilarning mashg’ulotdagi faoliyatini baholash ko’rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova).<br>1.3.Mavzu bo’yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi.(2-ilova).<br>1.4.Savollar berib suhbat tarzida tinglovchilar bilimlari jonlantiriladi | Tinglaydilar.<br>Tinglaydilar.<br>Topshiriqlar bilan tanishadilar<br>Javob beradilar |
| 2 - bosqich Asosiy bo’lim. (50 min) | 2.1.Topshiriqlarni aniqlaydi va guruhda ishlashni tashkil etadi. Yechimni tekshiradi va baholaydi. (3-ilova).<br>2.2.Topshiriqlar mazmunini tushuntiradi va bajarish bo’yicha maslahatlar beradi. | 2 ta kichik guruhga ajraladilar. Topshiriqda keltirilgan savollarga 1-2 javob tayyorlaydi.<br>Prezentasiyani amalga oshiradilar. |
| 3-bosqich. Yakunlovchi (10 min) | 3.1. Mavzu bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.<br>3.2.Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.<br>3.3.Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi. | Savollar beradilar<br>UMKga qaraydilar. |

1-ilova (1.1)

**Baholash mezoni:**

2,6-3,0 ball- «a’lo»

2,1- 2,0 ball - «yaxshi»

1,6-2,0 ball- «qoniqarli»

0- 1,5 ball- «qoniqarsiz»

2-ilova.(2.2.)

**1- topshiriq**

1. Uy xo'jaligiga ta'rif bering va uning tashkilot sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini ayting?
2. Oila bilan uy xo'jaligi o'rtasidagi farq nimada?

**1- topshiriq**

1. Uy xo'jaligining inson kapitalini shakllantirishda qanday funksiyalari bor?
2. Uy xo'jaligining qanaqa shakllari mavjud. farqi nimada?

3-ilova (3.3)

**Kichik guruhlarda ishlash qoidasi**

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilish-lari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

## FAN BUYICHA BAHOLASH MEZONLARI JADVALI (TEXNOLOGIK XARITA):

| Ishchi o'quv dasturidagi mavzular tartib raqami (qo'shimcha topshiriq mazmuni) | Umumiy soat | | | | | Baholash turi | Nazorat shakli | Ball | | Muddati (hafta) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ma'ruza | Amaliy mashg'ulot | Laborat. ishi | Mustaqil ish | Jami | | | Max. ball | Sar. ball | |
| 5 – semestr | | | | | | | | | | |
| 1 –6 | | 10 | | 10 | 20 | JB | Kundalik nazorat, uy ishi, referat, kollokvium, test | 13 | | sentyabr, 1- hafta |
| 7-12 | | 10 | | 10 | 20 | JB | Kundalik nazorat, uy ishi, referat, kollokvium, test | 13 | | noyabr, 1- hafta |
| 13-18 | | 10 | | 10 | 20 | JB | Kundalik nazorat, uy ishi, referat, kollokvium, test | 14 | | dekabr, 1- hafta |
| 1 – 9 | 14 | | | 10 | 24 | OB | Og'zaki | 15 | | dekabr, 2- hafta |
| 10-18 | 14 | | | 10 | 24 | OB | Og'zaki | 15 | | fevral, 3- hafta |
| 1-18 | | | | | | J/B+ O/B | | 70 | 39 | |
| 1– 18 | 28 | 30 | | 50 | 108 | YaB | Yozma | 30 | | Jadval bo'yicha |

## Joriy nazoratlarda baholashlar mezoni

| Maks. ball | Baholanadigan ish turlari |
|---|---|
| 4 | Darsga nazariy tayyorgarlikni bajarish |
| 9 | Umumiy va yakka tartibdagi uy vazifalarini bajarish |
| 9 | Laboratoriya, seminar, mustaqil ishlarini bajarish va topshirish (har bir laboratoriya, seminar, mustaqil ishi uchun maksimal 12 ball) |
| 9 | Nazorat ishi, mavzu(lar) bo'yicha test topshirish. |
| 9 | O'quv dasturiga qo'shimcha referat yozish, amaliy topshiriqlar bajarish va himoya qilish (mustaqil ta'lim) |
| 40 | Jami |
| 10 | Fan bo'yicha ilmiy konferensiya, olimpiada, tanlov va konkurslarda ishtirok etib, yuqori o'rinlarni (1-3) egallash yoki ilmiy maqola va risolalar chop etgan talabaga rag'batlantirish maqsadida 45 ball doirasida 10 ballgacha qo'shimcha ball beriladi. |

*Izoh:* Uy topshiriqlari, laboratoriya ishlari va boshqa qo'shimcha topshiriqlarni bajarganligi uchun ball berishda topshiriqning to'g'ri, sifatli va muddatida bajarilishi, ijodiy yondashish, tushuntirib bera olish kabi jihatlarga alohida e'tibor beriladi. Ushbu topshiriqlarning yozma bayoni uchun alohida daftar tutiladi.

## Oraliq va yakuniy nazoratlarda baholashlar mezoni

| Ball | | Talabaning bilim, ko'nikma, fikrlash darajasi |
|---|---|---|
| OB | YaB | |
| 29-30 | 29-30 | Talaba fanning mohiyati va iqtisodiyotdagi o'rnini, o'tilgan materialni chuqur tushunadi, savolga aniq va to'liq javob beradi, faktlarga to'g'ri baho bera oladi, mustaqil fikrlay oladi, xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni to'g'ri va o'ziga xos usullarda hal qila oladi, to'g'ri xulosa chiqaradi. |
| 27-28 | 27-28 | Talaba o'tilgan materialni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob beradi, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yadi, faktlarga to'g'ri baho bera oladi, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, umuman masalani hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni to'g'ri hal qiladi, lekin xulosalarda ba'zi noaniqliklarga yo'l qo'yadi. |
| 25-26 | 25-26 | Talaba o'tilgan materialni va uning moxiyatini ancha chuqur tushunadi, savollarga to'liq javob beradi. Lekin umumiy |

| | | |
|---|---|---|
| | | xarakterdagi ayrim xatoliklarga yo’l qo’yadi, faktlarga to’g’ri baho bera oladi, mustaqil fikirlash va xulosalarni asoslash qobiliyati bor, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni umuman to’g’ri hal qila oladi, lekin xulosalarda noaniqliklar uchraydi. |
| 23-24 | 23-24 | Talaba o’tilgan materialni va uning mohiyatini juda yaxshi tushunadi, savollarga umuman to’liq javob beradi, lekin ayrim noaniqliklarga yo’l qo’yadi, faktlarga to’g’ri baho bera oladi, mustaqil fikrlay oladi, lekin ba’zi xulosalarni to’liq asoslab berolmaydi, umuman masalani hal qilishga ijodiy yondasha oladi, amaliy topshiriqlarni biroz qiyinchilik bilan, lekin umuman to’g’ri hal qiladi, xulosalarida noaniqliklar uchraydi. |
| 21-22 | 21-22 | Talaba o’tilgan materialni va uning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yaxshi tushunadi, savollarga to’liq javob beradi, lekin ba’zi umumiy xarakterdagi xatoliklara yo’l qo’yadi, faktlarga baho berishda biroz qiynaladi, umuman mustaqil fikrlay oladi, lekin ayrim xulosalarni asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga ancha ijodiy yondashadi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda ayrim umumiy xarakterdagi xatoliklarga yo’l qo’yadi, xulosalarida noaniqliklar uchraydi. |
| 19-20 | 19-20 | Talaba o’tilgan materialni va uning mohiyatini umuman tushunadi, savollarga ancha aniq va to’liq javob beradi, lekin ayrim xatoliklarga yo’l qo’yadi, ayrim faktlarni shunchaki yodlab olganligi sezilib turadi, ayrim xulosalarni to’g’ri asoslab bera olmaydi, masalani hal qilishga ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda ayrim xatoliklarga yo’l qo’yadi, xulosalarida noaniqliklar uchraydi. |
| 17-16 | 17-16 | Talaba o’tilgan materialni umuman biladi. Savollarga aniq va to’liq javob berishga harakat qiladi, lekin ayrim jiddiy xatoliklarga yo’l qo’yadi, qator faktlarni shunchaki yodlaganligi seziladi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, ijodiy yondashish sezilmaydi, amaliy topshiriqlarni umuman hal qiladi, ba’zi jiddiy xatoliklarga yo’l qo’yadi. |
| 14-16 | 14-16 | Talaba o’tilgan materialni umuman biladi, aniq javob berishga xarakat qiladi, lekin javobda jiddiy kamchiliklar bor, mulohaza yuritishda xatoliklarga yo’l qo’yadi, faktlarni asosan shunchaki yodlaganligi seziladi, ayrim xulosalarni asoslab, bera olmaydi va masalani hal qilishga ijodiy yondasha olmaydi, amaliy topshiriqlarni qiynalib bo’lsada hal qiladi, lekin jiddiy kamchiliklarga yo’l qo’yadi. |
| 10-13 | 10-13 | Talaba o’tilgan materialni qisman biladi, javobda jiddiy kamchiliklarga yo’l qo’yadi, faktlarni baholab bera olmaydi, xulosalarni asoslashda qiynaladi, masalani hal qilishga ijodiy yondasha olmaydi, amaliy topshiriqlarni hal qilishda qiynaladi yoki hal qila olmaydi. |
| 7-9 | 7-9 | Talaba o’tilgan material haqida qisman, uzuq-yuluq tasavvurga ega, materialda yaxshi o’zlashtirilmagan, bilgan narsasini ham faqat |

| | | |
|---|---|---|
| | | yodlaganligi sezilib turadi, faktlarga baho bera olmaydi, amaliy topshiriqlarni deyarli hal qila olmaydi. |
| 4-6 | 4-6 | Talaba o'tilgan material haqida juda kam tasavvurga ega, ayrim faktlarni uzuq-yuluq bilishi mumkin, amaliy topshiriqlarni hal qila olmaydi, jiddiy qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi. |
| 0-3 | 0-3 | Talaba material bo'yicha deyarli hyech narsa bilmaydi, juda kam tasavvurga ega yoki umuman tasavurga ega emas. |

| **Nazorat turlari** | **Reyting bali** |
|---|---|
| Joriy nazorat; 40% | 86% – 100%; «A'lo» |
| Oraliq baholash; 30% | 71% – 85%; «Yaxshi» |
| Yakuniy baholash; 30% | 55% – 70%; «Qoniqarli» |
| Saralash ball; 55% | 0% – 54%; «Qoniqarsiz» |

## Mustaqil ishni bajarilish algoritmi

↓

Mustaqil ish mavzularidan birini tanlash va kafedrada ro'yxatdan o'tkazish

↓

Mavzu bo'yicha tasvirlar ustida ishlash

↓

Tasvirlar, chizmalar asosida dizayn yaratish uchun kerakli ma'lumotlarni yig'ish
.

↓

Yig'ilgan ma'lumotlar asosida dasturlar yordamida dizaynlar yaratish

↓

Yig'ilgan ma'lumotlar asosida mavzuni yoritish uchun grafiklar, tasvirlar, chizmalar, dizaynlardan foydalanish

↓

Mavzu bo'yicha yuqorida bajarilgan vazifalar asosida hisobot tayyorlash

↓

Xisobot bo'yicha ma'ruza qilish uchun MS PowerPoint programmasi yordamida prezentasiya tayyorlash

**Mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahat va tavsiyalar**

Mustaqil ish mavzulari sifatida talaba kursda o'rganilayotgan mavzulardan foydalanishni tavsiya qilinadi.

Mustaqil ish sifatida olingan mavzuni yoritishda adabiyotlar va internet tarmog'idagi saytlardan foydalanish mumkin. Bu holda mustaqil ish mavzusini o'qituvchi bilan birgalikda shakllantirib olishi zarur.

Kutubxona fondidagi elektron darsliklardan ham foydalanish mumkin.

Talabalarning mustaqil bajargan ishlariga o'zlarining ham baholarini berishlari ko'zda tutilgan bo'lib, buning uchun ular tayyorlagan hisobotlarini titul varag'ida ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha o'z ishlarini baholashlari kerak.

| № | Ko'rsatkichlar | Tinglovchining o'z ishiga bahosi | O'qituvchining bergan bahosi |
|---|---|---|---|
| 1. | Mustaqil ish mavzusi mazmunining ochib berilishi to'liqligi *(maksimum 10 % gacha baholanadi).* | | |
| 2. | Mavzu rejasining to'g'ri, aniq va to'liq shakllantirilganligi *(maksimum 10 % gacha baholanadi).* | | |
| 3. | Yozilgan ma'lumotlarning adekvatlik darajasi *(maksimum 10 % gacha baholanadi).* | | |
| 4. | Qilingan xulosa va berilgan tavsiyalarning asoslanganligi *(maksimum 10 % gacha baholanadi).* | | |
| 5. | Mustaqil ish punktlarining o'zaro mantiqiy bog'langanligi *(maksimum 10 % gacha baholanadi).* | | |
| 6. | Ishni bajarishda:<br>- faqat o'qituvchi bergan materiallardan foydalanib *(maksimum 5 % gacha baholanadi).*<br>- qo'shimcha adabiyot, internet ma'lumotlaridan ham foydalanib – *(maksimum 5 % gacha baholanadi).* | | |

**Prezentasiyani o'tkazish bo'yicha ayrim amaliy maslahatlar**

Prezentasiya guruh liderining chiqishidan boshlanadi: *Men – F.I.Sh. ...*
Barcha prezentasiya qiluvchilarning chiqishlari o'zlarini tanishtirishdan boshlaydilar: *Men – F.I.Sh. ...*
Ma'lumotlar: - grafik obyektlar, tasvirlar, sirtlar;
yoki - grafik, diagramma, sxemalar ko'rinishida
keltirilishi kerak.
Statistik ma'lumotlarning manbalari aks ettirilishi kerak.
Xulosalarning adekvatliligi ko'rsatilishi lozim.

## Prezentasiyani tashkillashtirish

**Prezentasiyani o'tkazish shakli**

Interaktiv dialog
taqdimot qiluvchi talaba ↔ guruhdagi boshqa talabalar


Prezentasiyaning olib borilishi
Guruhning barcha a’zolarining ishtiroki
Prezentasiyaning to’g’ri amalga oshirilishi
Ishtirokchilarning chiqishlarida qarama-qarshiliklar bo’lmasligi kerak
Tushunarsiz va yaqqol ifodalanmagan fikrlar bo’lmasligi kerak
Belgilangan vaqt chegarasidan chiqib ketmaslik lozim
Guruh a’zolarining chiqishlari ketma-ketligi aniqlangan bo’lishi kerak
Guruh a’zolarining funksiyalari belgilab olingan bo’lishi lozim


Prezentasiyaning mazmuni
Prezentasiyada nima taqdim qilinishi lozim? Albatta mavzu va uning yechimi.
Mavzuning dolzarbligi (ajratilgan vaqt 10 minutning 20%)
Maqsad, vazifa va holat (ajratilgan vaqtning 20%)
Xulosa va amaliy takliflar (ajratilgan vaqtning 50%)
Rezyume – guruh lideri tomonidan amalga oshiriladi (ajratilgan vaqtning 10%)
Prezentasiyada nima bo'lmasligi kerak
O'quv mashg'ulotlari yoki adabiyotlarda keltirilgan misollar va masalalar
Shartli statistik ma'lumotlar

## Press-konferensiya

**Press-konferensiya o'tkazilishi jarayoni**

**Savollar navbati bilan beriladi**

\ Savol beruvchi o'rnidan turadi va o'zini tanishtiradi.
*Men – F.I.Sh.*
*Meni savolim . . . ga*

yoki

*Mening savolim quyidagiga qaratilgan.*

Guruh lideri.
*Menning fikrimcha bu savolga . . . javob bersa to'g'ri bo'ladi deb o'ylayman.*

**Savollar aniq shakllantirilgan bo'lishi kerak**

**Savollar mavzu doirasidan chiqmagan bo'lishi kerak**

**Savol berish qoidalari**

Savolni qanday bermaslik kerak:
Nega Siz . . . deb o'ylaysiz?
Ishonchingiz komilmi . . . . ekanligiga?
Qayerdan oldingiz . . . . ekanligini?
Nega . . . . deb aytdingiz?

Savolni qanday berish kerak:
Agar . . . bo'lsa nima qilishni maslahat bergan bo'lar edingiz?
. . . masalada nima fikrdasiz?
. . . ni qanday amalga oshirsa bo'ladi deb hisoblaysiz?

*Esda tuting:*

***Sizga berilgan savol – nokompetentlikka ishora emas!***

*Eslatma.*

**Press-konferensiya – bu**

Munosabatlarni oydinlashtiradigan diskussiya emas
Bahs-munozara ham emas
«Murakkab savollar» uchun hisoblashish emas

**Press-konferensiya – bu**
**SIZNING GURUHDOSHLARINGIZ MASLAHATLARI**

## Mustaqil ishni tahlil qilish varag'i

| Tahlil bosqichi nomi | Tahlil bosqichi mazmuni | Tahlil natijasi | Baholash | |
|---|---|---|---|---|
| | | | mezoni | % |
| 1. Mavzuning qo'yilishi va maqsadi | Mavzuni atroflicha yoritish uchun to'g'ri reja tuzish hamda adabiyotlar bilan ishlash usulini tanlash. | | Aniq va to'g'ri | 25% |
| 2. Mavzuni atroflicha yoritish | Ilmiy va empirik ma'lumotlar va adabiyotlardan foydalangan holda amalga oshirish. | | To'g'ri va aniq | 25% |
| 3. Xulosa va tahlil | Ma'lumotlarni tahlil qilish, shu asosda xulosa va tavsiyalar berish. | | Aniqlik, qarorni asoslan-ganligi | 25% |
| 4. Hisobot va taqdimot | Qilingan ishlar bo'yicha yozma hisobotni tayyorlash va uni prezentasiya qilib himoya qilish. | | Lo'ndalik asosidagi prezentasiya, savollarga aniq va lo'nda javob. | 25% |

## BARCHA MAVZULARGA OID TAVSIYA ETILADIGAN UMUMIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari.


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: O'zbekiston,2003.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Tadbirkorlik subyektlariga soliq solish va ularning hisobot berish tizimi tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2005 yil 20 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" 25 may 2000 yil 69-II-son. Norma tizimi 2006.


### II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari.


4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investisiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2008 yil 21 iyul PF-3631 son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008 yil 5 oktyabr PF-3665-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2008 yil 5 iyun PF-2613-son.


### III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy –me'yoriy hujjatlari.


7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "O'zbekiston Respublikasining 2006 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" 2008 yil 27 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "2005-2006 yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi to'g'risida" 2008 yil 14 mart.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi Investisiya dasturi to'g'risida" 2007 yil 8 noyabr.


### IY. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.


10. I.A.Karimov. "Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". –Toshkent, O'zbekiston.: 2010
11. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqrozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari " O'zbekiston:. 2009.

12. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi.23.01.09.
13. I.A.Karimov "Erishilgan yuruqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim" Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.
14. I.A.Karimov «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir». T. O'zbekiston 2005

## V. Darsliklar.

15. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
16. Oleynik A.N. Institusionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2008.
17. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Sharq», 2006.
18. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2005.
19. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002.

## YI. O'quv qo'llanmalar

20. Ishmuxamedov A.E., va boshalar, Bozor iktisodiyoti va biznes asoslari o'quv kullanma -T.: TDIU, 2004.-160 c.
21. Ishmuxamedov A.E., Askarova M.T. «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» - o'quv qo'llanma -T: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. – 256 bet.

## Y1I. Statistika to'plamlari ma'lumotlar

22. Promышlennost respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskiy sbornik. - T.: Goskomitet RUz po statistike, 2010. – 67b.
23. Investisii respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskiy sbornik. – T.: Goskomitet RUz po statistike, 2010. – 86b

## YIII. Internet saytlari

24. www.economy.gov.ru
25. www.uza.uz
26. uzland.uz

27. www.stability.uz
28. www.ziyonet.uz

## IX. Moddiy-texnik va yordamchi vositalar

1. Ko'rgazmali plakatlar.
2. Slaydlar dastasi.
3. Kompyuter dasturlari: Maple va boshqa.
4. Dasturlar paketi, masalan, ANSYS va boshqa.

## X. Pedagogik texnologiyaga oid ba'zi adabiyotlar

1. Ostonov Q. Yangi pedagogik texnologiyalarni matematika o'qitish jarayonida tadbiq yetish usullari. Uslubiy qo'llanma.– Samarqand: SamDU nashri, 2006.– 72 b.
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.-T., 2001.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.
4. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – Toshkent: Iktisodiyot, 2009.
5. Bespalko V.P. Slagayemыye pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika, 1989.
6. Golish L.V. Texnologii obucheniya na leksiyax i seminarax: Uchebnoye posobiye //Pod общ. red. akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
7. Yepisheva O.B. Osnovnыye parametrы texnologii obucheniya. //Shkolnыye texnologii -2004.- № 4.
8. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
9. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O'qituvchi, 2004.
10. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi, 2000.
11. Saidaxmedov N.S. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash namunalari. - T.: RTM, 2000.
12. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
13. Selevko G.K. Sovremennыye obrazovatelnыye texnologii: Uchebnoye posobiye. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.
14. Tolibov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2006.
15. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005.
16. Farberman B.L. Peredovыye pedagogicheskiye texnologii. -T.: Fan, 2000.
17. Xolmuxammedov M.M. va boshqalar. Ta'lim pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2005. – 49 b.

# INSTITUSIONAL IQTISODIYOT FANI BO'YICHA TA'LIM TEXNOLOGIYASI


Muharrir G.Raximova

Musahhih M.Ro'ziboyev

Texnik muharrir H.Karimov

*2011-yil 18-martda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84/ 1,16.*
*"Times New Roman" garniturasi. Ofset qog'ozi. Ofset bosma usulida bosildi.*
*Shartli bosma tabog'i 6,5. Nashriyot hisob tabog'i 7,0. Adadi 100 nusxa.*
*084-buyurtma.*

***SamDU bosmaxonasida chop etildi.***
***140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.***